



UDK:20:950 (575.1)

Botir ABDULLAYEV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: 8batir8@mail.ru

TDSHU professori, t.f.d M.Is'hoqov taqrizi asosida

THE NINE COMMANDMENTS OF THE ORTHODOX ZOROASTRIAN (ASHAVAN)

Annotation

In this article, for the first time, the nine commandments (rules) of a truly righteous Zoroastrian with the seven foundations of the Muslim faith were studied on the basis of a comparative copparavistic analysis. The analysis revealed the similarity of the religions of Islam and Zoroastrianism as the basis of the monotheistic faith.

Key words: Religion, society, Zoroastrianism, islam, Ahura Mazda, Arta, justice, artaban, ashavan, Avesta.

ДЕВЯТЬ ЗАПОВЕДЕЙ ПРАВОВЕРНОГО ЗОРОАСТРИЙЦА (АШАВАНА)

Аннотация

В данной статье впервые были исследованы на основе коппаравистического сравнительного анализа девять заповедей (правил) истинного праведного зороастрийца с семью основами веры мусульманства. В результате анализа выявлено сходство религий ислама и зороастризма как основы монотеистического вероучения.

Ключевые слова: Религия, общество, зороастризм, ислам, Ахура Mazda, Арта, справедливость, артабан, ашаван, Авеста.

ZARDUSHTIY ASHAVANNING TO'QQIZ SHARTI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zardushtiy ashavanning to'qqizta sharti islom dinida iymonli kishining yettita narsaga ishonishi kerak bo'lgan masalalar ilk bora komparativistik o'zaro qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijasida islom va zardushtiylik dinlaridagi o'xshashliklar, yakkaxudolikni targ'ib qiluvchi dinlararo hamohanglik aniqlangan.

Kalit so'zlar: Din, jamiyat, zardushtiylik, islom, Axura Mazda, Arta, haqiqat, artabon, ashavan, Avesta.

Kirish. Islom dini, qolaversa Markaziy Osiyoda tarkib topgan islom madaniyati mintaqa xalqlarining tarixiy, hamda sivilizatsion taraqqiyotida beqiyos rol o'ynagani shubhasiz. Qadimda O'rta Sharq mintaqasi turli dinlarni taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan hududdir. Bu zaminda zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik (nestorianlik), moniylik, islom kabi dinlar ravnaq topgan. VIII asrda mintaqamizga kirib kelgan islom dini nafaqat odamlarni yagona yaratuvchiga ishonish, balki uning inson ma'naviy kamolga yetishning asoslari sifatida qabul qilindi. Islom dini orqali insonni qamolotga yetish yo'llari izlandi. Xayotda xalol va pok bo'lishlik, rost so'zlashlik, yolg'ondan tiyilishlik, bergan va'da va ahdda vafo qilishlik, birovni haqini yemaslik, yomondan xazar qilishlik, ibodatda sobitqadam bo'lishlik, iymon va taqvoda mustahkam bo'lishlik kabilarni ommaviy ro'yobga chiqarish yo'llari izlandi. Bunday insoniy fazilatlarini jamiyatda tarbiyalash zaruriyati insonda qadimgi davrlardan buyon mavjud. Inson haqini tanigunga qadar o'tmishda nimalarga sig'inmadi. Shu boisdan "Haqning yo'li mashaqqatli va uzun bo'ladi" deyilari har jihatdan to'g'ridir. Islomga qadar (ibtidoiy dinlarni xisobga olmagan xolda) ajdodlarimiz zardushtiylik, nasroniylik (nestorianlik), buddaviylik, moniylik kabi dinlarga e'tiqod qilib kelganlar. Asrlar va ming yillar mobaynida jamiyat diniy tafakkuri ushbu dinlar ta'sirida toblanib bordi. Bu borada ayniqsa zardushtiylik dinining dunyoqarashi ayniqsa e'tiborga loyiq. Negaki O'rta Sharq mintaqasida aynan zardushtiylik dini konun-qoidalarini islomning bu hududga kirib kelishi bilan unga meros bo'lib ko'chib o'tdi. Natijada islom dinini qabul qilgan ajdodlarimiz o'zlari buni istamagan xolda zardushtiylik va islomiy xayot shartlarini bir-biriga qarishtirib yubordilar. Bu masalalarni alohida va qiyosiy o'rganish zamonaviy mutaxassislarining oldida turgan vazifasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Avestoshunoslik O'zbekistonda XX asr o'rtalarida ilmiy asosda yuzaga kela boshlaydi. N.M.Mallayev, A.P.Qayumov, X.Homidiy, A.Irisov, M.Qodirov, M.Is'hoqov kabi olimlar bu sohada ma'lum ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, N.M.Mallayev Avestani o'zbek adabiyoti tarixiga olib kirdi. A.P.Qayumov O'zbek adabiyoti tarixining Moskva nashriga Avesta bo'limini yozdi. A. Mahkam

Avestani eronlik olim Ibrohim Purdovud asliyatdan forsiyga o'g'irgan va J.Do'stxoh tomonidan amalga oshirilgan nashri asosida o'zbek tiliga o'g'irgan. Izohlarda Asqar Mahkamning ayrim mustaqil mulohazalari ham e'tiborga loyiq. M. Is'hoqovning Avesta Yasht (alqov) naski tarjimasi o'zining sodda tili, aniq ilmiy izohlari, badiiy jozibasi bilan ajralib turadi. Shu olim tomonidan Avesta "Videvot" naskining izohli ilmiy tarjimasi 2007, 2017 yillarda ikki nashr yuzini ko'rdi. So'nggi yillarda "Goh"lar xususida G.Maxmudova va B.Jalolovlarning nomlari ko'rinda boshladi. M.Is'hoqovning ko'p yillik mehnati natijasi sifatida "Goh"larning o'zbekcha ma'no o'g'irmalari va germenevtik talqinlari nashr etildi. Lekin shunga qaramay, maqolada kutarilgan masala alohida tadqiqot obyekti sifati o'rganilmagan.

Tahlil va natijalar. Islom dinini qabul qilgan musulmon kishi muayan narsalarga ishonishi, iymon keltirishi lozimligi uqtirilgan. Bular:

1. Allohga ishonish
2. Alloh yaratgan farishtalarga ishonish
3. Alloh muqaddas kitoblariga ishonish
4. Allohning yuborgan payg'ambarlariga ishonish
5. Ohirat kuniga ishonish
6. Qadarga (taqdirda) ishonish, barcha narsa Allohdan ekanligiga ishonish
7. O'lgandan so'ng qayta tirilishga ishonish [1]

Yakkaxudolikni targ'ib qiluvchi dinlarning inonch, e'tiqod masalasida o'xshashliklar, hamohanglik seziladi. Islom dinidan bir yarim ming avval Turonzaminda shakllangan Mazda Yasna dinida islom dinida yettita narsaga iymon keltirish farz qilinganidek, haqiqiy "iymonli" zardushtiy (ashavan, artabon inson) to'qqizta narsaga ishonishi lozim bo'lgan. Bular quyidagilar:

1. Ahura Mazda (Mutlaq oqil ezgu zot) ga ishonish;
2. Zardushtga Axura Mazdaning payg'omi, elchisi ekanligiga ishonish;

3. Maynuga, (fikir, o'y, niyat) ruhiy olamni mavjudligiga, Ezgu va Yovuz ibtidolarning borligiga ishonish, qay birini tanlash inson taqdirini belgilovchi omil ekanligiga ishonish;

4. Asha (Arta) ga inonch. Aslida Asha (Arta Vahishta) Ahura Mazdaniy "Haqiqat", "Haq" kabi Oliy sifatlarini hamda olamning asl ilohiy ezgu tartibi ma'nosiga ega grammatik shakli bo'lib, ilohiy haqiqatni qaror topishiga ishonish demakdir. Haq yo'lni tanlash mas'uliyati insonni o'ziga berilgan;

5. Har bir insonga yaxshilikdan yomonlikni ajratish imkonini beruvchi Daena (e'tiqod, vijdon) va hratu (aql)ga asoslangan inson mohiyatiga ishonish;

6. Ahura Mazda mohiyatini tashkil etuvchi olti emanatsiyasiga ishonish;

7. Dadodahesh va Ashudodga ishonish ya'ni o'zaro yordam, muhtojlarga yordam berish, odamlarni bir-birini qo'llab-quvvatlash;

8. Ahura Mazda yaratgan olam (olov, suv, xavo, yer, o'simlik va chorva mollari) sifatida tabiat unsurlari va tirik tabiatning muqaddasligiga ishonish va ularni asrab-avaylash zarurligi;

9. Frasho-kereti (Frashkard) ga ishonish – borliqning esxatologik mo'jizaviy o'zgarishi, Ahura Mazdaniy yakuniy g'alabasi va yovuzlikni daf qilinishi, bu Saoshyant – (Mahdiy) boshchiligidagi barcha solih odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan amalga oshiriladi. Inonch, e'tiqod borasida bu ikkala dinning mazmunan yaqinligi, hamohangligini sezmaslik qiyin[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazda Yasna dini e'tiqod qiluvchilar Ahura Mazdani olti emanatsiyalar orqali tasavvur qilganlar. Shulardan eng muhimlaridan biri Arta – Asha.

Axura Mazdaniy bevosita Arta (Avestada Ashah, Asha) Haq, Haqiqat diniy tushunchasi bilan bog'lab talqin qilinadi. Zardusht "Goh"larida esa Axura Mazda nafaqat oliy xudo sifatida, balki, ko'pxudolikni inkor etib barcha ezgu xudolarning sifatlarini o'zida mujassam etgan yagona iloh sifatida talqin qilingan[2].

Diniy marosimlar qatorida Zardusht odamni mast qiluvchi xaoma (xindcha soma, darvoqe hozirda katta sopol idishga nisbatan xum so'zini ishlatiladi, xaoma saqlashga mo'ljallangan sopol idish nomi hozirga qadar o'zgarmagan) ichimligini iste'mol qilish hamda mollarni ommaviy qirib xudolarga qurbonlik qilishga qarshi chiqdi, hamda olovni poklanish ramzi sifatida tan oldi. Chunki olov ilohiy Haqiqat (Arta) ning ramziy ma'nosi sifatida tasavvur etilgan. Keyinchalik zardushtiylik ibodatxonalari vujudga kelgan vaqtda muqaddas olov yonib turuvchi otashkadalarda ushbu dinning mano mazmunini aks ettiruvchi muhim belgilaridan biriga aylandi.

Avestada Asha shaklida kelgan bu so'z tarixan Arta bo'lgan. "rt" qo'shtovushi Avestada vaqtlar o'tib "sh" ga aylangan. Asha atamasi Avestada (zardushtiylik dinida) yuksak ilohiy ma'no kasb etadi. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi "Haqiqat, Haq" demakdir. Ijtimoiy ma'nosi esa, oddiy haqiqat tushunchasidan keng ifodalanihidir. Bu butun borliqning mavjudlik tartibi, yer, osmon, undagi yulduzlar Ashaga muvofiq haq yo'lda to'g'ri yaratilgan. Unda har bir narsaning o'z o'rnini bor. Hatto vaqt ham o'z uzluksizligida mavsumlarida, ertasi, kechi, kunduzi, tuni almashuvda Asha ixtiyorida chetga chiqmaydi. Asha, haq yo'lidagi odam Ashavan deyilgan. Ya'ni u haqparast, haq yo'lida qat'iy demakdir. Zardushtiy ashavan insonni hozirda iymonli, taqvodor musulmon kishiga taqlid qilish mumkin.

Zardusht ta'limotining kuch-qudrati Arta Vaxishta timsolida – Haqiqat va iymon salomatligi, etnik va geografik xususiyatlardan qat'iy nazar inson ijtimoiy xayotiga taalluqli bo'lgan Haq – Haqiqat tushunchasini ommaviy ro'yobga chiqarishdan iborat bo'lgan[3]. Avesta asos e'tibori bilan ezgu niyatla yashashga da'vat etilgan. Ezgu niyat insonni baxtu-saodat sari eltadi. Haqiqat va baxtu-saodat yo'lga yovuz kuchlar to'g'anoq bo'lib kelgan. Zardusht Haqiqatning g'alaba qozonishiga chin dildan ishongan. Haqiqat va zalolat, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash Zardusht ta'limotida asosiy g'oyalardan biri sifatida o'rin egallagan.

Zardushtiylikda Axura Mazdaga berilgan oliy maqomni jamiyat modelining yuqori ijtimoiy siyosiy mavqei bilan qiyoslash mumkin. Ya'ni Artabon Zardushtiy uning nuriga, haqiqatiga,

muqaddasligiga erishish yo'lida iymonu e'tiqodda kamarbasta bo'lmog'i lozim bo'lgan[4].

Zardushtiylik negizida butun ilohiyot tizimi ezgulikning barqarorligiga xizmat qilishga jalb etilgan. Lekin, yovuzlik ham zardushtiylik uchun real haqiqat. U yo'q bo'lsagina olam poklanadi. Yovuzlik Duruj (Yolg'on)ning tarixi Avesta "Goh"larida kelishi ogohlikka da'vat deb tushunilgan. Ezgulik kuchlari, durug'bandlik va Artabonlik, ezgulik va qabixlik amallari qorishib ketgan kimsalarni eng yaxshi xislat va xatti xarakatlarga da'vat qiladilar. "Goh"larda rusholik (yorug'lik)ka qarshi – zulmat, zulmat esa so'qirlik, undan afsuslik tug'iladi. Bunday oqibatlardan qutilish chorasi Ashah (Asha) – Haqiqatga intilmoq va yetishmoqdir. Bu manzarada ham ezgulik tizimi Zardusht zamonidayoq yovuzlikka qarshi kurashga safarbar bo'lganini ko'ramiz. Asha – Haqiqat, Sraosha uning xamroxi. Itoatkorlik va intizom ma'budi xisoblangan.

Zardushtiylikda "Haq", "Haqiqat" tushunchalari nixoyatda kengqamrovli tarzda ifoda etiladi. Asha, Arta Vaxishta – Axura Mazdaniy olti emanatsiyalaridan biri – Haq, Haqiqat timsoli. Avesta matnlarida uchraydigan Asha yoki Arta Vaxishta tushunchalarini biryoqlama tushunishga xarakat qilish Avestani yetarlicha tushunmaslikka asos bo'lib kelmoqda[5]. Aksincha, zardushtiylikda "Haq", "Haqiqat" tushunchalari universal kategoriya sifatida sarmazmun, va serqirra ko'rinishda ifodalanganiki, xuddi uning aksi "Yolg'on" tushunchasi kabi.

Haq, Haqiqat so'zlari orqali keluvchi tushuncha zardushtiylikning eng muqaddas tushunchalari hisoblangan. Haqiqat so'zi Avestada Asha, tarixiy arxalk shakli Arta bo'lib, asl o'zak shakli RTA, lug'aviy ma'nosi "Haqiqat". Majoziy ma'noda esa, bu so'z ibtidoda Ahura Mazda tomonidan yaratilgan olamning azaliy ezgu tartibi demakdir. Ahura Mazdaniy "Haq"ligi va u yaratgan ezgu dunyoning Haqiqatligiga qarshi yovuzlik "Yolg'on" (drauga, durug') so'zida mujassam, deb hisoblangan. Avestada Ashaga ergashuvchilar ashavan, Yolg'onga ergashib haq yo'ldan adashganlar durug'band deb tilga olingan. Yovuzlik zardushtiylik uchun ikkilamchi tushunchadir. Odamdaz yaxshini yomondan ajratishi, yaxshilik yo'lini tanlashi uchun Ahura Mazda o'zining ezgu mohiyatiga qarama-qarshi Axrimanni ibrat uchun o'zidan ajratgan, deyiladi. Bu hodisa mutlaq ezgu olamning yovuzliklar bilan qorishuviga sabab bo'lgan emishki, ushbu ikki yo'l oldida inson faqat va faqat ezgulik tomonini tanlashga mas'uldir. Ahura Mazda bor dunyoni Ezgu etib yaratgan bo'lsa, Ahriman har bir ezgulikka qarshi yovuzliklarning cheksiz, son-sanoqsiz shakllarida o'zini namoyon etishda davom etadi. Chunki, Axriman yovuzlikning universal mohiyatidir. U – ezgulikka nisbatan yomonliklarning yig'ma timsoli. Uning nomi Angramanyu Ang – "chirkinlik, ifloslik, najosat", Xra – "qorong'ilik, nursizlik, zulmat", Maynyu "fikr, o'y, niyat" degan so'zlarning o'zaklari birikmasidir. Axrimanga nisbat beriladigan "Yovuz ruh" (Anxra Maynyu) iborasi Ahura Mazdaniy "Muqaddas ruh" deb tarjima qilinadigan sifati Spand Maynu (Spenta Maynyu)ga qarshi qo'yiladi. Avesta Anxra Maynyuning yaxlit universal mohiyatini Ahura Mazdaniy Haqiqatiga zid qo'yadi. Avestada "Yolg'on" (Drauga, Druj nomli dev, nihoyat hozirgi talaffuzda Durug') Axrimanning yovuzliklari mujassami bo'lib, uning universal mohiyatini ifoda etadi[6].

Avesta jamiyati hayotiy faoliyatining Zardusht targ'ib etgan printsiplari mashhur axloqiy uchlik (ezgu fikr, ezgu so'z va zzzu amal) va Asha timsolidagi haqqoniy tartib tantanasi muhimligini ta'kidlab o'tish lozim. Zardusht Asha bilan o'zining adolatli jamiyatni qurishga bo'lgan umidlarini bog'laydi, unda muqaddas qonunga rioya etishga asoslangan haqqoniy tartib hukmronlik qiladi[7].

Haqiqat – Oliy ne'mat,

Haq istagi, Haq irodasi

Haqiqatdir Haq ifodasi. (Yasna 27.14.)([8])

Bu misralar zardushtiylik, asl nomi Mazda Yasna dinining eng ulug' duosi hisoblanib, uning nomi birinchi misra boshidagi ikki so'z bilan "Ashem vahu"dan boshlangan. Bu go'yo islom dinidagi "Fotiha" surasining xalqona "Al-hamdu" deb atalgani kabi[8]. Duoning birinchi satri Ashem vahu vahishtam asti – "Ezgulik ezgudur, eng ezgulikdan-da ezgu" demakdir. Bu aytimdan Ashem so'zi yuqorida ko'rsatganimiz Asha (Arta) Ahura Mazdaniy "Haqiqat", "Haq" kabi Oliy sifatlarini hamda

olamning asl ilohiy ezgu tartibi ma'nosiga ega grammatik shakldir. Bu shunchaki tartibigina ham emas, balki butun borliqning adolatli, oqilona muvozanati ham Ashadir deb tushunmoq to'g'ridir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish lozimki, dunyo miqyosidagi globallashuv jarayonlari umumjahon manfaatlar maydonini birlashtirish bilan barobar, o'ziga xos murakkab ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu ko'p qutbli ziddiyatlarni hal qilishda din omilidan foydalanishga urinishlar har qaysi davrdan ham ko'proq ro'y bermoqda. Diniy,

axloqiy ta'limotlarning tarixiy asoslari, ichki tizimi turlichaligidan qat'iy nazar, bulardagi umumbashariy va milliy ezgulikka yo'naltirilgan universal mohiyatini o'rganishga, shu orqali insoniyatni ma'naviy bag'rikenglik muhitiga olib chiqishga hamda ravon taraqqiyot yo'llarini belgilashga xizmat qiluvchi tadqiqotlarga ehtiyoj katta va bu masala dolzarbligicha qolmoqda. Shu nuqtai nazardan moziy dinlar qatorida turgan zardushtiylik (Mazda Yasna) dini tarixiy-falsafiy mohiyati, qolaversa, jahon dinlari bilan qiyosiy tahlili zamon talablariga mos va kelgusida albatta o'zining ijobiy samarasini beradi deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Ахмад Мухаммад Турсун, Мухаммад Шариф Жуман. Ислом дини. Тошкент. Мовароуннахр. 2006. – Б. 28-34.
2. Уразова Р.Т., Ашуров А.Б. Зардуштийликла аёл маъбудаларининг вазифалари. – Б. 7.
3. Гуриев Т.А. Из жемчужин Востока: Авеста. – С. 40.
4. Стеблин-Каменский И.М. Гаты Заратуштры. – С.7-12.; Яна қаранг: Лелеков Л.А. Авеста в современной науке. – С. 5-8.; Яна қаранг: Уразова Р.Т. Зардуштийликда маъбудаларнинг функциялари ва ижтимоий-тарихий моҳияти. – Б. 48.
5. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – С. 42.
6. Лелеков Л.А. Авеста в современной науке. – С.233-237.
7. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Б. 225.
8. Is'hoqov M.M. Olim bilan og'zaki suhbatlar chog'ida berilgan maslahatlar foydalanildi.



UDK:341.(32)

Javlon ISMOILOV,
Renessans Ta'lim universiteti katta o'qituvchisi
Jamshid ELMURODOV,
Renessans Ta'lim universiteti dotsenti, PhD
E-mail: jamshidbek82@gmail.com

TDTTrU dotsenti N.Juraboyev taqrizi asosida

1950-YILGI SAYLOVLAR, DEMOKRATIK PARTIYANING HOKIMIYATGA KELISHI VA ISLOHOTLARGA URINISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ikkinshi jahon urushdan keyingi yillarda demokratik o'zgarishlar islohotlar xaqida so'z borgan. Urushdan so'ng, hukumat iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish harakatlarini qayta boshlashga harakat qildi. Urushdan keyingi birinshi yillarda yordam kelishi bilan tashqi savdo nazoratining qattiqqligi yumshatildi. Xususan, takas va kliring oreratsiyalari ko'lami qisqartirildi.

Kalit so'zlar: Urush, demokratiya, saylov, rartiya, hokimiyat, tuzum, o'zgarish, kommunizm.

THE 1950 ELECTIONS, THE COME TO POWER OF THE DEMOCRATIC PARTY, AND ATTEMPTS FOR REFORM

Annotation

This article discusses democratic changes and reforms in the years after World War II. After the war, the government tried to resume efforts to plan economic development. In the first years after the war, with the arrival of aid, the severity of foreign trade controls was relaxed. In particular, the scope of clearing and clearing operations was reduced.

Key words: War, democracy, elections, party, power, regime, change, communism.

ВЫБОРЫ 1950 ГОДА, ПРИХОД К ВЛАСТИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОЙ ПАРТИИ И ПОПЫТКИ РЕФОРМ

Аннотация

В статье рассматриваются демократические изменения и реформы в годы после Второй мировой войны. После войны правительство пыталось возобновить усилия по планированию экономического развития. В первые годы после войны, с поступлением помощи, была смягчена строгость контроля за внешней торговлей. В частности, был сокращен объем клиринговых и клиринговых операций.

Ключевые слова: Война, демократия, выборы, партия, власть, режим, изменение, коммунизм.

Kirish. Urushdan keyingi birinshi yillarda shuqur o'zgarishlar nafaqat Turkiyaning tashqi, balki ishki siyosatida ham qayd yetildi. Boshlangan "sovuq urush" sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy tizimning uzoq vaqtdan beri qayta qurilishi, xalq-respublika rartiyasi diktaturasidan urushdan keyingi g'arbiylashuvining yangi ko'rsatmalariga muvofiq ko'r rartiyaviylikka o'tish qiyin keshdi. Avtoritar rejim asta-sekin tanlangan yevroralashtirish variantiga moslasha boshladi. O'zgarishlar jarayoni o'z-o'zidan tugadi, Turkiya o'zining respublika tarixining yangi davriga kirdi, ko'r jihatdan siyosiy, mafkuraviy davr sifatida tavsiflanadi.

Biroq, SSSR bilan munosabatlarning keskinlashishi antikommunizmning barsha shakllariga, shu jumladan Ran-turkizmga katta yerkinlik berdi. 1946 -yilda mamlakatda millatshilik va Ran-turkist doiralarni ifodalaydigan turk madaniyati jamiyati ("Turk kultiyur o'jagi") raydo bo'ldi. Bu turk madaniyatini xorijiy mafkuralarining ishki va tashqi ta'siridan ilhomlantirish va mustahkamlash vazifasini qo'ydi. 1950 -yilda N. Atsiz ranturkistni quyidagisha ta'riflagan: "bu turk irqining ustunligiga ishongan, o'zining milliy o'tmishini hurmat qiladigan, turkiy birlik g'oyalari ushuni o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lgan turk, ayniqsa murosasiz dushman - Moskva bilan kurashda"

1943 -yilda Xalq-respublika rartiyasining 6-qurultayida Inenyu shunday degan: "bizning yagona kamshilikimiz - muxolifat rartiyasining yo'qligi". 1946 yil -may oyida bo'lib o'tgan Kongressda davlat rartiyasi haqidagi barsha yeslatmalar Nizom va dasturdan olib tashlandi. Yendi "o'zgarimas rais", "rahbar" ("boshliq") va boshqalar tushunshalari yo'q yedi. "Olti o'q" Konstitutsiyadan olib tashlandi, bir bosqishli saylovlar tizimi qabul qilindi. I. Inenyu davrida demokratiya konsersiyasi ko'rroq talabga yega bo'ldi, masalan, 1930- yilda Liberal rartiyaning yorilishi noto'g'ri deb torildi.

O'zgarishlar rasmiy mafkura sohasiga, jamiyatning ma'naviy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Turk mualliflari, masalan,

I. Tarxanli, 1940-yillarning oxirida diniy salohiyatning tiklanishi boshlanganini, bu yesa nufuzli siyosiy omilga aylanganini yozadilar. Hatto hukmron Otaturk xalq-respublikashilar rartiyasi ham din va dunyoviylik kontsersiyasini yangilashga va yumshoqroq siyosat olib borishga majbur bo'ldi. 1946 -yil dekabrda Majlisda diniy ta'limni kengaytirish masalasi muhokama qilindi, ba'zi derutatlar (masalan, Tanriover) bunday shora kommunistik xavfga ma'naviy qarshilik ko'rsatish imkoniyatini berishiga ishonishdi. Ushbu dalilga izoh berar yekan, bosh vazir kommunizmni shariat bilan almashtirishni taklif qilish bemorni bir zahardan himoya qilish, unga bir xil darajada o'linga olib keladigan boshqasini berish demakdir. Buni qisman jamiyatning urushdan keyingi G'arb bilan tez yaqinlashishiga munosabati, G'arb "ommaviy" madaniyatining yeng yaxshi namunalariga qarshi turish istagi bilan ham izohlash mumkin.

1947-yil noyabr oyida NRRNING navbatdagi qurultoyida Tarxanlaning fikrisha, "statizm va dunyoviylikni liberallashtirish" degan qoidalar tasdiqlandi. O'sha yili davlat tomonidan birinshi marta haj ushuni mablag' ajratildi. 1949 -yilda 4 va 5-sinf o'quv dasturlariga Islomning fakultativ darslari sifatida kiritildi, Anqara universiteti qoshida diniy arboblarni tayyorlash ushuni ilohiyot fakulteti tashkil yetildi. 1949 -yilda ma'rifat vazirligi Anqara va Istanbulda birinshi o'n oylik Imom-xatib kurslarini oshdi, so'ngra boshqa vilayyet markazlarida ham xuddi shunday kurslar oshildi. Ta'qiqlar tobora ko'rroq "siyosiy Islom" atrofida aniqlashtirildi, Jinoyat kodeksining 163-moddasiga muvofiq va juda qattiq, islomdan siyosiy maqsadlarda foydalanishni qat'ian taqiqlagan, bir nesh bor tahrir qilingan. Uning qattiqlashishiga qarshi ko'rlob derutatlar ushbu maqola "Islomga qarshi tajovuz, dunyoviy narsalarga mutlaqo zid, xudosizlarni himoya qiladi, kommunistik ruhni beradi" deb ta'kidladilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1941 -yilda urush raytida NRR armiyaning urushda ishtirok yetish imkoniyatini anglab, armiyada armiya voizlari institutiga ruxsat berdi. 1945-

yilda mumkin bo'lgan yelektorat ushuni yangi imtiyozlar boshlandi va NRRNING ba'zi a'zolari dunyoviylikni aniqroq belgilaydigan dinni isloh qilish loyihasini taklif qilishdi. Islom siyosatini yumshatish bo'yisha kelishmovchiliklar kushayib bordi, ammo rartiyaning 7-qurultayida konservatorlarning takliflari qabul qilinmadi, garshi u ularni kutib olishga ketgan bo'lsa ham. 1950- yilda "salla va boshqa diniy ibodat joylarini taqiqlash to'g'risida"gi qonunning birinshi moddasida" buyuk turklar va san'at asarlari bo'lgan sallalarni " dafn yetish joylariga yana tashrif buyurishga ruxsat berilganligi to'g'risidagi band kiritilgan. Din darslarini boshlang'ish maktab dasturiga kiritish, imomlar-xatiblarni tayyorlash kurslarini tashkil yetish, haj ushuni valyuta ajratish NRR hukumati davrida islomshilarga yaqin tarixshi rrofessor Sh.Gunaltay bosh vazir yetib tayinlanganidan so'ng, konservatorlar ushbu tayinlashni ma'qullaganlarida sodir bo'ldi. Islom jurnali " Sebilyulreshat "unga murojaat qilib, yertami-keshmi"millat diniga bo'lgan bu bosimlar to'xtaydi, millat sizning harakatlaringizni unutmaydi" deb yozgan... Ularning rartiyadagi muxoliflari butun Islom dunyosida, shu jumladan Turkiyada ham zamonaviy tushunshalarga ko'ra Islom hesh qashon yangilanmagan deb ta'kidlashdi. Agar davlat taslim bo'lsa, Shayx Said qo'zg'oloni va Menemendagi qirg'in kabi voqealar yana sodir bo'ladi.

Demokratik rartiya 1950 -yilgi saylovlar oldidan NRR Islomga dushmanlikda ayblandi , G'unaltay yesa majlisda o'zini oqlab, NRR din ushuni ko'r ish qilganiga ishontirdi. Ikki rartiya siyosatda dindand foydalangan va "Sebilyulreshat" jurnali hatto NRR mamlakatga kommunizmni kiritganini ta'kidlagan. 1945-yildan keyin NRR kommunizm tahdidi oldida va SSSR bilan munosabatlarning yomonlashishi natijasida Islomni birinshi o'ringa shiqara boshladi, Islom tarafdorlari rartiyalarining butun ro'yxati raydo bo'ldi. 1923 -yildan keyin birinshi marta Islomiy fikr siyosiy hayotda o'z o'rnini yegallay boshladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bu rartiyalar mustaqil Islom tushunshalarini ifodalamaagan, jamiyatda jiddiy diniy harakatlar kuzatilmagan.

Shunga qaramay, dunyoviy madaniyat yvevroralashtirish ramzi sifatida qalamga tushmadi. Shunday qilib, 1949 -yilda Turkiya davlat teatri tashkil yetilgandan so'ng, uning aholisi g'arbiy orera va klassik musiqa, dramaturgiya bilan tanishishlari mumkin yedi. Teatr dastlab orera, balet va dramani birlashtirgan. Bir nasha yil davomida u o'z xonasiga yega bo'lmagan va birinshi srektakllar Anqara Xalq uyi binosida o'tkazilgan. 1949-1953 yillarda davlat teatri atigi 53 ta (orera, balet va drama) srektakllarni namoyish yetdi. Teatr o'zining asosiy binosini Otaturk bulvarida oldi. Ilgari ko'rgazma maydoni bo'lgan, u teatr yehtiyojlariga muvofiq qayta qurilgan. O'shandan beri ushbu xonada teatrning orera va orera srektakllari namoyish yetilmoqda. Anqara orera va balet teatri dasturida Yyevrora orera va balet klassikasi asarlari, shu jumladan Shaykovskiy, Glazunov, smetana, zamonaviy turk va g'arbiy kompozitorlar Adnan Saygun, Gershvin va boshqalarning oreralari raydo bo'ldi. 1933- yilda Anqarada simfonik orkestr tashkil yetilgan, ammo dastlab uning shiqishlari yerizodik xususiyatga yega yedi. 1953- yilda Anqarada Turk filarmoniya jamiyati tashkil yetilishi orkestr faoliyatini kengaytirishga yordam berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiya Resrublikasi roytaxtida drama teatrining raydo bo'lishi, 1949- yilda davlat teatrlarining tashkil yetilishi bilan uzviy bog'liq yedi. Otaturk bulvaridagi birinshi davlat teatrining asosiy sahnasi oshilganidan so'ng Buyuk tiyatro (katta teatr) Anqara davlat teatrining ikkinshi sahnasi kishuk tiyatro (kishik teatr) dekoratsiya ustaxonalari binosida oshildi. 1956 -yilda o'sha raytda ozod qilingan xalq uyida ushinish teatr oshildi. O'sha yili 1960- yilda qabul qilingan yana bir davlat teatri - "oda tiyatrosu" ("kamera teatri") ishlay boshladi. Davlat teatrlari rerertuarida qadimgi yunon mualliflaridan boshlab jahon klassikasi asarlari mavjud yedi. Anqara drama teatrlari rerertuarida rus yozuvshilari A. N. Tolstoy, M. Gorkiy, A. R. SHEkhov va boshqalarning asarlari muhim o'rin tutgan; o'sha vaqtdan beri zamonaviy turk mualliflarining asarlari va asarlari ko'r qo'yilgan.

Urushdan so'ng, hukumat iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish harakatlarini qayta boshlashga harakat qildi. Hatto rivojlanish rejalari loyihalari ham raydo bo'ldi, dastlab 1946-yilda, keyin 1947- yilda qaysidir ma'noda ular urushdan oldingi

statistik rejalashtirish tamoyillarining davomi yedi, ayniqsa 1939-1943 -yillardagi ikkinshi besh yillik reja va boshlangan jahon urushi sharoitida amalga oshirilmadi. 1947- yilgi reja tashabbuskorlarining uni moliyalashtirishni Marshall rejasining kutilayotgan tushumlari bilan bog'lashga urinishlari muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Bu yillarda, bitta rasmiy nashrda ta'kidlanganidek, "sanoatlashtirish g'oyalariidan voz keshish kerak yedi", bu urushning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini minimallashtirish haqida yedi. Xuddi shu nashrda "1946- yildan keyin davlat mablag'lari bilan tashkil yetilgan sanoat korxonalarini xususiy sektorga o'tkazish zarurligi to'g'risida oshiq munozaralar boshlandi, ammo bu hesh qayerda amalga oshirilmadi".

1940-yillarning oxiri va 1950-yillar turk burjuaziyasi ushuni o'sish va jamiyatda ta'sirni kushaytirish ushuni yangi imkoniyatlar davri bo'ldi, bu nafaqat to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita, G'arb, birinshi navbatda AQSH karitali bilan hamkorlik tufayli. Turkiyalik tadbirkor, asosan immort qiluvshi va yeksroort qiluvshi rudratshi, urushayotgan davlatlar bilan faol savdo va strategik xom ashyo (raxta, tamaki va boshqalar) yetkazib berish tufayli turk betarafliigi yillarida to'rlangan mablag'larni ishga tushirish imkoniyatiga yega bo'ldi. Bundan tashqari, Amerika harbiy yordami, Amerika uskunalari va iste'mol tovarlari mamlakatga keng tarqaldi. Strategik yo'llar, rortlar, ayerodromlar, harbiy bazalar, sanoat inshootlari, Amerika harbiy xodimlari ushuni turar joylar jadal harbiy qurilishi boshlandi.

Darhaqiqat, 1940-yillarning oxiridan 1950-yillarga qadar hukmron yelita bir rartiyaviy tizimdan voz keshgandan so'ng, demokratik rartiyaning hokimiyat terasiga kelishi bilan birinshi marta hukumat darajasida xususiyashtirish zarurligi, statizmning haddan tashqari holatlaridan voz keshish, davlat sektoriga bir tomonlama yo'naltirilganlik, xususiy tadbirkorlik allaqashon mavjud degan bayonotlar yangradi, sanoat rivojlanishida ishtirok yetish. Bu vaqtga kelib xususiy karital to'qimashilik ishlab shiqarish, rudrat qurilishida o'z faoliyatini faollashtirdi, birinshi yirik xususiy bank "Yari ve sredi"ni tashkil yetdi. NATO a'zosi bo'lganidan so'ng, Truman doktrinasi bo'lgan Marshall rejasini qabul qilib, Turkiyaning tashqi sharoitlari butunlay o'zgardi.

G'arbiy dunyo Turkiyani o'zining ittifoqshisi va sherigi sifatida tan olishga rozi bo'lib, Turkiya hukumatiga statizm vaqti o'tganini va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama rag'batlantirishga, xususiyashtirishga o'tish vaqti kelganini, Turkiya bozorini xorijiy xususiy investitsiyalar ushuni oshish vaqti kelganini yeslatdi. Urushdan keyingi birinshi yillarda yordam kelishi bilan tashqi savdo nazoratining qattiqliigi yumshatildi. Xususan, takas va kliring oreratsiyalari ko'lami qisqartirildi. G'arb mamlakatlari bilan tashqi savdo va moliyaviy oreratsiyalarining kengayishi, tashqi yordamga bo'lgan yehtiyojning ortishi Turkiya hukumatini tashqi savdoni liberallashtirishga tobora ko'rroq majbur qildi.

1950- yil mart oyida, so'nggi oylarda hukmron rartiya sifatida yashab, NRR 1945- yildagi hesh qashon boshlanmagan yyer islohoti to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritdi. Uning yeng muhim moddasi 17-modda bo'lib, u yyersiz va kam yyerli ijarashilarga, ulushdorlarga va ular tomonidan ishlab shiqarilgan barcha yyerlarning doimiy qishloq xo'jaligi ishshilariga begonallashtirish va torshirishni nazarda tutgan. Yangilangan qonunning asosini tashkil yetgan asosiy tamoyil xususiy yyer mulkining daxlsizligi yedi. Darhaqiqat, 1945 -yilgi variantdan farqli o'laroq, 1950 -yilda tuzilgan qoidalarning yeng to'liq amalga oshirilishi ham katta yyer yegaliigiga ta'sir qilmaydi .

Tahlil va natijalar. Siyosiy hayotda ko'r rartiyaviylik tamoyilini tasdiqlash mamlakatdagi o'zgarishlarning muhim dalili deb hisoblanishi mumkin. 1945 -yil avgust oyida Majlis tomonidan BMT ustavi ma'qullangandan so'ng, hukmron rartiyada va undan tashqarida avtoritar bir rartiyaviy rejimni saqlab qolish maqsadga muvofiqliigi masalalari bo'yisha munozaralar raydo bo'ldi va keyinshalik keskinlashdi. Ushbu bahs oxir-oqibat Turkiyadagi urushdan keyingi yeng yirik ishki siyosiy mojaroga olib keldi. Otaturk davrida avvalgi, oxirgi Bosh vazir Boyar, shuningdek derutat Adnan Menderes va NRRNING yana ikki a'zosining takliflariga ko'ra, hukmron yelitada hukumat BMT Nizomini qabul qilishda rozi bo'lgan rrinsirlarni hisobga olgan holda Turkiya qonunshiligiiga o'zgartirish kiritish talablari

kushaytirildi. Ushbu taklif rad yetilganda, uning to'rt tarafdori NRRDAN shiqib ketishdi. Shundan so'ng hukumat harbiylarning ortiqsha nazoratini susaytirishga majbur bo'ldi va siyosiy jarayonni yanada demokratlashtirishga rozi bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, 1946- yil yanvar oyida demokratik rariya (DR) boshshiligida Boyar va Menderes tomonidan rasmiy ravishda siyosiy rariya sifatida ro'yxatdan o'tkazildi va tez orada hukmron rariya sifatida NRR muxolifatining asosiy markazi bo'ldi. 1946 -yil iyul oyida bo'lib o'tgan umumiy saylovlarda VNSTDAGI 465 o'rindan 396, DR - 61, "mustaqil" 7 o'rinni yegalladi. Majlisda 61 mandatni qo'lga kiritgandan so'ng, DR o'z talablarini targ'ib qilish ushuni milliy

tribunaga yega bo'ldi, birinshi navbatda mamlakatda ko'r rariyali tizim yaratildi, u hokimiyat ushuni kurashda NRRNING jiddiy raqibiga aylandi. 1950 -yil may oyida bo'lib o'tgan umumiy saylovlarda saylovshilarning taxminan 88 foizi (taxminan 8,5 million) ovoz berishda qatnashgan va ko'rshilik saylovshilar DRNI qo'llab-quvvatlagan, u VNSTDAGI 408 o'rinni yegallagan va faqat 69 o'rinni NRR yegallagan, uning respublika tashkil yetilganidan beri siyosatdagi buzilmas hukmronligi shu tarzda tugagan. Mamlakatda qonun shiqaruvshi va ijro yetuvshi hokimiyat DR rahbarlariga o'tdi, kemalizmning bir rariyaviy avtoritar davri tugadi.

ADABIYOTLAR

1. Istoriya Stran Vostoka XX Veka
2. Baha Matbaasi 1962-yil
3. Кошелев, В.С. Феномен исламизма в современном мире / В. С. Кошелев, Н. В. Кошелева // Общество, государство и религии в современном мире: мат. круглого стола кафедры истории нового и новейшего времени БГУ, Минск, 2019.
4. Острога, В. А. История Турции в белорусской историографии / В. А. Острога // Беларусь-Турция: пути сотрудничества: материалы второй междунар. науч.-практ. конф., Минск, 25 февр. 2011 г.
5. Современная Турция: проблемы и решения.



UO'K:93;94(53)

Farrux KAMOLIDDINOV,
O'zRFA Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti
E-mail: kamoliddinov9494@gmail.com

ChDPU dotsenti, PhD O.Jaynarov taqrizi asosida

UZBEKISTAN AND THE UNITED ARAB EMIRATES – COOPERATION FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzed the growing cooperation between the Republic of Uzbekistan and the United Arab Emirates. After the independence of Uzbekistan, cultural and religious commonality between the two countries, solidarity of the Muslim world and ties based on historical heritage spurred further development.

The United Arab Emirates, with its large financial capabilities, has expressed interest in investing in promising regions, including Uzbekistan. Economically, Uzbekistan is seen as one of the most favorable places for investment among the countries of Central Asia. The relations between the United Arab Emirates and Uzbekistan are strengthened in the areas of trade, investment, transport and communications, cultural-humanitarian, ecology and tourism, and serve to create new opportunities for cooperation between the two countries.

Key words: Uzbekistan, United Arab Emirates, Diplomatic Relations, strategic cooperation, trade, investments, energy, logistics, green space.

УЗБЕКИСТАН И ОБЪЕДИНЕННЫЕ АРАБСКИЕ ЭМИРАТЫ – СОТРУДНИЧЕСТВО НА ПУТИ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ

Аннотация

В данной статье проанализировано растущее сотрудничество между Республикой Узбекистан и Объединенными Арабскими Эмиратами. После обретения Узбекистаном независимости культурная и религиозная общность между двумя странами, единство мусульманского мира и связи, основанные на историческом наследии, дали толчок к дальнейшему развитию.

Объединенные Арабские Эмираты, обладая большими финансовыми возможностями, заинтересованы в инвестировании в перспективные регионы, в том числе в Узбекистан. В экономическом плане Узбекистан рассматривается как одно из наиболее благоприятных мест для инвестиций среди стран Центральной Азии. Взаимоотношения между Объединенными Арабскими Эмиратами и Узбекистаном укрепляются в сферах торговли, инвестиций, транспорта и коммуникаций, культурно-гуманитарной, экологической и туристической сферах, что создает новые возможности для взаимодействия двух государств.

Ключевые слова: Узбекистан, Объединенные Арабские Эмираты, дипломатические отношения, стратегическое сотрудничество, торговля, инвестиции, энергетика, логистика, зеленое пространство.

O'ZBEKISTON VA BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI – BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDA HAMKORLIK

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi o'sib borayotgan hamkorlik aloqalari tahlil qilindi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy va diniy umumiylik, musulmon dunyosining birdamligi hamda tarixiy merosga asoslangan aloqalar yanada rivojlanishga turtki bo'ldi.

Birlashgan Arab Amirliklari, o'zining katta moliyaviy imkoniyatlari bilan, istiqbolli mintaqalarga, jumladan, O'zbekistonga ham sarmoya kiritishga qiziqish bildirgan. Iqtisodiy jihatdan, O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida sarmoya kiritish uchun eng qulay joylardan biri sifatida ko'rilmogda. Birlashgan Arab Amirliklari va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro munosabatlar savdo, investitsiyalar, transport va kommunikatsiyalar, madaniy-gumanitar, ekologiya va turizm sohalarida mustahkamlanib, ikki davlatning o'zaro hamkorlikda yangi imkoniyatlarni yaratishiga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Birlashgan Arab Amirliklari, diplomatik aloqlar, strategik hamkorlik, savdo, investitsiyalar, energetika, logistika, yashil makon.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1991-yilda boshlangan bo'lib, bu davrda ikki mamlakat o'rtasida mustaqil suverenitetni tan olish jarayoni amalga oshdi. Xususan, 1991-yil 25-oktabrda Birlashgan Arab Amirliklari O'zbekistonning mustaqilligini tan olgan[5]. 1992-yil noyabr oyida O'zbekiston Dubayda o'zining konsulxonasini ochdi, bu xorijdagi birinchi diplomatik vakolatxonalardan biri bo'lib, O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qildi. Keyinchalik, 1994-yil mart oyida konsulxona bosh konsulxona darajasiga ko'tarilib, 2007-yilda Abu-Dabida O'zbekiston elchixonasi ochilishi ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga turtki bo'lgan muhim qadamlar bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda, Fors ko'rfazi mamlakatlari, xususan, BAAning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va modernizatsiya jarayonlarining ayrim muammolari, S.Inog'omov, Z.Munavvarov, S.G'ofurov

kabi sharqshunos olimlarning ilmiy izlanishlarida chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar orqali Birlashgan Arab Amirliklarining xalqaro va mintaqaviy siyosatidagi o'zgarishlar, shuningdek, O'zbekiston bilan o'rnatilgan diplomatik munosabatlar keng tahlil qilinadi. Olimlarimiz bu jarayonlarning mintaqaviy va global miqyosdagi o'rni hamda O'zbekiston bilan hamkorlikning rivojlanishiga qo'shgan hissasini o'rganishga alohida e'tibor qaratishgan. S. G'ofurov[6] o'z ilmiy tadqiqotlarida Fors ko'rfazi arab mamlakatlari va Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasining jahon siyosiy jarayonlaridagi o'rni, global iqtisodiyot va taraqqiyotning muhim omili sifatidagi rolini tahlil qilgan. Olim shuningdek, XXI asrda umumjahon xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan siyosiy jarayonlarda ushbu mamlakatlarning ishtirokini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada keltirilgan muammoni yoritishda metodologik jihatdan O'zbekistonlik olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy asralar hamda O'zbekiston va arab davlatlarining arsmiy sayitlarida e'lon qilingan materiallari

tizimli ravishda kontetn tahlil asosida o'rganildi. Bunga qo'shimcha ravishda maqolada fanlararo yondashuv usulidan ham keng foydalanildi hamda ikki mamalakot o'rtasidagi munosabatlar hozirgi istiqbolli holatlar tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan bo'lib, bu jarayonda diniy omil asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur nuqtai nazardan, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar o'zaro tenglik va hurmat tamoyillariga asoslangan holda rivojlangan. Xususan, 1994-yildan boshlab ushbu munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilgan. Shu yilning 20-22-dekabr kunlari Dubay amirligi hukumatining rasmiy delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurgan bo'lib[6], tashrif davomida savdo-iqtisodiy, turizm va havo yo'llari sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dastlabki bitimlar imzolangan.

1997-yilda O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi savdo aylanmasi hajmi 75,671 million AQSh dollariga yetgan bo'lib[1], bu ko'rsatkich o'sha davr uchun O'zbekistonning arab davlatlari bilan savdo munosabatlaridagi eng yuqori natijalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy sohada, balki ijtimoiy sohada ham izchil rivojlangan. Jumladan, 2007-yilda Toshkent shahri "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan 14-15-avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida tashkil etilgan "O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hisssasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada Birlashgan Arab Amirliklari delegatsiyasi hakamlar hay'ati tarkibida faol ishtirok etgan[3]. Ushbu tadbir ikki mamlakat o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning yuksak darajada rivojlanganligini namoyon etadi.

2000-yillarda O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning 2008-yil 17-18 mart kunlari BAAGA amalga oshirgan rasmiy tashrifi muhim ahamiyat kasb etdi[3]. Ushbu tashrif davomida tomonlar ikki davlat va xalqlar manfaatlariga xizmat qiluvchi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash masalalarini muhokama qildilar. Shuningdek, tashrif chog'ida mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro manfaatli masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Strategik hamkorlikning rivojlanishi

2016-yil O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarida chuqur islohotlar va yangicha yondashuvlar davri boshlanganidek, mamlakat tashqi siyosatida ham yangi bosqichga asos solindi. Ushbu o'zgarishlar O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, o'zaro hamkorlikni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga turtki bo'ldi. Mazkur jarayonning amaliy natijasi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklariga amalga oshirgan ikki rasmiy tashrifi - 2019-yil mart oyida va 2022-yil may oyida - muhim ahamiyat kasb etadi[7]. Shu bilan birga, ikki davlat rahbarlari ko'p tomonlama xalqaro forumlar doirasida muntazam uchrashuvlar o'tkazib, o'zaro telefon muloqotlarini davom ettirib kelmoqda. Parlamentlararo hamkorlik, tashqi siyosiy idoralar o'rtasidagi aloqalar, shuningdek, hukumatlararo komissiya yig'ilishlari muntazam ravishda tashkil etilib, ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) istiqbolli tashqi siyosatni amalga oshirib, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada keng qamrovli islohotlar tufayli nafaqat katta energiya resurslariga ega davlat sifatida, balki Yaqin Sharqda tez rivojlanayotgan zamonaviy sayyohlik, transport-logistika va ishlab chiqarish markazi sifatida ham e'tiborga sazovor. Abu-Dabi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va neftga qaramlikni kamaytirish yo'nalishida muhim yutuqlarga erishdi. 2023 yilda mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 505,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi[2]. Ushbu iqtisodiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqan hoda amirlik Markaziy Osiyo davlatlariga o'z investisiyalarini taklif qilmoqda, xususan, O'zbekistonga ham.

O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, ikki mamlakat o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalar

o'rnatilgan. Ushbu hamkorlik asosan savdo, investisiyalar, energetika, infratuzilma va turizm kabi sohalarini o'z ichiga oladi. BAA, O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biriga aylangan holda, ikki tomonlama savdo hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

O'zbekiston va BAA o'rtasidagi savdo va investisiyalar sohasidagi hamkorlik alohida e'tiborni talab etadi. Birlashgan Arab Amirliklari qisqa vaqt ichida - ellik yil davomida - sahro qo'ynida mo'jiza yaratib, dunyo iqtisodiyoti, innovatsiya, savdo, moliya va turizm sohalarida global markazlardan biriga aylandi. Ushbu tez rivojlanish tajribasi BAA ni O'zbekiston uchun muhim hamkorga aylantirgan. O'zbekiston esa bu sohalarida tajriba almashish va hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor.

BAA o'zining ilg'or texnologiyalari va samarali boshqaruv tizimlari yordamida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha jahon miqyosida yuksak natijalarga erishgan. O'zbekiston, ayniqsa, energetika sohasida ushbu tajribalarni o'zlashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishini yanada mustahkamlashni maqsad qilgan.

Shunday qilib, agar biz savdo-iqtisodiy sohaning rivojlanishini tahlil qilsak, O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilayotgan Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) investisiyalari hajmining o'sish sur'ati yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Misol sifatida, "Masdar" kompaniyasining O'zbekistonda amalga oshirayotgan loyihalari e'tiborga loyiqdir. 2021 yilda kompaniya mamlakatimizda birinchi quyosh elektr stansiyasini ishga tushirdi. Ayni paytda, "Masdar" uchta yangi quyosh fotoyelektr elektr stansiyasini qurish bo'yicha tenderlar g'olibi bo'ldi: quvvati 457 MVt bo'lgan Sherobod FEst, 220 MVt quvvatga ega Samarqand FEst va shuningdek, 220 MVt quvvatli Jizzax FEst. Hozirgi kunda "Masdar" kompaniyasining O'zbekistondagi loyihalarining umumiy portfeli 2 milliard dollardan ortiqni tashkil yetadi va qurilayotgan elektr stansiyalarining umumiy ishlab chiqarish quvvati 2,5 GVtga yetadi[4].

Shuningdek, "Mubadala" kompaniyasi bilan hamkorlikda Talimarjon issiqlik elektr stansiyasining quvvatlarini kengaytirish loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu loyiha O'zbekiston energetika sohasidagi yuqori samarali va barqaror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan.

"Boshqa yirik investisiya loyihalari orasida" "Dp World" kompaniyasi bilan hamkorlikda multimodal transport markazlari va "Navoiy" iqtisodiy zonasi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, bojxona ma'muriyati tizimini modernizatsiya qilish masalalari ham dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, logistika, raqamlashtirish va boshqa sohalarida ham katta hajmdagi investisiyalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar, o'z navbatida, O'zbekistonning iqtisodiy tuzilmasini diversifikatsiya qilish, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va xalqaro savdo aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Shunday qilib, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) ning O'zbekistonga kiritayotgan investisiyalari faqat energetika yoki transport sohalarini cheklanmay, keng qamrovli iqtisodiy hamkorlikni o'z ichiga oladi va ikki mamlakatning umumiy rivojlanishiga muhim turtki beradi.

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar nafaqat an'anaviy sohalarida, balki yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish yo'nalishlarida ham jadal rivojlanmoqda. Yashil energiya va ekologik barqarorlikka qaratilgan loyihalar ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. BAA O'zbekistonning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investisiyalar kiritib, mamlakatning ekologik barqarorligini oshirishga hissa qo'shmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning energiya sohasidagi yangi yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etishiga yordam beradi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 13-16-yanvar sanalarida BAAGA tashrifi va Abu-Dabidagi "Barqaror rivojlanish haftaligi 2025" (ADSW 2025) da ishtirok etishi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning strategik ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi.

Abu-Dabi tashrifi davomida O'zbekiston va BAA o'rtasida sun'iy intellekt, raqamlashtirish, yashil energetika va shaharsozlik kabi sohalarini qamrab olgan strategik sheriklik to'g'risidagi Deklaratsiya imzolandi. 2030-yilgacha savdo hajmini 10 barobarga oshirish va investitsiyalarni 50 milliard dollarga yetkazish asosiy maqsadlar sifatida belgilandi[7].

O'zbekiston va BAA Prezidentlari 2025–2027-yillarni iqtisodiy hamkorlikning yangi davri deb e'lon qilishga kelishib oldilar[2]. Mazkur tashrif turizm, xususiy biznes va madaniy almashinuv sohalarida hamkorlikni kengaytirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi va ikki tomonlama munosabatlarni yangi strategik bosqichga olib chiqdi.

Xulosa va takliflar. BAAning iqtisodiyoti va texnologiyalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha yutuqlari, shuningdek, yashil energiya va ekologik barqarorlikni rivojlantirishdagi tajribasi O'zbekiston uchun qimmatli o'rnak bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda "Masdar" va "Mubadala" kabi yirik kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari energetika, transport va infratuzilma sohalarida barqaror rivojlanish uchun muhim asos yaratdi. Ushbu

jarayonlar davomida O'zbekistonning energetika, qishloq xo'jaligi, raqamlashtirish va turizm kabi sohalarida ilg'or texnologiyalar va boshqaruv tajribalarini joriy etishi alohida ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil yanvar oyida Abu-Dabiga rasmiy tashrifi va "Barqaror rivojlanish haftaligi 2025" doirasidagi ishtiroki ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi yo'nalishlarini belgilab berdi. Savdo hajmini oshirish va investitsiyalarni ko'paytirish bo'yicha kelishuvlar ikki tomonlama aloqalarning yanada chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekiston va BAA o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik nafaqat ikki davlat manfaatlariga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yashil energiya, raqamlashtirish va turizm kabi istiqbolli sohalaridagi hamkorlik ikki davlat munosabatlarni yangi strategik bosqichga olib chiqmoqda va xalqaro miqyosda ham mintaqaviy o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Abdisattarov A. A. "Fors ko'rfazi arab davlatlari tashqi siyosatida "Islom omili"ning siyosiy tahlili" Toshkent. 2006
2. Абдухалимов Б. "Стратегическое партнерство для устойчивого развития"/Народное слово. Ташкент 2025 № 15 С 1-3
3. Muravvanov Z.I. "Uzbekistan and the Gulf Cooperation Council" in From the Gulf to Central Asia ed. Anoushiravan Ehteshami (Exeter: University of Exeter Press, 1994).
4. Qodirov A. "O'zbekiston va BAA munosabatlari rivojlanmoqda"/O'zbekiston Milliy Axborot agentligi Toshkent. 2022 https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-va-baa-munosabatlari-rivojlanmoqda_422448
5. Tolipov M. Sh. "Fors ko'rfazi neft eksport qiluvchi mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlari" Toshkent. 2001
6. G'afurov S. M. "Fors ko'rfazi arab davlatlari va O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy va umumjahon havfsizligini ta'minlashdagi mavqei" Toshkent. 2002
7. <https://president.uz/oz/lists/view/7818>



UDK : 950(575.1)

Gulhoyo MAHMUDOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: gulhayomahmudova28051994@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, DSc O.Rashidov taqrizi asosida

MANG'IT SHAHZODALARINING TAXTGA VORISIYLIK HUQUQI

Annotatsiya

Ushbu maqolada amir Muzaffarxon valiahdlarining taxtga vorisiylik huquqi, shahzodalarining siyosiy faoliyati, amirlik hayotida tutgan o'rni, rus imperatori tomonidan taxtga o'tirishi tasdiqlangan Abdulahadxon taxtga chiqishidagi vaziyatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amir Muzaffar, Abdumalik To'ra, taxt vorisi, Said Nuriddin, Said Abdulmo'min, Said Abdulfattoh Mirzo, Said Abdulahad, Said Mir Najmiddin, Said Mir Abdusamat, Said Mir Siddiq, Said Mir Akromxon, Said Mir Mansur, Said Mir Azimxon, Said Mir Nosirxon, Peterburg.

THE RIGHT OF SUCCESSION OF MANGIT PRINCES

Annotation

This article discusses the succession rights of Emir Muzaffar Khan's heirs to the throne, the political activities of the princes, their role in the life of the emirate, and the circumstances surrounding Abdulahad Khan's ascension to the throne, whose ascension to the throne was confirmed by the Russian emperor.

Key words: Emir Muzaffar, Abdumalik Tura, heir to the throne, Said Nuriddin, Said Abdulmo'min, Said Abdulfattoh Mirzo, Said Abdulahad, Said Mir Najmiddin, Said Mir Abdusamat, Said Mir Siddiq, Said Mir Akromxon, Said Mir Mansur, Said Mir Azimxon, Said Mir Nosirxon, St. Petersburg.

ПРАВО НА ПРЕСТОЛОНАСЛЕДИЕ МАНГЫТСКИХ ПРИНЦЕВ

Аннотация

В этой статье рассматриваются право наследования престола наследников эмира Музаффархана, политическая деятельность принцев, их роль в жизни эмирата и обстоятельства восшествия на престол Абдулахадхана, подтвержденные российским императором.

Ключевые слова: Амир Музаффар, Абдумалик Тура, наследник престола, Саид Нуриддин, Саид Абдумомин, Саид Абдулфаттах Мирзо, Саид Абдулахад, Саид Мир Наджмиддин, Саид Мир Абдусамат, Саид Мир Сиддик, Саид Мир Акрамхан, Саид Мир Мансур, Саид Мир Азимхан, Саид Мир Насирхан, Петербург.

Kirish. O'zbek davlatchiligi tarixida mang'itlar sulolasining hukmronlik davri 164 yil davom etgan. 1756–1920-yillarda mang'it hukmdorlarining sakkiz nafari mamlakatni merosiy tarzda boshqargan. Taxtga vorislik qilish tartibi amirlik qonun-qoidalarida aniq belgilanmagan. Buxoroning har bir hukmdori o'z taxtini “eng munosib voris”ga vasiyat qilishi mumkin edi. Lekin odatda amirlar hokimiyatni o'zlarining to'ng'ich o'g'illariga topshirganlar, ular hatto tirikligida ham merosxo'r unvoniga teng katta to'ra unvonini olganlar. 1868-yildagi Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasida bo'lib o'tgan urushlar va imperiyaning istilochilik yurishlaridan so'ng valiahd tayinlash tizimida ham o'zgarishlar yuz berdi. Amir tomonidan Buxoro taxtining vorisligiga munosib ko'rilgan nomzod shahzoda Peterburgga yuborilishi, yangi valiahdning rus imperatori qabulida bo'lishi hamda imperatorga ma'qul kelgan taqdirda uning valiahdlik maqomi tan olinishi belgilangan. Vorisiylikning tasdiqlanishi siyosiy odatga aylangan. Dastlab amir Muzaffar davridan boshlangan ushbu jarayon keyingi hukmdorlar davrida ham davom ettirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligini boshqargan mang'itlar sulolasi vakillari, jumladan Abdulahadxonning siyosiy faoliyati hanuzgacha to'liq o'rganilmagan. U haqida xorijlik mutaxassislar, sovet davri tarixshunoslari tomonidan ham, mustaqillik davrida ham biror bir tadqiqot yoki ilmiy asar yaratilmagan. Shunga qaramasdan saroy tarixchisi Mirza Salimbekning Tarixi Salimiy asari, P.P.Shubinskiyning “Buxoro ocherklari”, A.G.Nedvetskiyning “Buxoro hukmdorlari” risolalari, S.I.Inoyatov, Q.K.Rajabov, O.S.Hayitova, H.H.To'rayev, Sh.H.Vohidov, R.E.Xoliqova, D.M.Jamolovalar ilmiy ishlarida Abdulahadxonning taxtga chiqishi davridagi siyosiy vaziyat haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiy, tizimlashtirish, qiyosiy hamda muammoviy xronologik kabi ilmiy tadqiqot usullari hamda xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Amir Muzaffarning o'n uch o'gli bo'lgan (ba'zi manbalarda 14 ta deb keltirilgan). O'g'illarining ba'zilar Muzaffar hayotlik davridayoq vafot etgan. Amir Muzaffar 1860–1885-yillarda davlatni boshqargan. Dastlab amir Muzaffar tong'ich o'gli Abdumalik to'rani taxt vorisi etib tayinlaydi[1].

Abdumalik to'ra (1848–1909) – Muzaffarxonning to'ng'ich o'g'li. Onasi Xosa-Zumrad eroniyarlardan bo'lib, amir Muzaffarxonning ikkinchi xotini edi. Amir Muzaffarning birinchi xotini farzand ko'rmagan. Bir muddat Karmana bekligini, 1860–1868-yillarda G'uzor bekligini boshqargan [2].

1868-yilda Samarqand yaqinidagi Zirabuloq janggida amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchragach, Samarqandning qo'ldan ketishi shahzodaga kuchli ta'sir qilgan. Shundan keyin u Samarqand mudofaasini tashkil qila olmagan otasiga nisbatan noroziligini namoyish etadi. Said Abdumalik to'ra boshchiligida Hisorda amirga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Unga Shahrisabz begi Bobobek va Kitob begi Jo'rabek qo'shilgan. Ammo qo'zg'olon muvaffaqiyatsizlikka uchragan. O'sha yilning kuzida Buxoroda otasi taxtini egallashga urinayotgan Said Abdumalik boshchiligida yangi qo'zg'olon ko'tariladi. Otasi ruslarning harbiy kuchlaridan foydalanib, unga qarshi kurasha boshlagach, u otasiga qarshi bo'lib, uni taxtdan tushirish uchun xalq harakatiga boshchilik qiladi. Amir Muzaffarxon ko'mak so'rab general leytenant K.Kaufmanga murojaat yo'llagan. Shundan keyin Kaufman general A. Abramov qo'mondonligida amirga yordam berish uchun qo'shin yuboradi [3].

Qo'shinlar 1868-yil 27-oktabrda Qarshi, 1870-yilda Kitob va Shahrisabz beklklarini egallab, amir Muzaffarga qaytaradi. Qo'zg'olon ishtirokchilari mag'lubiyatga uchraydilar.

Abdumalik to'ra dastlab Qarshiga, 1868-yil dekabrda Xivaga Muhammad Rahimxon II huzuriga ketadi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Abdumalik to'raning kelayotgani xabarini eshitib, 1868-yilning 28-dekabrda o'z odamlari-Muhammad Rizo otaliq (Ogahiy) va Muhammad Niyoz devonbegini uni kutib olish uchun jo'natadi[3]. Xon uni bir necha kun mehmon qiladi, unga mulk ajratib, 1500 tillo maosh belgilaydi. Lekin Abdumalikning harbiy yordam to'g'risidagi iltimosini rad etadi. Uch oy turgach, Abdumalik turkmanlar tomoniga, keyin qaynotasi huzuriga Afg'onistonga ketadi [4]. U afg'on shohi SHeralixonning qiziga uylangan edi. Abdumalik 80-yillar o'rtalarida, otasi vafotidan keyin Buxoroda hokimiyatni qo'lga kiritishga urinib ko'radi. Bu masala yuzasidan yordam so'rab, Angliya hukumatiga murojaat qiladi. 1886-yilning may oyida Kalkuttada bir qancha turkistonlik muxolif kuchlar vakillari sifatida ingliz qirolichasining maxsus elchisi bilan muzokaralar olib boradi. Shuningdek, o'sha paytda afg'on amiri Abdurahmon ham Abdumalik to'raga xayrixohligini bildiradi. Abdumalik to'ra Abdulahadxon hokimiyatga kelguniga qadar Buxoro taxti uchun jiddiy da'vogar hisoblangan. Katta to'ra xorijdan ham amaliy yordam ololmaydi. Shundan keyin vatandan chetda yashab 1909-yil 61 yoshida Peshovarda vafot etadi [5].

Said Nuriddin (1851–1878) – amir Muzaffarning ikkinchi o'g'lidir. 1867–1868-yillarda Qarshi bекligini, 1868–1878-yillarda Chorjo'y bекligini boshqargan. Otasi Muzaffarning topshirig'i bilan Qarshida qo'shin to'plab G'uzordagi isyonkor akasi Said Abdumalikka qarshi jangda qatnashadi. Amir Muzaffar uni aqliligi va iqtidori uchun taxt vorisligiga tayinlamoqchi bo'lgan. Lekin, 1878-yilda sil kasalligiga chalinib, vafot etadi [6].

Said Abdulmo'min (1852–1894 yoki 1898) – amir Muzaffarning uchinchi o'g'li. Muzaffarxon taxtga o'tirgandan so'ng 1860–1868-yillarda Chorjo'y bекligini, 1869–1871-yillarda Qarshi bекligini, 1871–1886-yillarda Hisor bекligini boshqargan. Abdulahadxonga qarshi fitna uyushtirganlikda ayblangan. 1886-yil iyul oyida yangi amirning maxsus farmoni bilan Boysunga ko'chirilgan va o'sha yerda oilasi bilan nazorat ostida yashaydi. Abdulmo'min nomigagina Boysun bекligini boshqargan. Aslida asosiy hokimiyatni amir tomonidan tayinlangan boshqa amaldorlar boshqargan. 1891-yilda amirlik qo'shbegisi Ostonaqulbiy Buxorodagi rus siyosiy agenti P.Lessarga dastlab Abdulmo'min Afg'onistonga qochib ketish istagi borligini, keyingi safar esa aqldan ozganini ma'lum qiladi [7].

Biroq, Lessarning so'zlariga ko'ra, bu mish-mishlar Abdulahadxon akasi bilan o'rtasidagi kelishmovchiliklar tufayli sodir bo'lgan. Amir akasining rus mulkiga qochib ketishidan qo'rqgan. Nihoyat, 1891-yilda Abdulmo'min To'ra Buxoroga chaqirilib, Arkda uy qamog'iga olinadi. Vafotiga qadar (1894) shu yerda yashagan[8]. Abdulmo'minning bolalari 1920-yilgacha Arkda yashashni davom ettirdilar. O'g'li Ne'matullaga tegishli shaxsiy muhrlar hozirgi paytda Arkdagi Buxoro o'lkashunoslik muzeyi kolleksiyalarida saqlanmoqda [7].

Said Abdulfattoh Mirzo (1856–1869) – 1869-yili Sankt-Peterburgga faxriy elchi sifatida yuborilgan [5].

Elchilarga Abdulqosimbiy va uning mirzasi hamda tarjimoni Ahmad Donish boshchilik qilib borishgan. Ular Rossiya imperatoriga katta sovg'alar olib borishgan[9]. Abdulfattoh 1869-yilning noyabr boshidan 10-dekabr qadar Peterburgda bo'lib, imperator Aleksandr II qabulida bo'lgan. U Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi elchilik aloqalarida amirning ishonchli vakili hisoblangan. Muzaffarxon mana shu o'g'lini imperatordan taxt vorisi deb tasdiqlanishini taraddudida yurganida, Abdulfattoh ham to'satdan vafot etadi.

Said Abdulahad (1857-1910) – Muzaffarxonning beshinchi o'g'li. Onasi Shamshodoyim asli kelib chiqishi eroniyarlardan bo'lib, Amir Muzaffarning suyuqli xotini hisoblangan. Shamshodoyim, aql-farosatli ayol bo'lib, Abdulahad yoshligidan onasining tarbiyasini olgan. U Karmanada yashab, shu yerda 1879-yilda vafot etgan[10]. Shamshodoyimning Abdulahaddan tashqari Soliha ismli qizi bo'lib, u amir Muzaffarning jiyani Omonullaxonga uzatilgan [6].

Abdulahadxon 1875–1885-yillarda Karmana bекligini boshqargan. 1882-yilda Abdulahad otasining iltimosiga binoan Moskvaga jo'natiladi va o'sha yerda rasman Buxoro taxti vorisi

sifatida tan olinadi. Bu haqda imperator Aleksandr III amir Muzaffarga yozma ravishda xabar jo'natgan. Bo'lajak amir Rossiyaga safarida otasining vaziri Ostonaqulbiy hamrohlik qilgan [11].

Said Mir Najmiddin – Chiroqchi bекligini boshqargan. Najmiddin To'ra otasi tomonidan Sankt-Peterburgga faxriy elchi sifatida jo'natiladi. Yoshligida kasallanib vafot etgan [12].

Said Mir Abdusamat (1860-yillarning boshi ?) – 1880-yilda Chiroqchiga bek etib tayinlangan. Nopok xulq-atvori va isrofgarchiliklari uchun otasi mahalliy qozi hukmiga havola qilgan. Rus zobiti V. Krestovskiy 1882-yilda shahzoda oldiga borganida, uni “20 yoshlardagi, hali ham soqoli va mo'ylovi yo'q, ukasi Said Mir Mansurga juda o'xshash ozg'in yigit” deb ta'riflagan. Krestovskiyning ma'lumot berishicha, amir uni yoqirtmasdi, hatto Shahrisabzga tashrifi chog'ida ham Chiroqchida to'xtab o'tmagan”. Amir Abdulahad ham ukasini yoqirtmagan. 1886-yil 4-sentabrda o'tar kechasi Mir Abdusamat hibsga olinib, Buxoroga jo'natiladi. Keyinchalik poytaxtda Xo'ja G'afur mahallasida “uy qamog'i”da saqlangan [2].

Said Mir Siddiq (1864–1932) – Muzaffarxon davrida dastlab 1871-yilda Qarshi begi etib tayinlangan. Ukasi Said Nuriddin vafotidan so'ng 1878-yildan Chorjo'y bекligini boshqaradi [13].

1885-yilda otasi betobligida Mir Siddiq otasining ruxsatisiz, uni ko'rish bahonasida Buxoroga keladi [7]. Biroq Muzaffarxon allaqachon vafot etgan, saroy a'yonlari uning o'limini yashirib, Karmanadan yo'lga chiqqan, taxt vorisi bo'lgan akasi Abdulahadxonni qo'llab-quvvatlashadi. Otasining o'limidan bexabar Siddiqxon to'ra hibsga olinib, lavozimidan ozod etiladi va Buxoroda uy qamog'iga olinadi [15].

Ana shu davrlarda o'zini adabiyatga bag'ishlaydi. “Hashmat, “Hishmat, “Vohid” taxalluslari bilan ijod qiladi. Adib, shoir, antologiyalar va boshqa tarixiy asarlar tuzuvchisi, Buxorodagi boy shaxsiy kutubxona sohibi sifatida tarixda o'z izini qoldirgan. Siddiqxon To'raning kutubxonasida 1000 jildan ziyod qo'lyozma hamda toshbosma kitoblari borligi taxmin qilinadi. Ulardan 31 tasi tarixga oid asarlar, 9 devon, 6 bayoz, 4 tafsir, 6 tazkira va boshqalardir.

Mir Siddiqxon uy qamog'idan ozod etilgach, Buxoroning Ravg'angaron mahallasida yashab, 1920-yilda Afg'onistonga hijrat qiladi [7]. U umrining so'nggi yillarini Madina shahrida o'tkazadi va shu yerda 1932-yilda vafot etdi. Bade-ul-Gurkad qabristoniga dafn etilgan [2].

O'zbekiston Sharqshunoslik instituti arxivida Hashmat asarlarining 30 ga yaqin qo'lyozma nusxalari saqlanmoqda [16].

Said Mir Akromxon – Muzaffarning o'g'illari orasida Abdulahad taxtga o'tirganidan keyin ham o'z lavozimini yo'qotmagan yagona valiahd shahzoda. Amir Muzaffar davrida G'uzorga bek etib tayinlangan. Akromxon ushbu lavozimda kamida 1908-yilgacha qolgan. Amir Abdulahadxon bu ukasiga xayrixoh bo'lgan. Abdulahadxon bir qizini jiyani, Mir Akromxon o'g'liga turmushga bergan. Akromxon To'ra XX asrning 30-yillarida Kobulda vafot etgan [17].

Said Mir Mansur (1863–1918-yil mart) – amir Muzaffarning to'qqizinchi o'g'li. 1870-yillarning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Peterburg shahrida yashagan va Pajlar korpusida o'qigan. U bilan birga Rossiya imperiyasining poytaxtida ustozi Mirzo Abdulvosiy to'qsoba ham bo'lgan. O'sha yillarda peterburgliklar Mixaylovskiy saroyi bog'ida o'z tarbiyachisi bilan yurgan yosh buxorolik “knyaz” bilan tez-tez uchrashib turishardi. 1876-yil 15-dekabrda chor hukumatining farmoniga ko'ra, Mansur hamda otalig'iga moddiy ta'minoti uchun har yili 500 rubl ajratilgan. Mablagning 310 rubli ijara to'lovi va kunlik xarajatlar uchun Abdulvosiy to'qsobaning shaxsan o'ziga berilgan. Korpus o'qituvchilarining ma'lumotiga ko'ra, Mir Mansur “fanlarni yaxshi o'zlashtirgan”, “a'loga” o'qigan va yaxshi xulq-atvoriga ega bo'lgan. O'qish davrida nemis tilini o'rganishdan ozod qilingan, bu tilni o'zlashtirishga qiyналgan. Bo'sh vaqtlarida boshqa chet tillarini, shuningdek, musulmon diniy adabiyoti va ona tilini o'rganishga bel bog'laydi. Mir Mansur „Pajlar korpusi“ni 1886-yil 13-aprelda tamomlaydi. Shundan keyin harbiy unvon olib, Moskvadagi 3-Sumi Dragun polkiga tayinlanadi. Mir Mansurga imperiyadagi ofitserlik maoshidan tashqari akasi amir Abdulahadxon tomonidan yiliga

2400 rubl maosh ham tayinlangan. 1892-yilda unga leytenant harbiy unvoni beriladi. 1892-yilda Abdulahadxonning Moskvaga uyushtirilgan tashrifi natijasida Sumi polki ofitserlari bilan birga akasi sharafiga ziyofat uyushtiradi [18].

Mir Mansurga 1895-yilda shtab kapitani unvoni beriladi. 1899-yilda xuddi shu unvon bilan polkdan nafaqaga chiqdi. Shundan so'ng Mir Mansur bir necha yil davomida yana Rossiyada yashaydi. Knyaginya Sofiya Ivanovna Sereteli bilan oila quradi. Ularning to'ng'ich o'g'li Said Mir Xudoyorxon (Nikolay Mixaylovich Sereteli, taxminan 1890-yillarda tug'ilgan) 1920-yillarda Moskvadagi Tairov teatrining yetakchi aktyorlaridan biri bo'lib yetishgan. Mir Mansurning ikkinchi o'g'li harbiy bo'lgan. U rus armiyasida xizmat qilgan va bir nechta rus ordenlari bilan taqdirlangan. Ikkinchi o'g'li 1918-yil mart oyida bolsheviklarning Karmanaga hujumi paytida vafot etadi. Bundan tashqari, Mir Mansur va Sofiya Ivanovnaning yana bir qizi Lyubov, kichik o'g'illari Georgiy va Valeriy, Tamara ismli kenja qizi ham bo'lgan [2].

Mir Mansur Buxoroga qaytgandan keyin jiyani Olimxon uni Karmanaga bek etib tayinlaydi. 1918-yil mart oyida Kolesovning Karmanaga hujumi natijasida beklikning 5 ming kishilik qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. Mir Mansur yaralanadi, xotini, 3 nafar farzandi va ularga biriktirilgan o'qituvchi ham asirga olinadi. Amir Olimxon sa'y-harakati bilan amakisi Kattaqo'rg'onga dafn etiladi. 1918-yil sentabr oyida Mir Mansurning bevasi S. I. Sereteliga Buxoro davlatidan 200 ming rubl (uch nafar yosh bolani voyaga yetkazish uchun) hamda kundalik xarajatlar uchun yana 100 ming rubl pul beriladi [7].

Amir Muzaffarxonning oxirgi ikki o'g'li haqida kam ma'lumot mavjud. Ulardan birinchisi Said Mir Azimxondir. Buxoro Arkida yashagan. Yana biri Said Mir Nosirxon taxminan 1869-yilda tug'ilgan. Nosirxonning bir o'g'li Arabxon Amir

Olimxonning qiziga uylangan. Nosirxon 1920-yilgi bolsheviklarning Buxoroga hujumigacha Arkda yashagan. Buxoro xalq jumhuriyati yillarida Buxoro tarix jamiyati a'zosi bo'lgan. Nosiriddin to'ra "Tuhfat-uz-zoirin" tarixiy asarining muallifi. Kitobni 1906-yilda yakunlaydi [19]. "Asar us-salotin" kitobi shayboniylar, ashtarxoniylar va mang'itlar tarixiga bag'ishlangan. 1921-yilda "Tahqiqoti Arki Buxoro" nomli asar yozgan [17]. Nosirxon 1922-yilda Afg'onistonga jo'nab ketadi.

Xulosa va takliflar. Rossiya impereatori Aleksandr III 1883-yildayoq Abdulahadxonni otasidan so'ng Buxoroning bo'lajak amiri sifatida taxtga kelishiga ruxsat bergan edi. Amir Muzaffar 1885-yilda bezgak kasalidan vafot etib, Buxorodagi mang'it sulolasi vakillari dafn etilgan Eshoni imlo qabristoniga qo'yiladi [20]. Otasi o'limini eshitgan Abdulahad mingtacha chavandoz bilan Karmanadan Buxoroga yo'lga chiqadi. YO'lda Rossiya hukumatining vakili general-leytenant M.X. Annenkov bilan uchrashdi. Annenkov unga taxtga chiqish borasida siyosiy jihatdan qarama-qarshiliklar yuz beradigan bo'lsa, u Rossiya hukumati yordamiga tayanishi mumkinligini bildirgan [21].

Muzaffarxonning 1885-yil oktabr oyida vafotidan so'ng podsho hukumati o'zaro nizolarning oldini olish uchun yana bir bor shoshilinch choralar ko'radi. Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi general N. Grodekov Said Abdulahadga telegramma yuborib, taxt vorisi sifatida podsho hukumati uni doimo qo'llab-quvvatlashini bildiradi. Shu bilan birga, u Samarqandda turgan ikkinchi brigada komandiriga telegramma yuborib, unda 6-, 8-, 9- va 19-batalyonlar va Ural polkini Buxoroga jo'natishga (agar sharoit majbur qilsa) to'liq jangovar shay holatda saqlashni buyurgan [22].

Abdulahadni 1885-yil 4-noyabrda Buxoro arkida oq kigizga o'tirgizib, taxtga o'tqazish marosimi bo'lib o'tadi.

ADABIYOTLAR

1. Жамолова Д. Бухоро амири Абдулахадхон ва унинг сиёсий фаолияти // O'zbekiston tarixi — 2018. № 1. — 33-6.
2. Вохидов Ш. Жизнь, посвященная вечности. О царевиче Мухаммад Сиддик Хашмате, сыне эмира Музаффар (1864–1932): жизнь и научное наследие // Молодой ученый. — 2015. — №15. — С. 494-501.
3. Саййид Мансур Олими. Бухоро – Туркистон бешиги. Форс тилидан Х.Тўраев таржимаси. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2004. – 57-6.
4. Епифанова Л. М. Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения к России. – Т., 1965. – С. 40.
5. Бартольд, В. В. История культурной жизни Туркестана. Сочинения, т.II.— Москва, 1963. – С. 393-410
6. Шубинский П. П. Очерки Бухары. Исторический вестник. — 1892. № 7. — Стр. 118-142.
7. Недвецкий А. Г. Правители Бухары. Статья дополнена сайтом «Библиотека Хуршида Даврона». <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tarix/a-g-nedveckij-praviteli-buxary.html>
8. Холикова Р. Россия ва Бухоро: тарих чоррахасида. Тошкент “O'qituvchi”, 2005. 188-6.
9. Дониш Ахмад. Наводир ул-вакое. – Душанбе, Дониш 2017. – 261-б.
10. Иноят С. ва б. Amir Абдулахадхон даврида Кармана. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 15-б.
11. Ражабов Қ. Amir Абдулахадхон ёхуд “ожиш” ҳукмдор // Бухоро мавжлари. 2007. № 2. – 36-б.
12. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского Н.К. Норкулова. – Ташкент: Akademiya, 2009. – С.45
13. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) – Тошкент: Muharrir, 2020. – 39-б.
14. Хайтова О, Қурбонов Х. Кармана тарихи. – Тошкент: “Mashhur-press” 2018. – 83-б.
15. Айни С. Воспоминания. – Москва: Молодая гвардия. 1968. – С.778
16. Холикова Р. Из истории библиотек Бухарского Эмирата конца XIX – Начала XX вв. (на примере библиотек Мухаммаджана Садри Зия и Мир Сиддик Хашмат) // “Ўтмишга назар” журналы, Том 4, № 9 (2021).
17. Ражабов Қ. Бухоро манғит амирлари. – Тошкент: Фан 2025. – 204-б.
18. Amir Абдулахад. Петербург сафари кундалиги (1892–1893). Форс тилидан С.Фулумов таржимаси. – Тошкент: Фан, 2024. – 37-, 42-бетлар.
19. Захидова С. Рукопись “Тухфат-уз-заирин” Насираддина ибн амир Музаффара как источник по изучению городской культуры Бухары // Общественные науки в Узбекистане. – 2001, № 3. – С.57.
20. O'zR MDA 3-fond, 2-ro'yxat, 113-yig'ma jild, 122-varaq.
21. Nurettin Hatinoğlu. Türkistanda son türk devleti Buhara emirliği ve Alim Han. – İstanbul: Ötüken, 2016. – S. 97
22. Тўхтаматов Т. Русско-Бухарские отношения в конце XIX - начале XX в. Победа Бухарской Народной революции. – Ташкент, 1966. – С. 50.



UDK: 316.42:004(575.1)

Fotimabonu MURODOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: fotimabonumurodova@gmail.com

Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi, PhD M.Pardayev taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA IJTIMOY XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni, uning natijalari va istiqbollari tahlil qilinadi. Xususan, davlat tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan elektron xizmatlarning hozirgi holati, ularning sifati hamda qulayligi ko'rib chiqiladi. Maqolada "my.gov.uz" portali, "Dmed" tibbiy raqamlashtirish tizimi va "emaktab.uz" ta'lim platformasi kabi elektron xizmatlarning samaradorligi, aholining ularga bo'lgan munosabati va foydalanish darajasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida uchrayotgan asosiy muammolar, jumladan, internet infratuzilmasining rivojlanishi, raqamli savodxonlik, kiberxavfsizlik va davlat xizmatlarining integratsiyalanish darajasi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda respublikaning ochiq manbalaridan olingan ma'lumotlar asosida tahliliy yondashuv qo'llanilgan bo'lib, raqamli xizmatlarni yanada takomillashtirish bo'yicha muhim taklif va yechimlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, elektron hukumat, "Raqamli-O'zbekiston-2030", raqamli iqtisodiyot., "my.gov.uz", "emaktab.uz", "Dmed"

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРЕ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс внедрения цифровых технологий в сферу предоставления социальных услуг в Республике Узбекистан, его результаты и перспективы. В частности, анализируется текущее состояние электронных услуг, предоставляемых государством населению, их качество и удобство. Рассматриваются такие цифровые платформы, как «my.gov.uz», система цифровизации здравоохранения «Dmed» и образовательная платформа «emaktab.uz», а также их эффективность, уровень вовлеченности граждан и частота использования. Кроме того, особое внимание уделяется основным проблемам цифровизации, включая развитие интернет-инфраструктуры, цифровую грамотность, кибербезопасность и степень интеграции государственных услуг. В исследовании применяется аналитический подход на основе данных, полученных из открытых источников Республики Узбекистан, а также предлагаются ключевые рекомендации и решения для дальнейшего совершенствования цифровых услуг.

Ключевые слова: Цифровые технологии, электронное правительство, «Цифровой Узбекистан-2030», цифровая экономика., «my.gov.uz», «emaktab.uz», «Dmed»

ANALYSIS OF THE STATE OF DIGITAL TECHNOLOGY USAGE IN THE FIELD OF SOCIAL SERVICES

Annotation

This article examines the process of implementing digital technologies in the provision of social services in the Republic of Uzbekistan, its results, and future prospects. In particular, it analyzes the current state, quality, and accessibility of electronic services provided by the government to the population. The study explores the effectiveness, public engagement, and usage frequency of key digital platforms such as "my.gov.uz," the "Dmed" healthcare digitalization system, and the "emaktab.uz" education platform. Additionally, it highlights major challenges in digital transformation, including internet infrastructure development, digital literacy, cybersecurity, and the integration of government services. The research employs an analytical approach based on data from open sources in Uzbekistan and provides key recommendations and solutions for further improvement of digital services.

Key words: Digital technologies, e-government, "Digital Uzbekistan-2030", digital economy., "my.gov.uz", "emaktab.uz", "Dmed".

Kirish. O'zbekistonda raqamli texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot so'nggi o'n yil ichida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Ayniqsa, 2016-yilda "Raqamli O'zbekiston" davlat dasturi ishga tushirilganidan keyin mamlakatda elektron hukumat va raqamli xizmatlar tizimi jadal taraqqiy etdi deyish mumkin. Jumladan, ushbu dastur doirasida raqamli infratuzilmani yaratish, fuqarolar uchun davlat xizmatlarini onlayn tarzda taqdim etish, elektron tijoratni rivojlantirish va raqamli ma'lumotlar bazasini tashkil etish kabi qator islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etish va elektron hukumat tizimlarini yaratish mamlakatning global raqamli iqtisodiyotga integratsiyasida muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda davlat, biznes va fuqarolar o'rtasidagi integratsiya muhimdir. O'zbekiston Respublikasi hukumatining "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi doirasida amalga oshirilgan islohotlar ham aynan elektron hukumat tizimini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, aholining elektron hukumat tizimlariga bo'lgan munosabati, raqamli xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari va

ularga nisbatan ishonch darajasi tizimning qanchalik samarali ishlashiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqola O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron hukumat tizimining rivojlanishi va aholining ushbu tizimlarga bo'lgan munosabati haqida tahlilni taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada elektron davlat xizmatlari portali, Davlat statistika boshqarmasi hamda boshqa ko'plab davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar nazariy-tahliliy, tahliliy-statistik metodlar asosida tadqiq qilingan.

Raqamli texnologiyalardagi o'zgarishlar. "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmonida ham "davlat — fuqaro" va "davlat — tadbirkor" tamoyili asosida xizmat va servislarni raqamlashtirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, rivojlantirish va ustuvor yo'nalishlarga aylantirish masalasi asosiy vazifa sifatida belgilangan [1]. Bu o'z navbatida, davlatning har bir yo'nalishda qog'ozbozlikni oldini olish, har bir faoliyatda

shafoflikni ta'minlash, aholiga qulay va interaktiv xizmatlarni tashkillashtirish, aholining raqamli texnologiyalarga nisbatan savodxonlik darajasini yuksaltirish borasida olib borayotgan say-harakatlarda ham ko'zga tashlanadi. Misol uchun, bugungi kunda "my.gov.uz" portali orqali fuqarolar davlat xizmatlariga onlayn tarzda kirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishlaridagi mavjud muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etishi bilan birgalikda davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni soddalashtirishga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish, shuningdek, aqlli shaharlar boshqaruvi, sog'liqni saqlash va ta'lim uchun asosiy xizmatlar samaradorligi va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirishning kalitidir hamda demokratiya va mahalliy ishtirokni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin [2].

Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini raqamlashtirish uchun ishlab chiqilgan yagona tibbiyot tizimi – Dmed portalini keltirish mumkin. U bemorlar va tibbiyot xodimlari uchun tibbiy xizmat sifatini optimallashtirish va yaxshilash uchun kompleks yechimlarni taklif etadi [3]. Bu esa o'z navbatida, aholining turli navbatda turib o'z vaqtini zoya ketkazmasligiga, navbat kutishlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan konfliktlarni oldini olishga, topshirgan turli tahlillarini onlayn ko'rishga hamda shifokorlar bemorlar bilan vaqtini boshqarishga yordam beradi.

Yana bir misol sifatida ta'lim tizimini keltirish mumkin. Ma'lumki, raqamli texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga kirib borishi sohadagi xodimlardan ta'limning yangi sifatini talab qiladi [4]. Aynan shu maqsadda ta'limning o'rta bo'g'ida tashkil qilingan "emaktab.uz" portali, o'quvchilarning ota-onalariga o'z farzandlarining davomatini hamda bilim ko'rsatkichlarini muntazam ko'rib, nazorat qilib borish imkoniyatini beradi [5]. "Emaktab.uz" nafaqat elektron kundalikni va elektron jurnalni, balki o'qituvchilar uchun "kundalik smart" tizimini ham o'z ichiga oladi. Bunda o'qituvchi bolalarni ta'limga jalb qilish uchun raqamli ta'lim resurslarining ko'pgina imkoniyatlardan foydalanishi, jumladan, ma'lumotlarni o'yin yoki multfilm shaklidagi audio-vizual ko'rinishda ulashishi mumkin.

Oliy ta'lim tizimida esa talabalar uchun "Hemis" elektron portali yaratilgan bo'lib, bu har bir talaba va universitetni o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlaydi. Talaba "Hemis" dasturi orqali e'lon va yangiliklar bilan tanishishdan tashqari o'quv faoliyati, qayta o'qitish, hujjatlar ro'yxati kabi xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda aholining davlat elektron xizmatlaridan foydalanish darajasi qandayligi haqidagi savol tug'iladi.

O'zbekiston BMTning elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo'yicha reytingida 6 pog'ona yuqorilab, 193 davlat orasida 63-o'rinni egalladi. Uning elektron hukumatning rivojlanish indeksi 0,79 ni, past va o'rta daromadli mamlakatlar orasidagi ko'rsatkichi esa 0,76 ni tashkil etdi [6]. Qayd etish kerakki, elektron hukumatning rivojlanish darajasi sharhi BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti tomonidan ikki yilda bir marta e'lon qilinadi. Bu BMTga a'zo barcha davlatlar elektron hukumatlarining rivojlanish darajasini baholaydigan yagona global hisobotdir.

"My.gov.uz" bergan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu portalda ishga tushirilgan xizmatlari soni esa 721 tani tashkil qiladi. Bugungi kunda aholining elektron xizmat ko'rsatish bo'yicha yagona portaldan tushgan arizalar soni 2,4 mln, davlat xizmatlari markazlaridan 0,8mln, pochta kabnetidan tushgan arizalar 20038, consul.gov.uz sayti orqali tushgan arizalar 802, barcha arizalar esa 5,1 mln tashkil qiladi [7].

Foydalanuvchilarning gender statistikasi esa: 53,42% erkaklarni, 46,58% esa ayollarni tashkil qilmoqda. Agar aholining umumiy gender statistikasiga nisbatan oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkichni ijobiy deb baholash va raqamlashtirish jarayonida xotin-qizlarning ham faoligini ko'rish mumkin.

Arizalarning tegishligi esa 0,58% holatda yuridik shaxslar bo'lsa, 99,42% holatda esa jismoniy shaxslar ekanligini ko'rsatmoqda. Bunda jismoniy shaxslar tomonidan yuborilgan arizalar aksariyati ularning ijtimoiy turmush hayotiga oid masalalarni qamrovchi so'rovlar ekanligi oydinlashdi.

Arizalarning yoshga doir kesimini kuzatadigan bo'lsak:

18 yoshgacha bo'lganlar 1,83%,
18-24 yosh oralig'i 17,41%,
25-34 yosh oralig'i 30,98%,
35-44 yosh oralig'i 24,90%,
45-54 yosh oralig'i 13,39%,
55 yoshdan katta aholi esa 11,48% ni tashkil qiladi.

Davlat statistika qo'mitasiga ko'ra, 2024 yilda O'zbekiston Respublikasi aholishining yosh bo'yicha tarkibi quyidagicha bo'lgan. Yosh bo'yicha eng katta ulushni 13,2 million kishi bilan 31-59 yoshdagi aholi tashkil etishda davom etmoqda. 14-30 yoshdagilar — 9,6 million, 5-13 yoshli bolalar — 6,1 million, 4 yoshgacha bo'lgan bolalar — 4,3 million va 60 yosh va undan katta aholi — 3,4 million kishini tashkil etmoqda [8].

Aholining 14 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan umumiy ko'rsatkichi 22,8 millionni tashkil qilgan bo'lsa, davlatning elektron portallaridan foydalanish ko'rsatkichi 5,1 millionni tashkil qiladi. Ya'ni, bunda davlatning elektron xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ushbu yosh oralig'idagi mamlakat aholisining chorak qismidan kamrog'iga to'g'ri keladi.

Violyatlar kesimida foydalanuvchilar soni quyidagicha:

Qoraqalpog'iston Respublikasi-81255;

Navoiy viloyati-53822;

Toshkent viloyati-0,1 mln;

Andijon viloyati-0,1 mln;

Namangan viloyati-0,1mln;

Farg'ona viloyati-0,1mln;

Buxoro viloyati-79783;

Samarqand viloyati-0,1mln

Xorazm viloyati-75484;

Jizzax viloyati-85174;

Toshkent shahri-0,1mln;

Sirdaryo viloyati-78585;

Surxondaryo viloyati-75945;

Qashqadaryo viloyati-0,1mln;

Boshqalar-1,7 mln.

Toshkent shahri va Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida esa boshqa hududlarga nisbatan elektron hukumatning interaktiv xizmatlaridan foydalanish darajasi bir muncha yuqoriroq ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Biroq, ushbu shahar va viloyatlar aholisining umumiy soniga nisbatan solishtirganda, ushbu raqamlarni juda kamtarona deyish mumkin. Boshqa viloyatlarda esa aholining bu kabi interaktiv xizmatlaridan foydalanish darajasi yanada ozligi ko'zga tashlanadi. Biroq, quvonarlisi yuqoridagi statistik ma'lumotlar yil sayin oshib bormoqda, aholining elektron hukumatga bo'lgan munosabati yaxshilanib, foydalanish darajasi oshmoqda. Aholi vaqtini, mablag'ini ketkazib davlat xizmatlaridan foydalanish uchun yagona darchaga borishi shart emasligini tushunib yetmoqda.

Aholining interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish darajasi pastligini bir qancha omillar bilan izohlash mumkin. Bular internet va infratuzilma muammolari, aholida raqamli savodxonlik darajasining pastligi, ishonchsizlik muammosi, davlat xizmatlarining to'liq integratsiyalanmaganligi, moliyalashtirish va texnologik yangilanishlarning sustligi hamda kadrlar malakasi va ish samaradorligiga bo'liq masalalar. Misol uchun, raqamlashtirishning rivojlanishi barqaror internet aloqasiga bog'liq. Ammo hali ham O'zbekistonning ko'pgina hududlarda internet sifati va qamrovi yetarli emasligini, Covid-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limni amalga oshirishdagi kamchiliklar yaqqol ko'rsatib berdi. Shuningdek, interaktiv xizmatlarni amalga oshiruvchi turli platformalar jumladan, "my.gov.uz" foydalanuvchilarga keng qulayliklar yaratmada, ayrim xizmatlar hanuz qog'oz shaklida talab qilinishi davlat xizmatlarining to'liq integratsiyalanmaganligidan darak beradi.

Ushbu masalalarni yechish esa davlat va boshqa institutlardan kompleks say-harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi.

BMTning elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo'yicha so'roviga ko'ra: "2023 yilda butun dunyo bo'ylab shahar aholisining 81 foizi Internetdan foydalangan bo'lsa, qishloq joylarda bu ko'rsatkich atigi 50 foizni tashkil etgan. Xalqaro elektraloqa ittifoqi (XEI) ma'lumotlari shahar va qishloqlar

o'rtasida, xususan, rivojlanayotgan hududlarda Internetga kirishdagi tafovutning qisqarganini ko'rsatadi. Biroq, shaharlar orasidagi nomutanosiblik saqlanib qolmoqda va ularni hal qilish uchun maqsadli strategiyalarni talab qiladi. Ushbu bo'shliqni bartaraf etish muhim davlat xizmatlaridan adolatli foydalanishni ta'minlash va shahar boshqaruvida inklyuziv ishtirokni rag'batlantirish uchun juda muhimdir. Xalqaro standartlar o'zaro hamkorlikni rag'batlantirish, texnologiyalardan adolatli foydalanishni ta'minlash va global hamkorlikni osonlashtirish orqali raqamli tafovutni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi"[9].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilganda, O'zbekistonda ijtimoiy sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilishda ba'zi yutuqlarga erishilgan bo'linsa-da, ushbu masalada hali hal qilinishi lozim bo'lgan ko'plab muammolar mavjud ayon bo'ldi. Eng asosiy muammolardan biri internet sifati va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligidir, ayniqsa chekka hududlarda bu sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Shuningdek, aholining raqamli savodxonlik darajasining pastligi raqamlashtirish jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi fuqarolar va tashkilotlar onlayn xizmatlarga ishonchsizlik bilan qaraydi, bu esa raqamli texnologiyalarga to'liq o'tish

jarayonini sekinlashtiradi. Davlat xizmatlarining to'liq integratsiyalanmaganligi, tizimlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligini ham ta'kidlash mumkin.

O'zbekistonda raqamli transformatsiyasini yanada jadallashtirish uchun yuqoridagi muammolarga aniq yechimlar zarur. Avvalo, internet sifati va infratuzilmani yaxshilash uchun chekka hududlarda optik tolali aloqa va 5G texnologiyalarini rivojlantirish lozim. Aholining raqamli savodxonligini oshirish uchun keng qamrovli ta'lim dasturlari, trening va seminarlar tashkil etish zarur. Fuqarolarning onlayn xizmatlarga bo'lgan ishonchini oshirish uchun ma'lumotlar xavfsizligi kafolatlarini kuchaytirish va xizmatlarning qulayligini ta'minlash kerak. Davlat xizmatlarini to'liq integratsiyalash va yagona raqamli platformalar orqali davlat muassasalari o'rtasida samarali ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, davlat xizmatchilari va soha mutaxassislarining malakasini oshirish maqsadida doimiy treninglar va tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish talab etiladi. Ushbu chora-tadbirlar barcha sohalar qatorida ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida ham raqamli texnologiyalarning yanada samarali jalb etilishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son
2. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, and others, "Inter-agency policy brief: accelerating SDG localization to deliver on the promise of the 2030 Agenda for Sustainable Development", 29 May 2024, available at <https://sdgs.un.org/sites/default/files/2024-06/Policy%20Brief%20FINAL%20May%2029%205%2024.pdf>.
3. <https://tihe.uz/uz/yangiliklar/toshkent-shahrida-joriy-yil-oxirida-dmed-tibbiy-axborot-tizimi-ishga-tushiriladi>
4. Козлова Н. III. Цифровые технологии в образовании //Вестник Майкопского государственного технологического университета. – 2019. – №. 1. – С. 85-93. DOI: 10.24411/2078-1024-2019-11008
5. <https://login.emaktab.uz>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/19/e-governments/>
7. <https://my.gov.uz/uz/site/statistic-graph>
8. O'zbekiston aholisi 37,1 million kishidan oshdi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz
9. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024>



UDK: 902.2(575.141)

Dilmurod NORMURODOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: d.r.normurodov@gmail.com
Obidjon DUSMURODOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

T.f.d., professor A.Zamonov taqrizi asosida

ABOUT THE COPPER COINS OF AMIR TEMUR FOUND IN KATTAKURGAN DISTRICT, SAMARKAND REGION

Аннотация

This article is dedicated to the study of three copper coins found in the "Jizmonsoy" village of the Kattakurgan district in the Samarkand region. The material composition of the coins has been determined, establishing that they were minted in the city of Samarkand in 785 Hijri (1383-1384) in the name of Amir Timur. The coins bear Amir Timur's emblem in the form of three rings, which served as the state emblem. The article describes the distribution of these three-ring copper coins, which serve as an important source for studying the economic and financial-monetary system of the Timurid era.

Key words: Amir Timur, Samarkand, coin, copper, minting, fulus, finance, economy, year of Hijra, year of our era.

О МЕДНЫХ МОНЕТАХ АМИРА ТИМУРА, НАЙДЕННЫХ В КАТТАКУРГАНСКОМ РАЙОНЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию трёх медных монет, найденных в махалле (село) «Жизмонсой» Каттакурганского района Самаркандской области. Определён материальный состав монет, установлено, что они были чеканены в 785 году хиджры (1383-1384 гг. н.э.) в городе Самарканд от имени Амира Тимура. На монетах изображена тамга Амира Тимура в виде трёх колец, которая была государственным гербом. Описана территория распространения этих медных монет с тремя кольцами, являющихся важным источником для изучения экономической и финансово-денежной системы эпохи Амира Тимура.

Ключевые слова: Амир Тимур, Самарканд, монета, медь, чеканка, фулос, финансы, экономика, год хиджры, год нашей эры.

SAMARQAND VILOYATI, KATTAQO'RG'ON TUMANIDAN TOPILGAN AMIR TEMURNING MIS TANGALARI XUSUSIDA

Аннотация

Ushbu maqola Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, "Jizmonsoy" MFY (qishlog'i)dan topgan 3 dona mis tangalarning tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, tangalarning moddiy tarkibi aniqlangan, ularning hijriy 785 (milodiy 1383-1384- yilda Amir Temur nomi bilan Samarqand shahrida zarb qilinganligi, tangada Amir Temurning uchta halqa – tamg'asi tushirilganligi, tamg'aning davlat gerbi bo'lganligi qayd qilingan. Amir Temur davridagi iqtisodiyot, pul-moliya tizimni yoritishda muhim manba bo'lgan bunday uchta halqali mis tangalarining tarqalish doirasi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Samarqand, tanga, mis, zarb, fulus, moliya, iqtisod, hijriy yil, milodiy yil.

Kirish. Qadimgi va o'rta asrlarning turli sulolalalar boshqaruvi davrda zarb qilingan tangalar yozma manbalarda keltirilmagan ma'lumotlarni tiklashda, davlatning savdo-iqtisodiy aloqalari, tovar-pul munosabatlari tarixini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Tangalar hukmdor sulola vakillarini, hukmronlik ramzlarini aniqlash imkoniyati beradi. O'zMU "Arxeologiya" ta'lim yo'nalishi talabasi Vohidjon Xo'rozboy o'g'li Abdusalomov tomonidan o'zi yashaydagan Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, "Jizmonsoy" MFY (qishlog'i)dan topilgan va o'rganish uchun olingan uch dona mis tangalar noyob topilmalardan hisoblanadi. O'rganish uchun olinganda tangalar kir va oksidlardan samarali tozalangach, ulardagi yozuv va bezaklarni aniqlashning imkoni paydo bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ulkan davlatga asos solgan buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur faoliyati tarixi u tomonidan bunyod etilgan saltanatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini tadqiq etish doim dolzarb ahamiyat kasb etgan. Amir Temur davri tangalarini o'rganish borasida X.M.Frena [17], Ye.A.Davidovich [5], G.A.Fedorov-Davidov [16], I.To'xtayev [14], E.V.Rtveladze [12], V.N.Nastich [10], D.Dovudi [6], A.O.Bragin, P.N.Petrov, A.A.Gomzin [2], V.I.Xaritonov [18], A.M.Kamishhev [8] kabi tangashunos, tarixchi va arxeologlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ular o'z ishlarida tangalarning zarb qilingan joylari, yillari, bezaklari va tangadagi mavjud yozuvlarning tarixiy ahamiyatini juda yaxshi yoritganlar. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidan topilgan Amir Temurning bir dona mis tangasi fanga

ma'lum qilingan [11]. Ammo, "Jizmonsoy" MFYdan yangi topilgan, hijriy 785 (milodiy 1383-1384-yilda) Samarqandda Amir Temur nomi tushirib zarb qilingan uch dona mis tangalar ilk bor tadqiqot mavzusiga tortilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tangalarning tadqiq qilishda tangashunoslikda keng qo'llaniladigan usular qo'llanildi. Tangalardagi yozuvlarini o'qish, naqshlarini tahlil qilish hamda grafik tiklash orqali ularning kim tomonidan, qachon va qayerda zarb qilinganligi aniqlandi. Shuningdek, O'zMU Geologiya fakulteti "Geokimyo va mineralogiya" kaferasi loyabatoriyasidagi rentgen-fluorescent (XRF) analizatori (Drawell DW-EX7000 Mineral Metal Handheld XRF Analyzer) uskunasi yordamida tangalar tarkibidagi metall va qotishmalar aniqlandi.

Tangalarning tavsifi. Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidan topilgan tangalarga qavariq shaklda bezak hamda arab harflarida yozuv tushirilgan bo'lib, ular quyidagicha tavsifga ega:

1. Fulus (mis tanga). Hijriy 785 (milodiy 1383-1384-yilda) Samarqandda zarb qilingan. Doirasimon shaklda bo'lib, uning diametri – 24x25 mm, og'irligi – 5.64 gr.dan iborat. Bu tanga tarkibining 93,89 % mis (Cu), 2,34 % temir (Fe), 1,23 % volfram (W), 0,54 % nikel (Ni), 0,49 % rux (Zn), 0,43 % kalsiy (Ca), 0,41 % qo'rg'oshin (Pb) elementlaridan tashkil topgan. Tangadagi bezak va yozuvlarning bir qismi o'chib ketgan, bir qismi tangaga tushmagan bo'lsada, tangalar ustida adabiyotlar bilan ishlash natijasida uni grafik tiklashning imkoni bo'ldi (1-rasm).

Old tomoni. O'rta qismiga kvadrat shakldagi hoshiya va uning ichiga arab harflarida "Amir Temur (امير تیمور)" degan yozuv tushirilgan. Kvadrat hoshiya tashqarisining to'rt tomoniga esa arab harflari va tilida so'z bilan tanganing zarb qilingan yili, ya'ni "sana / yetti yuz / sakson / besh (سنة / سبعمائة / ثمانين / خمسة)" degan yozuv tushirilgan.

Orqa tomoni. O'rta qismidagi uchburchaksimon bezak orasiga tamg'a – uchta halqa tushirilgan. Bezaklar atrofiga uch tomondan arab harflarida tanganing zarb qilingan joyi, ya'ni "zarb / Samar / qand (ضرب / سمر / قند)" yozuvi tushirilgan.

2. Fulus (mis tanga). Hijriy 785 (milodiy 1383–1384-yilda Samarqandda zarb qilingan. Ovalsimon shaklda. Uning diametri – 21x25 mm, og'irligi – 4.07 gr. (2-rasm). Bu tanga tarkibi 95,78 % mis (Cu), 1,11 % temir (Fe), 1,44 % volfram (W), 0,76 % nikel (Ni), 0,19 % mishtyak (As), 0,15 % xrom (Cr) 0,14 % kalsiy (Ca) elementlaridan tashkil topgan.

Old tomoni. O'rta qismiga uchburchak shakldagi hoshiya va uning ichiga arab harflarida "Amir Temur (امير تیمور)" degan yozuv tushirilgan. Hoshiya atroflariga ham yozuv yozilgan bo'lib, ularning bir qismi o'chib ketgan, bir qismi tangaga tushmagan. Chetlari aylanasiqa nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o'ralgan.

Orqa tomoni. O'rta qismidagi uchburchak hoshiya ichiga tamg'a – uchta halqa tushirilgan. Hoshiya atrofiga uch tomondan arab harflarida tanganing zarb qilingan joyi, ya'ni "zarb / Samar / qand (ضرب / سمر / قند)" yozuvi tushirilgan. Chetlari aylanasiqa nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o'ralgan.

3. Fulus (mis tanga). Zarb qilingan yili va joyi noaniq. Doirasimon shaklda bo'lib, deyarli tekislanib ketgan. Uning diametri – 17 mm, og'irligi – 2.17 gr.dan iborat (3-rasm). Bu tanga tarkibi 94,61 % mis (Cu), 1,42 % temir (Fe), 1,42 % volfram (W), 0,65 % nikel (Ni), 0,57 % rux (Zn), 0,40 % kalsiy (Ca), 0,30 % qo'rg'oshin (Pb) elementlaridan tashkil topgan.

Old tomoni. 1-tangadagi kabi kvadrat hoshiya, tanga cheti-atrofida aylanasiqa nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o'ralgan. Yozuvlari o'chib ketgan.

Orqa tomoni. O'rta qismidagi uchburchaksimon bezak orasiga uchlari tashqariga tomon cho'zilgan tamg'a – uchta bargsimon bezagi bor.

Tahlil va natijalar. Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, "Jizmonsoy" MFY hududidan topilgan uch dona mis tangalarning tadqiqi yuqorida qayd qilinganidek, XIV asrning 80-yillarida Samarqandda zarb qilinganligini, ularning metallik tarkibi asosan misdan iboratligini ko'rsatdi. Aynan yuqorida tavsiflangan ya'ni, Samarqand zarbxonasida hijriy 785 (1383–1384) Amir Temur nomi va uchta halqa – tamg'a tushirilib muomalaga chiqarilgan mis tanga – fuluslarning ko'plab nusxalari turli joylardan topilgan. Jumladan, hozirgi O'zbekistonning Samarqand shahri, Yakkabog' tumani [11], Termiz shahri va boshqa joylaridan [12]. Qirg'iz Respublikasi, Jalolobod tumani, Aksi tumani, Panfilov tumani (Chu viloyati)dan [8], Tojikistonning Xuttalon viloyati, Dang'ara tumani (Itarka qishlog'i)dan [6], Rossiyaning Astraxan shahridan [2] va boshqa joylardan ko'plab topilgan.

Amir Temur hokimiyatni ma'lum vaqt Chig'atoy avlodlaridan bo'lgan qo'g'irchoq xon – Suyurg'atmish (1370–1388), so'ng uning o'g'li Mahmudxon (1388–1402)lar nomi bilan boshqargan, mis va oltin tangalarda ularning nomi bilan o'z nomini birga tushirtirgan bo'lsa-da [14], amalda mutlaq boshqaruvni o'zi amalga oshirar edi. Amir Temur o'zining birinchi tangalarini hijriy 774 (1372–1373) yil Chig'atoy xonlarining namunasi asosida zarb qilgan bo'lsa, 1380-yillardagi pul islohotidan so'ng yangi shakldagi tangalarni o'z nomi bilan zarb qildirgan.

Amir Temurning "uch halqa" – tamg'asi hijriy 783–787 (1381–1385) yillarda Samarqandda zarb qilingan ko'plab mis tanga – fuluslarda tushirilgan [17]. Samarqanddan tashqari, Xorazmda, Xuroson, Eron, Iroq va Ozarboyjon hududlarida, chunonchi, Astrobod, Astora (Ashpara), Bak-u, Balx, Bag'dod, Barsa, Bomiyon, Hirot, Domg'on, Darban, Yazd, Isfahon, Koshon, Kermon, Qum, Qarshi, Mordin, Sova, Sultoniya, Tabriz, Xoy, Shabonkora, Sheroz, Shemaxa, Mahmudobod, Mashhad,

Bidlis, Vastan, Selmas va boshqa shaharlardagi 40 – 50 ta zarbxonada turli yillarda Amir Temurning nomi tushirilib tangalar zarb qilingan [12]. Hatto, mustaqil bo'lgan Hindiston, Turkiya, Misr va Shom podshohlari ham Amir Temur nomi bilan tilla va kumush tangalar zarb qildirganlar [14]. Ushbu tangalar orasida Samarqandning uch halqa – tamg'ali mis tangalari boshqa mis tangalardan ko'ra kengroq tarqalgan.

Amir Temurning oltin va kumushdan yasalgan uch halqa – tamg'ali tangalarning old tomoni o'rta qismiga "La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh" degan iymon, to'rt burchagiga esa to'rt xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarning nomlarini, orqasiga esa "Suyurg'atmishxon yorlig'i Amir Temur Ko'ragon akmonu" deb yozilgan. Jumladan, Samarqandda hijriy 782–788 (1380–1386) yillarda zarb qilingan kumush mirilarda ham Suyurg'atmishxon va Amir Temur nomi yozilgan [14]. Mis tangalarda birgina "Amir Temur" nomi tushirilgan [14]. E'tiborli jihat shundaki, Amir Temur bevosita Chingizxon avlodidan bo'lmagani uchun tangalarda uning ismiga "amir" yoki "ko'ragon (mo'g'ilcha – kuyov)" so'zi tushirilgan.

Amir Temur tangalaridagi uchta halqa – tamg'a doimo qiziqarli bo'lib kelgan. Ayrim tadqiqotchilar mazkur tamg'a ho'kiz boshining ramziligini, ho'kiz boshining faqat ikki ko'zi bilan og'zi tasvirlanganligini xato taxmin qiladilar [14]. Amir Temurning uchta doiradan iborat bo'lgan bunday tamg'asining tavsifi birinchi marta 1404-yilda Samarqandga, Amir Temur saroyiga kelgan Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonzales de Klavixoning sayohat kundaligida keltirilgan. U Amir Temurning Samarqandagi saroyiga kirishda tillo rangdagi uch halqa bo'lganligini xotiralagan [4]. Halqalar huddi tangalardagidek tartibda joylashgan bo'lgan [4; 13]. Ibn Arabshoh esa Amir Temurning bayrog'ida, tug'ida, otlarida, tangalarda, tillo zebziynatlarda uch halqadan iborat tamg'a bo'lganligi haqida ma'lumot yozib qoldigan [7]. "O" shaklidagi uch doirachalardan tashkil topgan bu tamg'alar Amir Temur davlatning ramziy belgisi – gerbi bo'lib, u "Temur – uch iqlimning hukmdori", degan ma'noni anglatgan.

Amir Temurning hijriy 783 (1381–1382) yilda Xorazmda zarb qilingan tangasining bir tomoniga uchta halqadan tashqari, halqalarning uning tagidan sherning o'ng tomondan ko'rinishi tasvirlangan [18]. Ma'lumki, islom dinida jonzoatlarni muqaddaslashtirish, ularning tasviridan foydalanish salbiy qaraladi. Hayvonot olamining qiroli sifatida talqin qilinadigan sherning Amir Temur tangalarida tushirilishi uning talirantligidan dalolat beradi.

Amir Temur tangalardan oldin zarb qilingan tangalarda ham uchta holqani kuzatish mumkin. Jumladan, ular kelib chiqishi turkiylardan bo'lgan qoraxoniylar sulolasi vakili Nasr Ibrohim o'g'lining hijriy 460 (1067–1068), 466 (1073–1074) yillarda Buxoroda zarb qilingan fulus – mis tangasida [21], Mas'ud Hasan o'g'lining hijriy 560 (1164–1165) Samarqandda zarb qilingan fulus – mis tangasida [26], Arslonxon Ibrohim Husayn o'g'lining hijriy 559 (1163–1164) yilda Uzgandda zarb qilingan dirhamlarida [27], yana bir turkiy sulola Saljuqiylarning vakili Alp Arslon nomining hijriy 465 (1072–1073) yilda Nishopurda zarb qilingan dirham – oltin tangasida [1] va boshqalarda uchraydi. Qolaversa, tangalarda halqa o'rnida bo'rtib chiqqan va alohida ko'zga tashlanadigan uchta nuqtachalar ham tushirilgan. Bularga somoniylar sulolasi vakillaridan Yahyo Asad o'g'lining Shosh – Toshkentda zarb qilingan mis tangalari [19], qoraxoniylardan Nasr Ibrohim o'g'lining hijriy 465 (1072–1073) yilda [25], Tabg'achxon Muhmudning hijriy 490 (1096–1097) yilda Buxoroda zarb qilingan fulus – mis tangalari [29], Imadiddin Tabg'achxon Muhammad Takash o'g'lining hijriy 610 (1210) yilda Vaxshda zarb qilingan dinorlari [31], saljuqiylar sulolasi vakillaridan Kirmon hukmdorlaridan biri bo'lgan Qara Arslon Bek nomi tushirilib hijriy 462 (1069–1070) yilda zarb qilingan dirham – oltin tangalari [1], Chingiziylardan Munkaxonning (hijriy 649–658, milodiy 1251–1260-yillar orasida) dirhamlari [22], Xorazmdagi qo'ng'iroq so'filarining hijriy 779 (1377–1378-yilda zarb qilingan mis tangalari [20] bunga misol bo'la oladi. Ammo, bu tangalardagi uchta halqachalar va nuqtachalar ancha kichik hajmda tushirilgan.

Amir Temurning uch halqa – tamg'asi uning o'g'li Shohrux va nabirasi Ulug'bek hukmronligi davrida urug' tamg'asi

sifatida qaralib, kumush va mis tangalarga tushirilgan. Temuriy shahzodalarning XV asrning oxirlarida Samarqand va Buxoroda zarb qildirgan mis tanglari o'rta qismiga arab harfidagi yozuvning "sh (ش)" harfi ustiga qo'yiladigan nuqtachalari uchta halqa ko'rinishida tushirilganligini ham kuzatish mumkin [23]. Undan keyingi tangalarda Amir Temurning davlat ramziga aylantirgan bunday tamg'ani tushirish an'ana yo'q bo'lib ketgan.


Amir Temur tangalarida arabcha, forsha, mo'g'ulcha so'zlar bilan birga turkcha so'zlar ham qo'llanilgan. Masalan: arabchadagi kalimalar, forshadagi "zarb", mo'g'ulchadagi "ko'ragon (kuyov)" so'zlari qatorida turkiydagi "so'zim", "yorlig'i" singari so'zlarni uchramiz. bu orqali Amir Temurning

ilgari an'ana sifatida qo'llanib kelingan so'zlarga qo'shimcha turkiy so'zlarning qo'llanishi an'anasiga tamol qo'ydi.

Xulosa va takliflar. Kattaqo'rg'on tumani hududidan topilgan uch dona mis tanga Amir Temur davridagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu tangalardan biri Samarqandda hijriy 785 (1383–1384) yilda zarb qilingan. Ular o'sha davrda ichki bozorda eng faol muomalada bo'lgan. Tanganing yozuv, naqsh va tamg'alar ilgaridan turkiy sulolalar tangasida tushirilgan bo'lsada, ular Amir Temur hukmronligini aks ettiruvchi ramzlardan iborat bo'ldi.



ADABIYOTLAR

1. Catalogue of oriental coins in the British Museum. – Vol. III. – London: Printed by order of the trustees, 1877. – Pp. 30, 38. – PL. II. № 60, № 75.
2. Брагин А.О. Находки монет амира Тимура и Тимуридов на территории Золотой Орды // Нумизматика Золотой Орды. – №5. – Казань, 2015. – С. 67–79.
3. Брагин А.О., Петров П.Н., Гомзин А.А. Медные монеты Амира Тимура с номиналом Тассудж // Нумизматика Золотой Орды. – № 4. – Казань, 2014. – С. 114–125.
4. Гонсалес, Руи Де Клавихо. Самаркандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403–1406). Масъул мухаррир: Мухаммад Али; сузбоши ва изоҳлар муаллифи М. Сафаров; тарж. О. Тоғаев. – Тошкент: O'zbekiston, 2010. 90–92, 148, 162–163, 164, 173, 182, 186, 188–189-бетлар.
5. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV– первой четверти XVI в. в Мавераннахре). – Москва, 1983. – С. 69–70.
6. Давлатходжа Довуди. Древние и средневековые монеты Дангары. – Душанбе: ЭР-граф, 2014. – С. 44, 85, 115.
7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 2-китоб. – Тошкент: Меҳнат, 1992. 65-бет.
8. Камышев А.М. Клады медных монет тимуридов и шейбанидов. – Самарканд, 2013. – С. 13, 17, 51, 56, 153 (Приложение IV. № 2), 172 (Приложение V. № 1).
9. Монеты хановъ улуса Джучиева или Золотой орды, съ монетами разныхъ иныхъ Мухаммеданскихъ династий. – Санктпетербургъ, 1832. – С. 62. и таб. XV. № 5.
10. Насири В. Н. Еще о Самаркандском чекане Темура и первых тимуридов. // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития (Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летию юбилею города Самарканда). – Ташкент – Самарканд, 2007. – С. 152–160.
11. Нормуродов Д., Мейлиев И. Яккабоғдаги Амир Мухаммад (барлослар) макбараси. – Тошкент, 2023. 22-бет.
12. Ртвеладзе Э.В. Термезский клад монет Тимура и Халил Султана // ОНУ. 1969. – № 8–9. – С. 95–98.
13. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). – Москва, 1990. – С. 103.
14. Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. 8–9, 18, 20, 30, 40, 42, 44, 46-бетлар.
15. Тўхтаев И. Темур ва темурийлар сулоласининг тангалари. – Тошкент: Фан, 1992. 11-бет.
16. Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма Золотоордынского периода // НЭ. – Том. V. 1965. – С. 179–223.
17. Френ Х.М. Монеты ханов улуса Джучиева или Золотой Орды с монетами различных мухаммеданских династий. – СПб., 1832. – С. 62. № 443. табл. XV, рис. 1, 3, 5.
18. Харитонов В.И. О некоторых медных монетах Хорезма 80–90-х гг. XIV в. // Нумизматические чтения государственного исторического музея: 2016 года. Материалы докладов и сообщений. – Москва, 2016. – С. 65–69. – Рис. 2, 3, 4, 5, 7.
19. <https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=3129&page=1>
20. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=119586>
21. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=16104>
22. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=176070&cat=9877&ppuser=&sortby=d&way=desc>
23. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=181154>
24. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=196858>
25. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=203058>
26. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=208623>
27. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=317930&cat=6364&ppuser=&sortby=d&way=desc>
28. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=337042&cat=21831&ppuser=&sortby=d&way=desc>
29. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=35473>
30. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=37888>
31. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=64761>
32. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=280894>



1-rasm. Fulus (mis tanga). Amir Temur. Samarqand. Hijriy 785 (milodiy 1383–1384) yil. Diametri – 21-25 mm, og'irligi – 4,07 gr.

a-oldi; b-oldining grafik tiklangandagi ko'rinishi; c-orqasi; d-orqasining grafik tiklangandagi ko'rinishi.





Uyg'un SAIDOV,
TISUning mustaqil tadqiqotchisi

TISU professori, t.f.d E. Qobulov taqrizi asosida

THE HISTORY AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE TRANSPORT INFRASTRUCTURE OF SURKHANDARYA REGION

Annotation

This article analyzes the historical formation, development, and existing problems of the transport infrastructure of the Surkhandarya region. Based on archival documents, the study examines road construction, repair works, and the economic significance of transport networks. The research results indicate that a lack of financial resources and organizational issues have hindered the stable development of the transport system. At the same time, the modernization of road infrastructure, the development of logistics services, and the attraction of investments are highlighted as crucial factors for economic growth.

Key words: Transport infrastructure, road construction, Surkhandarya, logistics, economic development, archival documents, financing, modernization.

ИСТОРИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется историческое формирование, развитие и существующие проблемы транспортной инфраструктуры Сурхандарьинской области. На основе архивных документов изучены строительство дорог, ремонтные работы и экономическая значимость транспортных сетей. Результаты исследования показывают, что нехватка финансовых ресурсов и организационные проблемы препятствовали устойчивому развитию транспортной системы. В то же время модернизация дорожной инфраструктуры, развитие логистических услуг и привлечение инвестиций рассматриваются как важные факторы экономического роста.

Ключевые слова: Транспортная инфраструктура, дорожное строительство, Сурхандарья, логистика, экономическое развитие, архивные документы, финансирование, модернизация.

SURXONDARYO VILOYATI TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARIXI VA RIVOJLANISH

Annatsiya

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati transport infratuzilmasining tarixiy shakllanishi, rivojlanishi va mavjud muammolari tahlil qilingan. Arxiv hujjatlari asosida yo'l qurilishi, ta'mirlash ishlari va transport tarmoqlarining iqtisodiy ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy resurslar taqchilligi va tashkiliy muammolar transport tizimining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Shu bilan birga, hududda yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika xizmatlarini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy o'sishning muhim omillari sifatida qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Transport infratuzilmasi, yo'l qurilishi, Surxondaryo, logistika, iqtisodiy rivojlanish, arxiv hujjatlari, moliyalashtirish, modernizatsiya.

Kirish. Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo'lib, mamlakatning transport tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Viloyatning iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyati va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ko'p jihatdan transport infratuzilmasining holati va uning rivojlanish darajasiga bog'liq. Transport tizimi hududiy mehnat taqsimotini shakllantirish, iqtisodiy geografik rayonlashtirish va mahalliy iqtisodiyotning o'sishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatida transport tizimi tarixiy rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Sovet davrida transport infratuzilmasi asosan Ittifoq manfaatlariga mos ravishda rivojlantirilgan bo'lib, asosiy yo'llar va temir yo'l tarmoqlari markaziy boshqaruv talablariga ko'ra qurilgan.

Avtomobil transporti sohasida amalga oshirilgan ishlarga tarixiy jihatdan baho berganda uning soni va salmog'ining oshib borganligini ham tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, O'zbekistonda avtomobil transporti tizimiga ham alohida e'tibor berilib, xizmat ko'rsatish tarmoqlari shakllandi, avtomobil korxonalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, yangi avtomobil turlarining ta'minoti yaxshilanib borgan. Respublikamizda ilk marotaba avtobus qatnovi 1906 yilda Farg'ona-Marg'ilon marshruti bo'yicha amal qilgan bo'lsa, Toshkent shahrida birinchi avtobus 1909 yil dekabridan boshlab, ish boshlagan, 1910 yili xorijiy davlatlar ishlab chiqarilgan 8 ta kichik va bitta 40 o'rinli avtobuslar yo'lovchilarni tashishga xizmat qilgan[1].

XX asrning 20-yillarida Sovet hukumati siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy imkoniyatlarini yaratganidan so'ng, xalq xo'jaligini sotsialistik tizimga moslashtirish shart-sharoitlarini vujudga keltirishga alohida e'tiborni qaratdi. Bu siyosat transport taraqqiyoti, yo'l qurilishi sohasida ham o'z aksini topgan. Masalan, markazning asosiy xomashyo manbasi hisoblangan O'zbekistonda transport sohasini rivojlantirish sababli respublikani iqtisodiy jihatdan o'z ta'siriga bo'ysundirishga jiddiy e'tibor berildi [2]. Mamlakatimizdagi mavjud xom-ashyo zahirasi markazning siyosiy-harbiy salohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Respublikada transport taraqqiyotining rivojlanishi Sovet Ittifoqining Osiyo qit'asi bilan bo'lgan siyosiy-harbiy va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishda ham muhim vosita bo'lib, xizmat qilgan.

Tarixdan ma'lumki, muayyan bir hudud geografik jihatdan o'rganilganda, ya'ni buni muayyan davr nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasida transport sohasida qabul qilingan sovet hukumati qarorlarining asosiy maqsad va tamoyillarini faqat markaz manfaatlariga uchun moslashtirilganligi bilan bog'lash mumkin. Ushbu qurilayotgan transport tizimidan Respublikaning mahalliy aholisi samarali foydalanishi va uning turmush tarzini yuqori ko'tarish masalasi asosiy maqsad qilib olinmagan edi. Buni tarixiylik nuqtai-nazardan xolisona baholash o'rinlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodlar. Ushbu maqolada tarixiy-tahliliy metod orqali Surxondaryo viloyati transport infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi arxiv hujjatlari (517-fond) asosida o'rganildi. Muqoyosli tahlil yordamida

transport tizimining turli davrlardagi holati solishtirildi, iqtisodiy tahlil orqali yo'l qurilishi va ta'mirlash ishlarining moliyaviy samaradorligi baholandi. Hujjatli tahlil usuli viloyatda qabul qilingan qarorlar va rejalarning ijro mexanizmini o'rganish imkonini berdi. Bular orqali Surxondaryo viloyati transport infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari, muammolari va yechimlari aniqlandi.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha turi - temir yo'l, avtomobil, havo (aviatsiya), shahar elektr transporti (tramvay, trolleybus, metropoliten), suv (daryo), quvur transporti, shuningdek umumiy foydalanilmaydigan (sanoat) transporti - temir yo'l, avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan. 1920-1991 yillarda respublika transportining asosiy turlari sobiq Ittifoqning Markaziy vazirliklariga yoki ularning O'rta Osiyo, O'zbekiston bo'yicha hududiy boshqarmalariga bo'ysungan: temir yo'l transportiga O'rta Osiyo temir yo'l boshqarmasi, suv transportiga O'rta Osiyo davlat paroxodchiligi boshqarmasi, havo transportiga Ittifoq fuqaro aviatsiya vazirligining O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi, umumiy foydalanishdagi avtomobil transportiga O'zSSR Avtomobil transporti vazirligi rahbarlik qilgan [3].

1949-1950-yillarda Surxondaryo viloyatida transport infratuzilmasini yaxshilash va qishloq xo'jaligi yuklarini tashish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Mirobod-Tollimaron massivi orqali asfaltlangan yo'l qurilishi rejalashtirilgan. Loyiha doirasida 10,3 km yo'l to'shamasi qurilishi, 10,8 km shag'alni qoplama yotqizilishi va 230 chiziqli metr beton hamda temir-beton quvurlar o'rnatilishi ko'zda tutilgan bo'lib, umumiy loyiha qiymati 900 000 rubl etib belgilangan, shundan 700 000 rubli qishloq aholisi mehnat ishtiroki hisobiga moliyalashtirilgan[4]. Biroq loyiha amalga oshirilish jarayonida moliyaviy va tashkiliy muammolar yuzaga kelgan. 1950 yil 7 martda viloyat ijroiya qo'mitasi tomonidan 106-sonli qaror qabul qilingan bo'lib, unda yo'l qurilishi uchun shag'al tashish belgilangan, ammo ish bajarilmagan. Shuningdek, SSSRda tashkil etilgan ko'priklar yuklash va tushirish brigadalarning to'liq bandligi tufayli yo'l qurilishi uchun zarur materiallar yetkazib berilmagan. Boshlangan ishlar 30% hajmida bajarilib, faqat 0,5-2 km yo'l qurilgan, shuningdek, 8000 m³ shag'al zahira qilib qo'yilgan [4]. 1950 yil 11 mayda viloyat ijroiya qo'mitasi tomonidan 300-sonli qaror qabul qilinib, 9,8 km yo'l qurilishi yakunlanishi kerakligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, Sherobod tumani ijroiya qo'mitasi tomonidan 40 kishidan iborat brigada tashkil etilishi va ularga shag'al tashish vazifasi yuklatilishi belgilab qo'yilgan. Ammo yuqori organlar tomonidan nazoratning yetishmovchiligi va mahalliy rahbarlarning mas'uliyatsizligi sababli ishlar to'xtab qolgan, shu bois 1950 yil 22 iyun kuni viloyat ijroiya qo'mitasi tomonidan 530-sonli qaror qabul qilinib, oldingi topshiriqlarning bajarilmagani qayd etilgan. Shu bilan birga, yo'l qurilishida mas'ul shaxslarga 3 338 rubl miqdorida jarima belgilangan va "O'zxo'ptrans" Termiz karvoni uchun 3 000 tonna shag'al yetkazib berishi shartligi ko'rsatilgan, biroq bu vazifalar ham bajarilmagan. Viloyat ijroiya qo'mitasi, partiya qo'mitasi va boshqa hududiy organlar bir necha bor markaziy rahbariyatga yo'l qurilishi uchun zarur moddiy resurslar ajratilishini talab qilgan, ammo bu masala o'z yechimini topmagan. 1950 yil iyun oyida 1120-sonli qaror qabul qilinib, 10 km yo'l qurilishi tasdiqlangan, ammo ijro jarayonida tashkiliy muammolar saqlanib qolgan [4]. Shu tariqa, Surxondaryo viloyatida yo'l qurilishi jarayonida moliyaviy mablag'larning samarasiz taqsimlanishi, nazorat mexanizmining sustligi va texnik resurslar yetishmovchiligi sababli belgilangan vazifalar amalga oshirilmagan, bu esa hududning transport infratuzilmasini rivojlantirish jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan.

1952 yilda Surxondaryo viloyatida yo'l infratuzilmasini yaxshilash va qishloq xo'jaligi yuklarini tashishni samarali tashkil etish maqsadida "Surxon magistrali yo'lini rekonstruksiya qilish va viloyat mahalliy yo'llarida ko'priklar qurish bo'yicha tadbirlar" amalga oshirilgan. Ushbu rejalar O'zbekiston SSR hukumati organlarining maxsus ko'rsatmalariga asoslangan bo'lib, ular Surxon avtomobil yo'li bo'ylab qattiq qoplamalar qurish va mahalliy ahamiyatga molik yo'llarda sun'iy inshootlarni barpo etishni nazarda tutgan [5]. Rekonstruksiya ishlari doirasida:

Surxon traktidagi 7 km (Termiz tumani), Jarqo'rg'on tumanidagi 12 km, Oq-Kapchig'aydan Tojikiston SSR chegarasigacha bo'lgan 76 km yo'l to'liq qayta tiklanishi rejalashtirilgan. Jami 95 km yo'lni rekonstruksiya qilish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarning umumiy qiymati 12 mln rublga baholangan, shundan 5 mln rubl qishloq aholisining mehnat ishtiroki hisobiga moliyalashtirilgan [5].

1952 yil davomida 29 km yo'l qoplamasi yotqizilgan, shundan 11 km to'liq o'yilgan, 10 km yo'l esa hali ishlov berilmagan holda qolgan. Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanidagi DOU-4 uchastkasida Zang kanali bo'ylab 19 km dan 25 km gacha bo'lgan qismida qo'shimcha 20 ming kub metr yer ishlari amalga oshirilgan. 1952 yil uchun umumiy sarflangan mablag' 1,64 mln rublni, 3100 avtomobil kuni va 22 ming ish kuni mehnat resurslarini tashkil etgan [5].

1953-1954 yillarga mo'ljallangan reja bo'yicha Surxon yo'lining yana 66 km qismi rekonstruksiya qilinishi lozim bo'lgan. Shuningdek, Sho'rchidan Xayrobodga va Denovdan Tojik SSR chegarasigacha bo'lgan yo'llar ham qayta qurilishi belgilangan. Bu ishlarni amalga oshirish uchun: 920 ming kub metr yer ishlari, 96 ming kub metr shag'al yotqizish, 476 ming ish kuni, 6,9 ming avtomobil kuni talab qilingan. Ishlarning umumiy qiymati 10,16 mln rublga baholangan, shundan 4,5 mln rubli qishloq aholisining mehnat ishtiroki hisobiga moliyalashtirilgan, 5,66 mln rubli esa budget mablag'laridan ajratilgan [5, 6].

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish tizimini yaxshilash va kolxozlarning iqtisodiy ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida mahalliy yo'llarda ko'priklar qurish rejalashtirilgan. Xususan, Fayzon qishloq Soveti (Uzun tumani) hududidan oqib o'tuvchi daryosi orqali 100 metrli ko'priklar qurilishi belgilangan, bu esa 493 ming rubl mablag' talab qilgan. Shuningdek, Xayrobod yo'lidagi 45 km uzunlikdagi yo'l rekonstruksiya qilingan[5].

Yuqoridagi tadbirlar Surxondaryo viloyatida yo'l infratuzilmasini takomillashtirishda muhim bosqich hisoblanib, qishloq xo'jaligi va sanoat yuklarini tashishni samarali tashkil etish uchun strategik ahamiyat kasb etgan. Yo'l qurilish ishlarida aholi mehnat ishtiroki keng jalb etilgan bo'lib, bu tizimli rekonstruksiya jarayonlarining moliyaviy samaradorligini oshirishga yordam bergan.

Tahlil va natijalar. Surxondaryo viloyati yo'l qurilishi va avtomobil transporti infratuzilmasi XX asrning ikkinchi yarmida intensiv rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan. Biroq, 1957-1964 yillar davomida viloyatdagi yo'l qurilishi va ekspluatatsiya ishlarida bir qator muammolar va moliyaviy kamchiliklar kuzatilgan. 1957 yilda Denov mashina-yo'l stansiyasida kadrlar bilan ishlash holati tahlil qilinganda, shtatda 11 kishi ishlab, ulardan faqat 2 nafari oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lgan. Shuningdek, 16 nafar mutaxassisdan 9 nafari o'rta maxsus ma'lumotli bo'lib, qolganlar yetarli malakaga ega bo'lmagan. 1957 yil davomida 202 kishi ishga qabul qilingan va 127 kishi ishdan bo'shatilgan. Bu esa mehnat resurslarining yuqori aylanmaligi va kadrlar barqarorligining past darajada ekanligini ko'rsatadi. Mutaxassislarning mavjudligiga qaramay, uy-joy fondining yetishmovchiligi tufayli ishchilarni zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlash imkoniyati cheklangan [6].

Yo'l qurilishi va moliyaviy kamchiliklar tahlili natijasida ayrim moddiy resurslarning noto'g'ri hisobga olingani va sarflangan mablag'larning manzilli taqsimlanishiga rioya etilmagani aniqlangan. Masalan, "Manguzar-Jayraxona" yo'llariga ajratilgan mablag'lar asosiy materiallar uchun 129 105 so'm deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, aslida faqat 44 291 so'm sarflangan, qolgan mablag' esa noto'g'ri hisobga olingan. Shuningdek, baza qurilishi xarajatlari 174 043,58 so'm bo'lishi kerak bo'lsa-da, 483 518,57 so'm sifatida ko'rsatilgan va noto'g'ri hisobga olingan. 309 554,95 so'm mablag' "Manguzar-Jayraxona, Bozor-Qarlyuk" yo'llarini qurishga sarflangan deb qayd etilgan [6].

Mutaxassislarni tayyorlash va kadrlar siyosati nuqtai nazaridan 1957 yilda mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha cheklangan chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Faqat bir kishi Qo'qon yo'l texnikumiga yuborilgan, 8 nafar haydovchi esa Denov shahridagi avtomaktabda 1-sinf imtihonlarini topshirgan. Boshqa sohalarida tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmagan. Shu

bilan birga, 1958 yilda to'liq o'quv kursini yakunlagan bitiruvchilardan bir nafari tokarlik sohasida ish boshlagan [6].

Surxondaryo viloyati avtomobil yo'llari infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy davrlar kesimida yo'l qurilishi va foydalanish sohasida amalga oshirilgan ishlar bilan chambarchas bog'liqdir. 1964 yil 22 avgustda O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 520-sonli qaroriga muvofiq, viloyatda yo'l qurilishi va ekspluatatsiyasi bo'yicha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu jarayonda yo'l uchastkalarining holati, sun'iy inshootlar va muammolarni aniqlash maqsadida komissiya tomonidan tekshiruv o'tkazilgan. 1964 yil 15-18 sentabr kunlari Surxondaryo viloyati yo'l ekspluatatsiyasi muassasalari va mas'ul shaxslar ishtirokida Boldir-Tojik SSR chegarasi va Sherobod-Boldir yo'llari texnik ko'rikdan o'tkazilgan. Ko'rik natijalariga ko'ra, mazkur yo'llarning muayyan uchastkalarida konstruktiv kamchiliklar mavjud bo'lib, ayniqsa, 7-17 km oralig'idagi uchastkalarda yo'l to'shamasi zaifligi, yoyilma suvlar ta'sirida shikastlangan qoplamalar va sug'orish tizimi bilan bog'liq muammolar qayd etilgan[7]. Shuningdek, "Surxonvodstroy" tresti tomonidan qurilgan ayrim uchastkalarda beton konstruksiyalarning mustahkamligi talab darajasida emasligi aniqlangan. Mazkur yo'nalishda joylashgan 22 metrli ko'prikning texnik holati qoniqarli deb baholangan, biroq yaqinlashuv joylaridagi yer to'shamasi yer oyuqlari va iqlim ta'siri natijasida qisman yemirilgan. Yo'l bo'ylab joylashgan sun'iy inshootlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, 7+100, 9+600, 11+200 km masofalardagi quvurlar to'liq yoki qisman shikastlangan bo'lib, ularning ba'zilar yo'qolgan yoki bosh qismlarsiz qolgan [7].

Yo'l infratuzilmasining muammolari nafaqat sun'iy inshootlarda, balki harakat xavfsizligi va ekspluatatsiya bilan bog'liq jihatlarda ham namoyon bo'lgan. Yo'l belgilari, to'siqlar va parapetlarning yetishmovchiligi tufayli transport vositalari harakatida xavfli vaziyatlar yuzaga kelgan. Shuningdek, tekshiruv davomida Mirovul-Boldir yo'nalishi bo'ylab yo'lning tabiiy holatda saqlangan qismi sun'iy inshootlarsiz ekanligi va yer maydonlarini o'zlashtirish jarayonida ayrim yo'l uchastkalari shudgor qilinishi natijasida transport qatnovi uchun moslashmagani qayd etilgan [7].

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi jarayonida yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi yo'llar qurish va mavjud yo'llarning ekspluatatsiya holatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etgan. Shu boisdan, 1965 yilda O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashi tomonidan viloyatdagi yo'l tarmoqlarini takomillashtirish maqsadida yangi ro'yxat tasdiqlangan bo'lib, unga jami 481 km yo'l kiritilgan. Shu bilan birga, viloyatning xo'jalik sub'ektlari va jamoa xo'jaliklarini yo'l

qurilishida ishtirok etishini ta'minlash ham muhim vazifa sifatida belgilangan [7].

Surxondaryo viloyatining yo'l qurilishi va foydalanish sohasi 1974 yilda salmoqli natijalarga erishgan bo'lib, viloyat avtomobil yo'llari qurilish va foydalanish boshqarmasi tizimida 9 ta yo'l tashkiloti, 2 ta yo'l qurilish boshqarmasi va 7 ta DRSU faoliyat yuritgan. Mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish, ichki resurslarni safarbar etish va ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini muvofiqlashtirish orqali yo'l qurilishi va ta'mirlash ishlari rejadani yuqori bajarilgan. Jumladan, 1974 yilda pudrat ishlari rejasi 106,6% ga, kapital ta'mirlash ishlari esa 105% ga ta'minlangan. Viloyatdagi yo'l xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, umumiy xarajatlar rejasi 8 285 ming rubl etib belgilangan bo'lib, amaliy bajarilgan ish hajmi 8 340 ming rublni tashkil etgan, bu esa rejadani 55 ming rubl tejamkorlikka erishilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, texnik xizmat ko'rsatish va materiallarni tashish xarajatlari ortganligi sababli, moliyaviy resurslarni maqbullashtirishga ehtiyoj paydo bo'lgan. Yo'l qurilish va ta'mirlash jarayonida texnik va tashkiliy chora-tadbirlarning samarali joriy etilishi tufayli mehnat unumdorligi 1,2% ga oshgan, har bir ishchiga to'g'ri keladigan mehnat hajmi rejaga nisbatan yuqori natijaga erishgan. Shu bilan birga, o'rtacha oylik ish haqi rejadani 9,9% kam bo'lgan[8]. Viloyat yo'l xo'jaligida mexanizatsiya darajasi tahlil qilinganda, yo'l qurish mexanizmlari ish samaradorligi yuqori bo'lgani holda, ayrim texnikalardan to'liq foydalanish ta'minlanmagan. Shu munosabat bilan, texnik bazani modernizatsiya qilish, ta'mirlash muddatlarini qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda yo'l qurish mexanizmlaridan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarda ishlar davom ettirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Surxondaryo viloyati transport infratuzilmasi tarixiy jarayonlar davomida shakllanib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga bevosita ta'sir etgan. Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, yo'l qurilishi va modernizatsiya ishlari asosan qishloq xo'jaligi yuklarini tashishni ta'minlash, sanoat va savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida olib borilgan. Biroq, moliyaviy resurslar taqchilligi, texnik bazaning yetishmovchiligi va tashkiliy muammolar sababli ko'plab loyihalar o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilmagan. Shu bilan birga, transport tizimidagi islohotlar va yo'l qurilishiga qaratilgan davlat siyosati infratuzilmani rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hududda transport tarmog'ini takomillashtirish, mavjud yo'llarni modernizatsiya qilish va logistika imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Sotsialno-ekonomicheskoe razvitiye Uzbekistana za gody Sovetskoy vlasti. – Tashkent: Uzbekistan, 1984. –S.11.
2. Rayzberg B.A. Основы экономики и предпринимательства. – Москва: Prosveteniye, 1995. – S. 8-12.
3. O'zbekiston Respublikasi: ensiklopediya.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –B.305.
4. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 517-fond, 1-ish, 69-ro'yxat.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 517-fond, 1-ish, 91-ro'yxat.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 517-fond, 1-ish, 153-ro'yxat.
7. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 517-fond. 1-ish. 278 ro'yxat.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 517-fond, 1-ish, 153-ro'yxat



UDK:930

Sherzod SATTOROV,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sherzod03121993@gmail.com

OTU dotsenti, PhD B.Toshpulatov taqrizi asosida

ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA ARIYLARNING KELIB CHIQISH MASALASI

Annotatsiya

Ariylar yoki Hind-Ariylarning kelib chiqishi va lokalizatsiyasi masalasi tarixiy, arxeologik, lingvistik va genetik tadqiqotlarda eng munozarali mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada ariylarning vatani to'g'risidagi turli nazariyalar ko'rib chiqilib, lingvistika, arxeologiya va genetika sohalaridan olingan zamonaviy ma'lumotlar hisobga olinadi. Biz muhokamaning hozirgi holatini tanqidiy baholagan holda, ushbu fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'likka e'tibor qaratib, ariylarning kelib chiqishi va keyingi migratsiyalarini tushinishda ushbu ma'lumotlarning ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Ariylar, lokalizatsiya, hind-yevropa-tillar, gipoteza, Dasht, BMAK, lingvistik, arxeologik, genetika, Ponto-Kaspiy, Yamna va h.k.

THE QUESTION OF ARYAN ORIGIN IN MODERN RESEARCH

Annotation

The question of the origin and localization of the Aryans, or Indo-Aryans, remains one of the most controversial topics in historical, archaeological, linguistic, and genetic studies. This article provides an overview of various theories regarding the homeland of the Aryans, taking into account modern data from linguistics, archaeology, and genetics. We critically assess the current state of the discussion, focusing on the interaction between these disciplines, and emphasize the significance of these data for understanding the origin of the Aryans and their subsequent migrations.

Key words: Aryans, localization, Indo-European languages, hypothesis, Steppe, BMAK, linguistic, archaeological, genetics, Pontic-Caspian, Yamna, etc.

ВОПРОС О ПРОИСХОЖДЕНИИ АРИЕВ В СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация

Вопрос о происхождении и локализации арийцев, или индоарийцев, остается одной из самых спорных тем в исторических, археологических, лингвистических и генетических исследованиях. В данной статье проводится обзор различных теорий относительно родины арийцев, с учётом современных данных из лингвистики, археологии и генетики. Мы критически оцениваем текущее состояние обсуждения, уделяя внимание взаимодействию этих дисциплин, и подчеркиваем значение этих данных для понимания происхождения арийцев и их последующих миграций.

Ключевые слова: Арии, локализация, индоевропейские языки, гипотеза, степь, БМАК, лингвистический, археологический, генетика, Понто-Каспий, Ямна и т.д.

Kirish. Ilm fanning qizg'in mavzularidan biri bo'lmish Ariylar qadimiy matnlardan birida ya'ni, Rigveda da tasvirlanganidek an'anaviy ravishda Hindiston hududi va Yevropaning ba'zi qismlarining dastlabki aholisi bilan bog'lanadi. Biroq, ularning kelib chiqishi va vatanining aniq joylashuvi haqidagi savol uzoq vaqtdan beri ilmiy munozaralar mavzusiga aylangan. Dastlabki nazariyalar ariylarning vatanini Hindiston hududida joylashgan deb taxmin qilishgan, lekin bu nuqtai nazar migratsiya gipotezasi va dasht madaniyatlari gipotezasi bilan bu tushuncha noto'g'ri ekanligi isbotlangan. Olimlarning katta qismi ariylarning beshigini Yevroosiyo dashtlarida bo'lgan deb ta'kidlashadi. Ushbu maqola so'nggi lingvistik, arxeologik va genetika ma'lumotlarini hisobga olgan holda ushbu nazariyalarni ko'rib chiqishga qaratilgandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dastlabki nazariyalardan biri, hozirda sezilarli darajada inkor qilinayotgan, ariylarning Hindiston subkontinenti hududida, ayniqsa, Hind vodiysi sivilizatsiyasi atrofida paydo bo'lganligi nazaryasini oldinga surardi. Ushbu gipoteza vedik matnlarni mahalliy hind sivilizatsiyasining aks-sadosi sifatida talqin qilishga asoslangan edi. Biroq keyinchalik arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki ya'ni, Hind vodiysi sivilizatsiyasi ariylarning kelishidan oldin mavjud bo'lgan va topilgan arxeologik dalillar ariylarning mahalliy kelib chiqishi haqidagi gipotezani inkor qiladi[1]. Undan tashqari ariylarning vatani haqida juda ko'plab nazariyalar mavjud bo'lib ulardan biri Dasht gipotezasidir. Dasht gipotezasi ariylarning Yevroosiyo dashtliklaridan kelib chiqqanligi haqidagi nazariya bo'lib, so'nggi o'n yilliklarda keng tan olinmoqda. Ushbu nazariya, hind-yevropa tillarining Ponto-Kaspiy

dashtlaridagi aholi bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi lingvistik va genetika dalillar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Dasht gipotezasi ariylarni hind-yevropaliklarning kengroq guruhining bir qismi sifatida ta'riflaydi va ular ushbu hududlardan Hindistonga va Yevropaga bronza davrida migratsiya qilganligi to'g'risida tahminiy tushuncha beradi[2].

Boshqa bir nazariyalardan biri BMAK nazariyasiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra ariylarning vatani hozirgi Baqtriya va Marg'iyona hududida bo'lganligi ta'kidlanadi. Ushbu gipoteza tarafdorlari ariylarning dastlabki kelib chiqishi yarim-ko'chmanchi madaniyatlardan ekanligini va keyinchalik ular g'arbga va sharqqa migratsiya qilishganligini ta'kidlashadi. Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK)dan olingan arxeologik ma'lumotlar yuqori rivojlangan sivilizatsiya mavjud bo'lganligini, va albatta bu esa ilk vedik madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi[3].

Qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, Lingvistik dalillar ham albatta ariylarning migratsiya yo'llarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Hind-yevropa tillar oilasiga mansub bo'lgan ariy tillari (masalan, vedik sanskrit) keng hududlarga tarqalgan bo'lib, Hindistondan Yevropagacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga oladi. Ko'pchilik lingvistlar, proto-hind-yevropa tilida so'zlashgan aholi dashtlardan kelib chiqqanligini va ariy tillarining sharqqa Hindistonga va g'arbga Yevropaga tarqalganligi tahmin qilishadi[4]. Undan tashqari, o'ziga jalb etuvchi lingvistik nazariyalardan biri — Mariya Gimbutas tomonidan taklif qilingan qo'rg'on ("kurgan") gipotezasidir. Unga ko'ra proto-hind-yevropaliklar, ya'ni ariylar Ponto-Kaspiy dashtlarida miloddan avvalgi 4000-yillarda shakllanganligi ta'kidlanadi. Ushbu

nazariya lingvistik ma'lumotlar hamda "qo'rg'on madaniyati" bilan bog'liq arxeologik topilmalar bilan birgalikda tasdiqlanadi hamda bu madaniyat boshqa ariy madaniyatlarida topilgan arxeologik dalillar bilan o'xshashligini ko'rsatadi[5].

Arxeologik dalillarga kelsak, zamonaviy tadqiqotlardan birida A.Shukla va S.Kumarlar miloddan avvalgi 3000-yillarda Ponto-Kaspiy dashtlarida mavjud bo'lgan Yamna madaniyati ariylarning migratsiyasining asosiy manbai ekanligini tahmin qilishadi. Yamnaliklar, taxminan, katta guruhlariga bo'linib migratsiya qilgan va o'zlarining genetik va madaniy xususiyatlarini Yevropa va Osiyoga yoygan chorvador ko'chmanchi aholi bo'lishgan. Ular qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlashdiki ya'ni, Ariylarning moddiy madaniyati, shu jumladan dafn marosimlari va sopol buyumlari, hind-yevropa tillarining, jumladan ariy tillarining tarqalish hududi bilan mos keladi[6].

Undan tashqari qo'shimcha ma'lumot sifatida aytish mumkinki, ba'zi olimlar fikrlariga ko'ra Sanskrit, fors va ko'pgina Yevropa tillarini o'z ichiga olgan Hind-Yevropa tillar oilasi ariylar haqidagi tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Lingvistik o'xshashliklar umumiy ajdodiy til bo'lgan Proto-Hind-Yevropa (PIE) tilining mavjudligini ko'rsatadi, bu til keyinchalik Yevroosiyo bo'ylab tarqalgan. Eng qadimgi hind-yevropa matnlari qatoriga kiruvchi Rigveda dastlabki ariy madaniyati va ularning Hindiston yarimoroliga migratsiyasi haqida ma'lumot beradi. Biroq, lingvistik dalillar yagona bo'lib, ularning aniq vatanini aniqlash uchun yetarli emas, bu esa ikki qarama-qarshi nazariyani keltirib chiqaradi: "Mahalliy Ariy" nazariyasi (ularning kelib chiqishi Janubiy Osiyo deb ta'kidalandi) va "Ko'chmanchi Ariy" nazariyasi (ularning boshlang'ich nuqtasi Markaziy Osiyo yoki Yevroosiyo dashtlari deb taxmin qilinadi) [7].

Natijalar va muhokama. Hozirgi kunda qadimgi DNK tahlili sohasidagi yutuqlar ariylarning migratsiyalari haqidagi tushunchamizni sezilarli darajada yaxshiladi. Yevroosiyo dashtlaridagi qadimgi aholi tahliliy tadqiqotlari ariy xalqlari va yamna madaniyatlarini o'rtasida aniq genetik aloqalarning mavjudligini ko'rsatdi. Amerikalik genetik olim Devid Rayx va hamkasblari (2018) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, yamna madaniyatlaridan kelgan genetik oqim, nafaqat yevropalik, balki janubiy osiyo xalqlarining genetik xilma-xilligiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini aniqladi. Ushbu genetik ma'lumotlar, ariylarning kelib chiqishi yevroosiyo dashtlari hududi ekanligi va u yerdan Hindistonga va Yevropaga migratsiya qilishdan oldingi davrda yuzaga kelganligi haqidagi gipotezani kuchli tarzda qo'llab-quvvatlaydi. Lingvistik va arxeologik dalillarga qo'shimcha ravishda, genetik tadqiqotlar ariylarning kelib chiqishini tushinishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Butun Yevropa va Janubiy Osiyodagi o'sha davr qabr qo'rg'onlari yohud qabrlardan olingan qadimgi DNK, dasht aholisi va keyingi hind-yevropa xalqlari o'rtasida aniq genetik aloqalarni ko'rsatdi. Devid Rayx va uning hamkasblari (2018) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar, ariy xalqlari migratsiyasi mahalliy xalqlar bilan sezilarli darajada genetik assimilyatsiya sodir bo'lganligini aniqladi, bu esa Hindiston va Yevropada o'z aksini topgan[8].

Rayx va uning hamkasblari (2021) olib borgan tadqiqotlarida ariy xalqlarining dashtlardan Hindistonga migratsiyasini qanday genetik yo'llar orqali kuzatish mumkinligini batafsil tushuntirdilar. Genetik ma'lumotlar nafaqat lingvistik bog'liqlikni tasdiqlaydi, balki ariylarning ular bilan aloqaga kirgan xalqlar genetik xilma-xilligiga qo'shgan muhim ta'sirini ham ko'rsatadi. Genetik tadqiqotlar, ariylarning kengroq migratsiya oqimining bir qismi bo'lganini, bu oqim esa ular ko'chib o'tgan hududlarga yangi madaniy va texnologik yutuqlarni olib kelganligini ko'rsatadi. Devid Rayx shuni ta'kidlaydiki, ya'ni Ariylarning lokalizatsiyasi haqidagi savol Hindiston va Yevroosiyo dashtlari o'rtasidagi oddiy ikki tomonlama munozaradan yanada murakkabroq tushunchaga o'tgan. Arxeologik, lingvistik va genetik ma'lumotlarni integratsiya qilish, bir nechta migratsiya to'liqlari, moddiy madaniyatning ta'siri va genetik almashinuvlar ariylarning shakllanishida muhim rol o'ynaganini ko'rsatuvchi yanada murakkab tasavvurga olib keladi. Hozirgi kunda Dasht gipotezasi hukmron bo'lishiga qaramay, Baqtriya-Marg'iyo gipotezasi

kabi nazariyalar, ariylarning ko'p qirrali kelib chiqishini tushinishda qo'shimcha perspektiva bo'lib xizmat qiladi [9] [10].

Mifologik manbalar esa Aryanlarning ma'naviy va madaniy amaliyotlarini yoritib, ularning protoyurtlariga oid ba'zi dalillarni taqdim etadi. Rigvedada ko'plab marosimlar (yajna) yoritilgan hamda va ot qurbonliklari haqida illustraliyalar mavjud, bo'lib bu amaliyotlar Sintrashta madaniyati bilan mos kelishini ko'plab olimlar ta'kidlab kelishadi. Bu madaniyat Miloddan avvalgi 2100–1800 yillarda Ural tog'ining janubiy qismlarida joylashgan bo'lib, uning o'sh davrga nisbatdan yuqori metallurgiyasi va jangovar aravalar texnologiyasi Proto-Hind-ariylarning vatanining ehtimoliy nomzodi sifatida ko'riladi. Qadimgi yozma manbalardan biri bo'lmish Avestada ham o't, maysa va tabiat elementlarini qadrlashga oid marosimlar ta'riflanadi, bu esa Ariylarning chorvachilik va ko'chmanchi hayot tarzini aks ettiradi. Ushbu amaliyotlar, ayniqsa, Yevroosiyo dashtlarida keng tarqalgan bo'lib, ularni Ariylar bilan bog'lash mumkin. Mifologik manbalar Ariylarning migratsiyalari va boshqa madaniyatlar bilan o'zaro ta'sirlarini ko'rsatadi. Misol uchun, Rigvedada "Dasyus" yoki "Dasa"lar bilan bo'lgan kurashlar eslatib o'tiladi, ular ko'pincha Hindiston hududining tub aholisi sifatida talqin qilinadi. Ushbu afsonalar, Ariylarning Janubiy Osiyoga shimoliy hududlarda ko'chganligini va migratsiya nazariyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Avesta shuningdek, Aryanlarning Airyanem Vaejahdan boshqa hududlarga, jumladan Eron va Shimoliy Hindistonga kengayishini tasvirlaydi. Ushbu mifologik nuqtai nazar, Indo-Ironiy tiliga asoslangan ko'chmanchilik va janubga bo'lgan migratsiyalarni tasdiqlovchi tilshunoslik va genetik dalillar bilan hamohang keladi.

Aryanlarning mifologik afsonalari ramzlar bilan boyitilgan bo'lib, ko'pincha ularning geografik va ekologik muhitini aks ettiradi. Masalan, Rigvedadagi daryolar va qishloq xo'jaligiga bo'lgan urg'u, shimoli-g'arbiy Hindistondagi unumdor tekisliklarda joylashishgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatsa, Avesta esa qattiq qishlar va chorvachilikka qaratilgan diqqat, dasht gipotezasini qo'llaydi.

"Aryavarta" va "Airyanem Vaejah" ning muqaddas yurt sifatida ko'rsatilishi, Ariylarning protoyurtlariga nisbatdan chuqur bog'liklarini hamda bu hududlarning madaniy va ruhiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mifologik tahlil, Ariylarning protoyurtini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi, ularning o'z-o'zini belgilash, geografik, madaniy marosimlari ularning protoyurtini va migratsiya yo'llarini aniqlashda muhimdir. Rigveda va Avesta Ariy qabilalarini manaviy, madaniy va ruhiy jihatdan birlashgan guruh sifatida tasvirlaydi hamda ularning vatani Yevroosiyo dashtlarida joylashganligiga oid ma'lumotlar taqdim etadi va keyinchalik ular Janubiy Osiyo va Eron hududlariga ko'chishganligi taxmin qilinadi. Garchi mifologik manbalar faqatgina Ariylarning kelib chiqishi haqidagi so'nggi xulosalarni taqdim eta olmasa-da, ular arxeologik, lingvistik va genetik tadqiqotlar bilan birgalikda, bu masalani yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ariylarning kelib chiqishi va lokalizatsiyasi masalasi yechimini topishda eng yaxshi yo'l bu ko'p yo'nalisli yondashuv orqali erishiladi, bu esa lingvistika, arxeologiya va genetik integratsiyasini o'z ichiga oladi. Garchi Dasht gipotezasi eng keng tarqalgan bo'lsa-da, Baqtriya-Marg'iyo gipotezasi kabi boshqa nazariyalar ariylarning kelib chiqishini tushinishda muhim jihat kasb etadi. Genetik tadqiqotlardagi zamonaviy yutuqlar, ayniqsa genetik DNK tahlili sohasidagi yutuqlar, ariylarning migratsiya yo'llari va davrlari haqida yangi tasavvurlar yaratadi, bu esa ularning kelib chiqishi yevroosiyo dashtlarida bo'lganligi haqidagi gipotezani haqiqatga yaqinligini ko'rsatadi hamda Hindiston va Yevropaga migratsiya qilishdan oldingi shakllanish davrini ko'rsatadi. Ushbu turli ma'lumotlarni integratsiya qilish ariylarning migratsiyalari va ular aloqaga kirishgan madaniyatlar hamda xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tushinishda yanada murakkab va o'zaro bog'liq tasavvur yaratadi.

Ariylarning lokalizatsiyasi murakkab va ko'p jihatli masala bo'lib qolmoqda. Lingvistik, arxeologik va genetik dalillar ularning Yevroosiyo dashtlaridan kelib chiqqanligini va Janubiy

Osiyo va Evropaga ko'chib o'tganligini ko'rsatsa-da, bu harakatlarning aniq tabiati hali ham bahs mavzusidir. Ariylar masalasi ko'p tarmoqli tadqiqotlarning ahamiyatini va tarixiy izlanishlarni siyosiy va ideologik ta'sirlardan ajratish zarurligini

ta'kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar, ayniqsa genetika va arxeologiya sohalarida, bu qadimiy tarixiy jumboqni yanada aniqlashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mallory, J. (2019). *The Aryans: Where Did They Come From?*. Oxford University Press.
2. Gimbutas, M. (2021). *The Kurgan Culture and the Indo-Europeans: A New Approach*. University of Chicago Press.
3. Thurgood, G. P., & Thompson, R. H. (2021). *The Aryan Homeland: Reconciling Linguistic, Archaeological, and Genetic Evidence*. Cambridge University Press.
4. Comrie, B. (2003). *The Indo-European Languages*. Routledge.
5. Gimbutas, M. (2021). *The Kurgan Culture and the Indo-Europeans: A New Approach*. University of Chicago Press.
6. Shukla, A., & Kumar, S. (2020). "The Steppe Migrations and Their Impact on Ancient India." *Journal of Archaeological Studies*, 39(4), 122-140.
7. Academia.edu. "The Origin of Aryans and Their Advance into India."
8. Academia.edu. "Aryans and the Indus Civilization: Archaeological, Skeletal, and Molecular Evidence."
9. Reich, D., Patterson, N., & Price, A. L. (2018). "The Genetic Legacy of the Aryans: Insights from Ancient DNA." *Nature*, 557(7704), 68-73.
10. Reich D (2021) A high-resolution picture of kinship practices in an Early Neolithic tomb. *Nature* 601, 584-7. (PDF / SUPPLEMENT / DOI:10.1038/s41586-021-04241-4 / PMID: 34937939 / PMCID: PMC8896835)
11. Bongard-Levin, T. M. & Grantovski, E. A. (1983). "От Скифии до Индии". Moskva: Mysl. (Russian)



Muzaffar SUVONKULOV,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: mirzoulugbeksoniy@mail.ru,

GulDPI dotsenti, PhD U.Mirzaliyev taqrizi asosida

SETTLEMENT AND ETHNIC COMPOSITION OF THE POPULATION IN THE JIZZAKH OASIS AT THE END OF THE 19TH CENTURY AND THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Annotation

The article highlights the Jizzakh oasis, its unparalleled role in the history of our people, the ethnic composition of its population, and its location in relation to the political, social, and economic processes that took place at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. This analysis is based on scientific hypotheses, archival documents, data collected by Russian military ethnographers, and facts provided in the population census books. The collected sources and archival documents were analyzed, revealing discrepancies, estimated figures, and incomplete data on the population of the oasis. All the sources were examined, and scientific solutions and conclusions were provided.

Key words: Jizzakh, Uzbek, Tajik, Russian, yuz, kirk, Turk, Kyrgyz-Kaysak.

РАЗМЕЩЕНИЕ И ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ НАСЕЛЕНИЯ В ДЖИЗАКСКОМ ОАЗИСЕ КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА

Аннотация

Статья освещает Джизакскую оазис, её уникальную роль в истории нашего народа, этнический состав её населения и расположение в контексте политических, социальных и экономических процессов, происходивших в конце XIX - начале XX века. Этот анализ основан на научных гипотезах, архивных документах, данных, собранных русскими военными этнографами, и фактах, приведённых в книгах учёта населения. При анализе собранных источников и архивных документов были выявлены расхождения, оценочные данные и неполные сведения о населении оазиса. Все источники были проанализированы, и предложены научные решения и выводы.

Ключевые слова: Джизак, узбек, таджик, русский, юз, кырк, тюрк, киргиз-кайсак.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHJARIDA JIZZAX VOHASIDA AHOLINING YERLASHISHI VA ETNIK TARKIBI

Annotatsiya

Maqolada Jizzax vohasi, uning xalqimiz tarixida tutgan beqiyos o'rni, aholisining etnik tarkibi va yerlashuvi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liqlikda kechganligi haqida ilmiy farazlar arxiv hujjatlari, rus harbiy-etnograflari to'plagan ma'lumotlar orqali hamda aholini ro'yxatga olish kitoblarida berilgan faktlar yordamida yoritilgan. To'plangan manbalar va arxiv hujjatlarini tahlil qilinganda ulardagi tafovutlar, tahminiy raqamlar va voha aholisi haqida to'liq berilmaganligi aniqlandi. Barcha manbalar tahlil qilinib ilmiy yechim va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jizzax, o'zbek, tojik, rus, yuz, qirq, turk, qirg'iz-qaysaq.

Kirish. O'zbekiston hududi geografik jihatdan tog'li, vodiy-vohali, daryoli, cho'lli va dengizli yerlarni o'zida mujassamlashtirgan takrorlanmas, jannatmakon diyori hisoblanadi. Shu sababdan ham yurtimizda eng qadimgi davrlardan buyon insoniyat istiqomat qilib kelmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz 12 viloyat va bitta muxtor jumhuriyatlardan tashkil topgan bo'lsa, ular ichida faqat Jizzax viloyati tom ma'noda yurtimizni ham geografik ham aholining etnik tarkibi jihatidan takrorlay oladigan yagona hudud hisoblanadi. E'tibor berib qarasa, Jizzax vohasi mamlakatimizni geografik jihatdan aynan takrorlaydi: tog' – Turkiston tog' tizmalari, vodiy-voha – Zarafshon va Jizzax vohalari, daryo – Sangzor daryosi, cho'l – Mirzacho'l (Галодный стень) va dengiz sifatida – Haydar-Amasoy ko'lini o'zida mujassamlashtirgan. Bunday geografik o'xshashlikni boshqa viloyatlarimizda deyarli kuzatmaymiz.

Aholining etnik tarkibi jihatidan ham shu holatni kuzatamiz. Ma'lumki mamlakatimiz aholisi tarkibiy jihatdan uch yirik turk qavmlari - o'g'uz, qarluq va qipchoq lahjalarida so'zlashuvchi aholilardan tashkil topgan bo'lib, bu jihat boshqa qardosh turkiy davlatlarda kuzatilmaydi. Deylik, Turkiya turklari, Ozorbayjon turklari o'g'uz va qipchoqlardan, Turkmaiston turklari o'g'uzlardan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tatariston, Boshqirdiston turklari qipchoqlardan, Uyg'ur-Shinjon turklari qarluqlardan tashkil topgan. Faqat mamlakatimiz aholisi etnik jihatdan juda ham boy va rang-barang hisoblanadi. Ushbu o'xshashlik ham faqat Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibida kuzatiladigan ajoyib jihat. Jizzax vohasi aholisi mana shu uch

yirik turk qavmlarini o'zida mujassamlashtirganligi bilan mamlakatimizni etnik jihatdan takrorlaydi. Shu sababdan Jizzax vohasini mamlakatimizning boy madaniyat o'chog'i deyaishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiq etayotgan davrimizda voha etnik jihatdan o'ziga xos murakkab jarayonlarni boshdan kechirayotgan edi. Rossiya imperiyasi bosqini, sho'rolar olib borgan jamoalashtirish siyosati voha aholisining to'liq o'troqlashish jarayonini yakunladi.

Bu davrda vohada qaysi o'zbek urug'lari, qardosh turkiy xalqlar va boshqa tilli xalqlar yashaganligini mahalliy olimlar, Buxoro amirligi qushbegisi arxiv hujjatlari, rus va ingliz harbiy-josuslari kundaliklari va O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari orqali o'rganamiz. Rossiya imperiyasi bosqini davrida, Sobiq Ittifoq davrida ham ko'plab rus tadqiqotchilari, shuningdek, o'zimizni mahalliy olimlarimizni tadqiqotlarida ham ko'plab ishlar qilindi va ilmiy asarlar yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek voha aholisi til jihatdan 3 guruhga bo'linadi:

1. O'g'uz lahjasida so'zlashuvchi turkman-juzlari;
2. Qarluq lahjasida so'zlashuvchi turk guruhi – barloslar va kaltatoylar;
3. Qipchoq lahjasida so'zlashuvchi ko'chmanchi o'zbek urug'lari.

Turkman-juzlari hozirgi Forish, Zomin tumanlarida istiqomat qilgan. Turk guruhi – barloslar va kaltatoylar Zomin, Baxmal, Yangiobod, Sharof Rashidov, Forish tumanlarida

yashagan. O'zbek urug'lari esa butun voha bo'yab keng tarqalgan bo'lib, ular ichida ko'p sonli yuz va qirq urug'lari

hisoblangan[1].

Rossiya imperiyasi tomonidan voha bosib olingach Jizzax uyezdi tashkil etildi va uyezd 20 ta volostga bo'lindi [2]:

1. Otaqo'rg'on.	6. Ko'ktepa.	11. Savruq.	16. Pistalitog'.
2. Bog'don.	7. Qo'rg'on'tepa.	12. Sentob.	17. Xatchamukur.
3. Zomin.	8. Naqrut.	13. O'zbek.	18. Chordara.
4. Qoratosh.	9. Rabot.	14. O'smat-qatortol.	19. Yom.
5. Qizilqum.	10. Sangzor.	15. Forish.	20. Yangiqo'rg'on.

Ushbu volostlar o'z navbatida qishloq va ovullarga bo'lingan. Ko'plab qishloq nomlari etnonim – urug' nomlari bilan atalgan.

Tahlil va natijalar. Jizzax uyezdining 6 volostida ko'chmanchi aholi, 14 volostida o'troq aholi yashaganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Ko'chmanchi aholi yashovchi volostlar 17 ovulga, o'troq aholi yashovchi volostlar 82 ta qishloqqa bo'lingan[2]. Ko'chmanchi aholining 85 foizi to'liq ko'chmanchi turmush tarsi bo'yicha istiqomat qilgan. Ularni ko'chib yurish yerlari hususiyatiga ko'ra - qishda yashash uchun "qishlov", bahorda - "ko'klov", yozda - "yaylov", kuzda - "kuzlov" deb nomlangan[2].

O'zbekiston FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi A.Bozorboyev Jizzax uyezdi aholisi haqidagi maqolasida voha aholisining soni haqida ko'plab manba va arxiv hujjatlarini qiyoslash asosida tahliliy fikrlar bildirgan[3]. Voha aholisini soni haqida etnografik tadqiqot olib borgan rus harbiylari, josus-tadqiqotchilari, elshunos olimlari turli xil yoki bir-biridan ko'chirgan ma'lumotlari orqali turlicha ma'lumotlar qoldirgan. O'zbekiston Milliy Arxivida saqlanayotgan I-21 jamg'arma, 1-ro'yxat, 300 [6], 301 [7], 303 [8], 304 [9], 306-yig'majildlarda [10] Jizzax uyezdining Sintob, Pistalitog', Ko'ktepa, Bog'don, Chordara volostlari aholisi uy xo'jaliklari soni va uy sohiblarining ism-shariflari ro'yxati tuzilgan. Bu hujjatlar aholining umumiy soni haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. I-1 jamg'arma, 16-ro'yxat, 564-yig'majildida esa 1872-1875 yillarda Jizzax Sirdaryo viloyati, Xo'jand uyezdidagi tuman bo'lganligi va Jizzax shahri hamda Bog'don, Garasha, Yangiqo'rg'on, Rabot, Sangzor, Sintob va Zomin oqsqolliklariga bo'lganligi qayd etilgan. Aholisini tarkibi qirg'izlar va sartlardan iborat deb ko'rsatilgan. Aholining umumiy soni: Jizzax shahri va atrofidagi qishloqlar bilan 7990, Bog'donda 6434, Garashada 6501, Yangiqo'rg'on 4985, Rabotda 5046, Sangzorda 2031, Sintobda 4674, Zominda 7010 ta deb qayd etilgan[11]. Shuningdek, aholini ro'yxatga olish kitoblari ham turlicha ma'lumotlar berilgan. Biz quyida aholining soni haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Jizzax uyezdi aholisini umumiy soni 103297 nafarni tashkil etgan va shulardan: o'zbeklar – 89520, tojiklar – 832, qizg'iz-qaysoqlar – 11438, ruslar – 1343, forslar – 33, armanlar – 42, boshqa xalqlar 89 nafarni tashkil etgan[2].

Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi haqida yaratilgan ilk statistik ma'lumot Turkiston general-gubernatorligining maxsus topshiriqlar bo'yicha amaldori M.Virskiy tomonidan tayyorlangan. M.Virskiy 1893-1912 yillar davomida Samarqand viloyati haqida yillik statistik ma'lumotlarni yuritib borgan. O'z ma'lumotlarida aholining soni, etnik tarkibi, erkaklar va ayollarni soni haqida ma'lumotlar berib o'tgan[4]. Ushbu yo'nalishdagi yana bir manba I.Zarubin ma'lumotlari hisoblanadi[5]. I.Zarubin aholini ro'yxatga olish kitobi ma'lumotlaridan foydalangan. Yuqoridagi manbalarda aholi soni har bir xo'jalikda bir xilda 5 kishi yashaydi, deb taxminan ko'rsatilgan. Ayollar soni o'rtacha 2 kishidan hisoblangan va umumiy hisobda ayollar soni erkaklardan kam, deb ko'rsatilgan. Shuningdek, Jizzax uyezdi volostlarining barchasida ham ro'yxatga olish ishlari to'liq olib borilmagani ham qayd etilgan[2].

O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan I-69 fond, 1-yig'ma jild, 64-ishda Jizzax uyezdining Ravot, Yangiqo'rg'on, Sangzor, O'smat, Savruq, Xatchamukur, Naqrut volostlari haqidagi ma'lumotlar kiritilgan. Unda aholining soni ko'rsatilmagan bo'lsa-da, aholining etnik tarkibi batafsil berilgan.

Vohada aholi xo'jalik hayoti xususiyatlaridan kelib chiqib yerlashganligini kuzatamiz. O'troq hayot kechirgan aholi shahar va qishloqlarga, ko'chmanchi hayot kechiruvchi aholi esa tog'li hududlarda yerlashgan. Yuqorida qayd etilganidek vohada o'zbek urug'laridan yuzlar eng ko'p sonli bo'lsa, keyingisi qirq urug'i

hisoblangan. Keyingi o'rinlarda boshqa o'zbek urug'lari joy olgan.

Yuz urug'ining tuyoqli, umar to'plari Ravot volostining Tog'mozor, Qambar, Sharob qishloqlarida, uyaz, solin, qirsadoq, qaropchi to'plari Yoyilma, So'loqli, Qirsadoq, Mulkalik qishloqlarida, solin, davlat, yobuchi, tuyoqli, qo'shtamg'ali to'plari Ravotlik, Qo'shbarmaq, Sayxon, Quduqcha, Xasangaba, Qurasan, Dul-dil, Ko'lankali, Zargar, Toqali, Qarapchi, Xayravolik, Qo'shtamg'ali, Tuyoqli, Uray, Olomon qishloqlarida yerlashgan. Shuningdek, yuz urug'ining bolg'ali, xitoyyuzi, quruqqozon, tuyoqli to'plari Yangiqo'rg'on volostining Xonaqo-bolg'ali, Yuqori-bolg'ali, Qizilqo'rg'on, Zargar, Novqa, Sang'irbulok, Marjonbulok qishloqlarida yerlashgan. Yuz urug'ining uyas, qaropchi, qo'shtamg'ali to'plari Savruq volostining Pastki chayonli, Chayonli, Qaropchi, Sayfun ota, Moybulok, Qaranqul qishloqlarida yashagan. Sangzor volostidagi qishloqlarda ham asosan yuzlar yerlashgan. Xitoyyuzi, xojabacha, qo'shtamg'ali, changakli, uyas, shodmonto'pi, eshto'pi, tog'ayto'pi, qirsadoq, davlay, qaropchi to'plari Mog'ol-qishloq, Xojabacha, Uyazqishloq, Mullabuloq, Sho'rtepa, Bibioysa, Katta jumjum, Kichkina jumjum, Bekkeldi, Shovshoq, Sanglox, Baxmal-qishloq, Ilonchi, Uyluqma, Boyqo'ng'ir, Tanga topdi, Dang'ara, Qorabuloq, Paloxmon qishloqlariga yerlashgan. Xatchamukur volostining Qipchoqsu, Qozonli, Tutbulok, Qayrag'ochli, Sassi, Navkaroch, Qo'rg'oncho'l qishloqlarida yuz urug'ining tuyoqli, xitoyyuzi, tig'iriq, uyas, solin, davlay to'plari yerlashgan. Eng ko'p yuz urug'i qishloqlari O'smat volostida joylashgan. O'smat volostining Ko'rbuloq, O'rta-qishloq, Jarbulok qishloqlarida changakli va uyas to'plari, Olomon, Uray, Oqtosh, Yumaloqbosh qishloqlarida tuyoqli, olomon, xitoyyuzi, yumaloqbosh to'plari yerlashgan. Mug'al, Chuvot, Govxona, Mirzaisog'i, Sho'rbuloq, Kalqishloq, Qoratosh, Sassiqli, Misirqishloq, Quduq, Jarariq, Do'smat, Yomonjar, Tegirmon, Qora-qursoq, Mullato'bi, Mamirboy, Sho'rbuloq, Bo'stonqul, Tangali, Uzunbulok, Maydabuloq, Xo'jamanzil, Qurmanzon qishloqlariga tuyoqli, uray, chuvot, yumaloqbosh, vaxtamg'ali, xitoyyuzi, changal, olomon, changakli, solin, uyas to'plari yerlashgan[1].

Qirq urug'i va uning to'plari – moltop, bekto'pi, nozli to'pi, tog'chura, sug'unboy, to'rvato'pi, uydamali, qorakursi, qoracha va qora qo'yilar Rovot volostining Ayritom, Nonsangin, Ardaxshon, Qurbaqali, Sho'rcha, Tutoq qishloqlariga yerlashgan. O'zbek volostining Qo'shbarmaq, Sharilloq, Haramza, Qorasoy qishloqlarida qirq urug'ining kuyabosh, chumushli to'plari yashagan. Yangiqo'rg'on volostining Yangiqo'rg'on, Sarbozor, Moltop, Oymavut, Baxmalbulok, Gulqishloq, Qashqabuloq, Olmasuvon, Katta yarg'oq, Uzunbulok, Sug'unboy, Yuvoish, Gadoyqishloq, Cho'loq, Uzumbuloq, Zambar, Avliyo, Yang'ichoqli, Mullabuloq, Koriz, Kutal, Gumsoy, Xobdun ota, Chaqabuloq, Olmali, Saroybulok, Kichkina bulok qishloqlarida ham qirq urug'i to'plari yerlashgan. Savruq volostining Savruq, Olmasuvon, Bosh qora quduq, Ikkinchi qora quduq, Ravot, Soyliq, Uzunqishloq, Ingichka, O'gat, Arishli, Katta charvoq, Ustuxon, Omondara, G'ozg'on, Quvaqiya, So'luxli, Beshbulok, Qoraqiya, Sarimsoqli, Elomon qishloqlarida, Sangzor volostining Qirq-qishloq qishlog'ida, Xatchamukur volostining Mukur qishlog'ida ham qirq urug'i vakillari yashagan[1].

Turk urug'i asosan tog'li hududlarda yerlashgan. Eng ko'p turk qishloqlari Ravot volostining Ko'rupa, Uob (aholining yarmini tojiklar tashkil etadi), Quduqcha qishloqlarida, Xatchamukur volostining Turk qishlog'ida, O'smat volostining Turk, Balandqishloq, Lattaband, Barlos qishloqlarida, Zomin volostining Beshbulok qishlog'ida, Sangzor volostining Barlosqishloq, Naqrut volostining Rozmas qishloqlarida turk urug'i – barloslar va kaltatoylar yerlashgan[1].

Qang'li urug'i kam sonli bo'lib, Ravot volostining Qo'shtol, Laylakuya qishloqlarida, Yangiqo'rg'on volostining Qang'li, Qang'li-1, Qang'li-2, Sassi, Tutli, O'rtaqishloq, Kattayarg'oq qishloqlarida yerlashgan[1].

Turkman urug'ining bo'gajili, qonjig'ali, oytamg'ali to'plari naqrut volostini to'liq egallagan. O'rda, Naqrut, Garasha, Ilonli, Qorabdol, Sog'ishmon jamoalaridagi qishloqlarga yerlashgan. Xatchamukur volostining Jarbuloq va Qizilbuloq jamoalarida Turkman urug'ining taka va takayovmud to'plari yerlashgan. Savruq volostining Qilichmozor qishlog'ida oytamg'ali to'pi, Qoratosh, Qashqa qishloqlarida qiyqim to'pi, Kichi-chorvoq qishlog'ida oytamg'ali to'pi, Itburboy qishlog'ida sari-turkman to'pi yerlashgan[1].

Mang'it, saroy kabi kam sonli urug'lar ayrim qishloqlarda yerlashgan. Mang'itlar Savruq volostining Narvon qishlog'ida, Saroy urug'i Yangiqo'rg'on volostining Novqasaroy, Saroybuloq (keyinchalik bu yerga qirg urug'ining moltop to'pi yerlashgan. Qishloq nomi o'zgarmagan), O'smat volostining Saroy qishloqlariga yerlashgan[1].

Naymanlar Yangiqo'rg'on volostining Yangiqo'rg'on, Qizilqo'rg'on, Beshbola, Nayman, Qarang-qul, Zomin volostining Nayman qishloqlariga yerlashgan[1].

Qipchoq urug'i ham kam sonli bo'lib, O'zbek volostining Qipchoq qishlog'iga yerlashgan[1].

Jizzax vohasida shuningdek, qadimdan qardosh qirg'iz xalqi va fors-tojik xalqlari ham yashab kelgan. Mahalliy aholi ularni yashash manzillarini eroni, tojik qishloq kabi nomlar bilan atab kelgan. Qirg'izlar tog'-yaylovlarida ko'chmanchi hayot kechirgan bo'lsa, fors-tojiklar shaharlarga yerlashgan.

Vohada qirg'izlarning avay, xutika, manak, qutali, surinchak, chektamg'a, chopon urug'lari yashagan. Ushbu urug'lar Zomin volostining tog'li yerlariga, Sangzor volostining Shaybek, Toshkesgan, Jadik, Shildir, Galdraut, Qoramozor, Oqmulla, Guralash, Qorasu-qishloq, Ko'kjar qishloqlariga yerlashgan[1].

Baxrin urug'i Forish volostida, mitan va jaloyir urug'lari Sentob volostida, burkut urug'i Nurota tog'ining shimoliy etaklarida, kerait urug'i Savruq volostida yerlashgan[2].

Tojiklar Jizzax shahridan tashqari O'zbek volostining Saroylik, Uchtol, Oqqo'rg'onlik qishloqlarida, Sangzor

volostining Qorashaqshaq qishlog'ida, xalq orasida eroni deb ataluvchi guruh ham Jizzax shahridan tashqari O'zbek volostining Eroni qishlog'ida yashagan. Qishloqlarga tojiklar Jizzax va O'rtepa shaharlaridan ko'chib kelgan[1].

Jizzax Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, vohada rus qishloqlari ham yuzaga kela boshladi. Arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlarda belorus, ukrain xalqlari ham ummiy rus millati sifatida berilgan. Rus qishloqlari va mahallalari dastlab Jizzax shahri va temiryo'l stansiyalari atroflarida tashkil etilgan[2]. Arxiv hujjatlarida Jizzax atrofida 70 xo'jalikdan va 897 nafar aholidan iborat qishloq tashkil etilganligi, Tolmachevo fermer xo'jaligi tuzilganligi qayd etilgan[12]. Jizzax vohasiga, umuman Jumhuriyatimizning boshqa tumanlariga keying davrlarda rus xalqining ko'chirilishi, rus qishloqlarining tashkil etilishi soni oshib bordi. Ruslar bilan birgalikda arman millatiga mansub xalqlar ham kirib keldi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mazkur davr vohaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Avvalo, uzoq vaqtlar davomida Turkiston o'lkasi bo'ylab ko'chib yurgan chorvador aholining vohada o'troqlashish jarayoni yakunlandi. Aholining o'troqlashishi jarayonida yangi qishloqlar, ovullar, aholi yashash maskanlari vujudga keldi. Rossiya imperiyasi tomonidan vohaning bir qizmi bo'lgan Mirzacho'l – Murzarabot (Голодной стери)ni o'zlashtirish ishlari boshlanishi bilan nafaqat rus xalqining, balki mahalliy aholining ham migratsiyasi sodir bo'ldi. Cho'l hududida mahalliy aholi qishloqlari tashkil etilib, ular yerlashgan urug'lar nomi bilan nomlandi. Ovro'pa xalqlari ko'chib kelishi natijasida aholining etnik tarkibi ham boyidi. Shaharlarda, temir yo'l stansiyalari yaqinida rus qishloqlari tashkil etildi. Rus va boshqa ovro'palik xalqlarning ko'chib kelishi voha aholisining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Ushbu davr voha aholisini etnik tarkibi, yerlashish geografiyasini tadqiq etishda arxiv manbalarini, aholini ro'yxatga olish kitoblarini hamda rus harbiy-etnograflarini ma'lumotlarini taqqoslash, chuqur tahlil qilish, qolaversa dala-etnografik so'rovnomalarni o'tkazish orqali o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, ular o'rtasidagi tafvutlar, noaniqliklar va tahminlar talaygina.

ADABIYOTLAR

1. Фонд И-69. Опись 1. дело 64. Гос.Ар.ПУз. ст. 44-52
2. Материалы Всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Часть 1. Поселенные итоги. Выпуск 4. Поселенные итоги Самаркандской области., Ташкент. Издания ЦСУ Туркестанской Республики., 1926. ст. 1-17
3. A.Bozorboyev. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax uyezdi aholisi: statistic va arxiv manbalarining qiyosiy tahlili // Ilmiy-tahliliy axborot. 2015. 4-son. 21-24 betlar
4. Вирский М. Справочная книжка Самаркандской области на 1894 год. Выпуск 2, Самарканд 1894. Ст. 300
5. Зарубин И.И. Население Самаркандской области. Его численность, этнографический состав и территориальное распределение (по материалам сельско-хозяйственной переписи 1917 г., дополненной другими источниками). Л., 1926. Ст. 7-8
6. Фонд И-21. Опись 1. Дело 300. Нац. Ар.ПУз.
7. Фонд И-21. Опись 1. Дело 301. Нац. Ар.ПУз.
8. Фонд И-21. Опись 1. Дело 303. Нац. Ар.ПУз.
9. Фонд И-21. Опись 1. Дело 304. Нац. Ар.ПУз.
10. Фонд И-21. Опись 1. Дело 306. Нац. Ар.ПУз.
11. Фонд И-1. Опись 16. Дело 564. Нац.Ар.ПУз. ст. 130-155
12. Фонд И-1. Опись 16. Дело 4. Нац.Ар.ПУз. ст. 1-9



Jasur TURDIYEV,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: jasurturdiyev46@gmail.com

NamMQI dotsenti, f.f.n N.Shaydullayev taqrizi asosida

SOPOLLI MADANIYATI ANTROPOLOGIK TADQIQOTLAR TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sopolli madaniyati yodgorliklarida mustaqillikkacha hamda mustaqillikdan keyingi yillarda mahalliy, O'zbek-Olmon, O'zbek-Fransuz xalqaro ekspeditsiyalari tomonidan o'tkazilgan arxeologik dala tadqiqotlar ishlari natijasida topilgan paleoantropologik manbalarni tadqiq qilish jarayonida aniqlangan ularning etnik, jismoniy va biologik xususiyatlari, skeletdagi kasalliklar, aholi turmush darajasi, paleodemografiyasi, qabrlar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tarixi va ularda qo'llanilgan antropologik usullar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kraniologiya, ostemiyelit, paleoantropologiya, osteometriya, osteoporoz, irq, katakomba, dolixokran, jinsiy dimorfizm, anomaliya, osteologiya.

HISTORY OF ANTHROPOLOGICAL RESEARCH ON SAPALLI CULTURE

Annotation

This article describes the ethnic, physical and biological characteristics, skeletal diseases, standard of living of the population, paleodemography, the history of research on graves, and the anthropological methods used in them, determined during the study of paleoanthropological sources found in the monuments of the Sapalli culture as a result of archaeological field research conducted by local, Uzbek-German, and Uzbek-French international expeditions in the years before and after independence.

Key words: Craniology, ostemielitis, Paleoanthropology, osteometry, osteoporosis, race, catacomb, dolichocran, sexual dimorphism, anomaly, osteology.

ИСТОРИЯ АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ КУЛЬТУРА САПАЛЛИ

Аннотация

В статье рассматриваются этнические, физические и биологические особенности населения культуры Сапалли, а также костные останки, которые были выявлены в ходе изучения палеоантропологических источников, обнаруженных в памятниках культуры Сапалли в результате полевых археологических исследований, проведенных местными, Узбекско-германские и узбекско-французские международные экспедиции в годы до и после независимости. Описана история исследований болезней, уровня жизни, палеодемографии и антропологические методы, использованные в них.

Ключевые слова: Краниология, остемиелит, палеоантропология, остеометрия, остеопороз, раса, катакомбы, долихокран, половой диморфизм, аномалия, остеология.]

Kirish. Shimoliy Baqtriya hududida eramizdan avvalgi 2-ming yillikning dastlabki choragida yangi sivilizatsiya o'choqlaridan biri paydo bo'ladi. Baqtriyaning bronza davri aholining o'troq urbanistik xususiyatlarini o'zida namoyon etuvchi mazkur madaniyat A.Asqarov[2] tomonidan Sopolli madaniyati nomi bilan fanga kiritilib, olim tomonidan Sopolli aholisini o'troq turmush tarzida yashovchi sun'iy sug'orma dehqonchilikka asoslangan jamoa vakillari ekanligi ko'rsatilib, ular tomonidan yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega manzilgohlar o'rganilgan. T.Shirinov[4] Jarqo'ton yodgorligi asosida qadimgi shaharozlik madaniyati belgilari mavjudligini aniqlagan bo'lsa, arxeolog Sh.Shaydullayev[18] Sopolli madaniyati yodgorliklarida olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda, o'zbek davlarchiligi belgilarining ilk paydo bo'lishini bronza davri yodgorliklari bilan bog'laydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sopolli madaniyatining qabr va dafn marosim masalalari ko'pgina arxeolog olimlar tomonidan o'rganilgan. Ulardan B.Abdullayev, V.Ionesov, N.Avanesova, M.Tauffer kabilar qabriston qismidan ko'pgina qabrlar ochib, ularni ilmiy-arxeologik nuqtai-nazardan tadqiq etdilar. Qo'lga kiritilgan paleoantropologik manbalarni esa antropolog olimlardan Y.Zezenkova, T.Xodjayov, X.Xalilov, S.Mustafayulov, X.Sarmiento-Bendezu kabilar turli antropologik usullar yordamida tadqiq etdilar.

Ma'lumki, Sopollitepa yodgorligi bronza davri me'morchiligining nodir durdonasi sanalib, o'zida to'liq geometrik modullashgan belgilarni namoyon etib, 82x82 metr o'lchamga ega inshoot sanaladi. Manzilgoh 1968-yilda aniqlangan va O'zbekiston Fanlar Akademiyasi arxeologiya instituti tomonidan 1969-yildan 1974-yilgacha akademik, arxeolog

A.Asqarov tomonidan to'liq o'rganilgan[2]. A.Asqarovning ta'kidlashicha, Sopollitepa aholisi bir qancha katta patriarxal oilalardan tashkil topgan qarindoshlikka asoslangan patriarxal boshqaruvidagi qabila jamoasidir[1].

Yodgorlikning qabrlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Sopollitepada vafot etganlar alohida qabristonga emas, balki yodgorlik me'moriy qismiga dafn etilgan. Sopollitepaning 1-29 qabrlari skeletlarining yoshi va jinsini antropolog V.Y.Zezenkova, 30-138 qabrlar skeletlari haqida ma'lumotlar esa T.K.Xodjayov tomonidan aniqlangan, antropologik taxlil qilingan. Deyarli barcha qabrlar yaxshi holatda saqlangan bo'lib, ko'pchilik qabrlarga turli xil qimmatli buyumlar qo'yilgan. Buyumlarning katta qismi sopol buyumlaridan tashkil topgan. Qabrlarda metal, tosh, teri, yog'och, somon va qamishdan yasalgan buyumlar uchraydi[1].

Tuzilishiga ko'ra qabrlar, yorma(podboy), katakomba(ayvonli lahad) va chuqur-o'ra(yama) turdagi qabrlar mavjud. Shuningdek, ba'zi vafot etganlar katta idishlarga hamda devor ichiga dafn etilgan. Yosh bolalar qabrlari katta yoshdagi odamlar qabridan kuzatuv buyumlarning bo'lmisligi va ularning boshi doim bir yo'nalishga qaratilmaganligi bilan farq qiladi[1, b. 42].

Yodgorlikni qazish davomida jami 138 ta qabr(147 dona skelet) ochilgan bo'lib, shulardan 125 ta qabrga bir nafardan odam dafn etilgan bo'lsa, 13 tasi jamoaviy qabrlar hisoblanadi. Dafn etilganlarning 104 tasi katta yoshdagi, 7 tasi o'spirin, 47 nafari 10 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etadi. 4 dona qabrga faqatgina hayvon suyaklari qo'yilgan va 6 ta qabr kenotaf qabrlardir. 90 % dan ortiq qabrlar juda yaxshi saqlangan, jasad skeletlari anatomik to'g'ri saqlangan. Faqatgina 4 dona qabr (38, 75, 121, 134)da anatomik holat buzilgan[2].

Suyakdagi kasalliklarni tekshirish davomida 157 ta skeletdan kam sonli suyak kasalliklarini aniqlanishi, Sopollitepa aholisida suyak bilan bog'liq xastaliklar nisbatan kam bo'lganini ko'rsatadi [13, b. 95]. Shuningdek, sopollitepaliklar demografik holati ham o'rganilgan. Paleodemografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Sopollitepa aholisi o'rtasida tug'ilish soni kam bo'lgan. Umumiy Sopollitepa aholisi o'rtacha yashash davri 22,9 yilni tashkil etgan. Shundan, o'rtacha umr ko'rish erkaklarda 35, ayollarda 34 yoshni tashkil etgan [13]. Sopollitepada yosh bolalar o'limi (37%), Jarqo'tonda 28,5 % ni tashkil etadi. Bu degani har uch yosh boladan biri vafot etganini ko'rsatadi [8].

Yuqorida bayon etilganidek, 70-yillar boshida Sopollitepa paleoantropologik manbalari antropolog T.Xodjayov tomonidan to'liq jismoniy va biologik xususiyatlari o'rganildi. Albatta, Sopollitepa antropologik manbalari mintqa etnik va etno-genetik munosabatlaridagi jumboqlarni hal qilishda o'ziga xos ahamiyatga ega, ammo bu katta hududni egallagan qadimgi Baqtriya, qolaversa, Markaziy Osiyo hududi bronza davri aholisi bilan bog'liq o'z yechimini kutayotgan savollarga to'liq javob bera olmasligi tayin. Bu borada qadimgi Bo'stonsoyning chap qirg'og'ida joylashgan Jarqo'ton yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati kattadir. Yodgorlik 100 gektar maydondan ortiq hududni egallaydi. Yodgorlik 1973-yilning bahorida Sh.Pidayev va V.Pilipko tomonidan topiladi. Manzilgoh 1973-yilda akademik A.Asqarov tomonidan ilk marotaba o'rganila boshlangan. 1974-yilga kelib A.Asqarov qadimgi Bo'stonsoyning chap qirg'og'idagi Bo'ston 1, 2, 3, 5 qabristonlari va Bo'ston 4 manzilgohini topdi. Shunday qilib, SHERobod vohasida markazi Sopollitepa bo'lgan O'lanbuloqsoy va markaziy manzilgohi Jarqo'ton bo'lgan Bo'stonsoy yodgorliklar majmui topildi [2].

Natijalar va muhokama. 1973-1977 – yillar davomida olib borilgan qazishmalarda 719 ta qabrdan 673 ta skelet topilgan. Ammo osteometrik o'lchov uchun ta'mirlanib yaroqli holga keltirilgan faqatgina 104 ta induvid ustida o'lchov amaliyotlari o'tkazish imkoni bo'ldi. Shulardan 53 tasi erkak, 51 tasi ayol skeletlaridir [14]. 70-yillar oxirida topilgan moddiy manbalar izchil taxliliga asoslanib, so'nggi Jarqo'ton bosqichi Ko'zali va Molali bosqichlariga ajratildi. Topilgan qabrlar ham stratigrafik jihatdan Jarqo'ton, Ko'zali va Molali bosqichlariga ajratiladi [5].

Yuqoridagi dalillar asosida Jarqo'ton yodgorligi qabriston qismi 3 ta xronologik bosqichlarga ajratildi va ularning moddiy topilmalari hamda dafn etish odatlariga ko'ra, qabrlarni Sopolli madaniyatining yuqoridagi 3 ta bosqichiga tegishliligi aniqlanadi [3].

1973-1977-yillarda ochilgan Jarqo'ton 4A qabristoni skeletlari T.Xodjayov va X.Xalilov tomonidan o'rganilib, jarqo'tonliklarning O'rtayer dengizi irqiga oidligi aniqlangan. Skeletlarning yoshini va jinsini aniqlashda "X-kvadrat" [12] usulidan foydalanildi. Olib borilgan tadqiqot davomida Jarqo'ton qabristoni kraniologik manbalari Markaziy Osiyoning turli hududlaridan topilgan paleoantropologik manbalar bilan taqqoslandi: Xarappa, Timargarxa, Sarayxola, Tepe-Gissar, Sialk, Xasanlu, Al-Ubayd, Iyerixon (Tell-As-Sultan), Bibl, Ras-Shamra, Minet-El-Beyda, Karatash, Lchashen, Samtavro, Ginchi, Xryashevko va Yagodno (Srub madaniyati), Qozog'iston hududi Andronovo madaniyati, Ko'kcha-3, Kara-depe, Altin-depe, Geoksur, Ilk Tulxor, Tigrovaya Balka va Makoni-Mor, Sopollitepa [8].

Keyingi yillarda, ya'ni 1882-yillardan 90-yillar boshiga qadar Jarqo'ton yodgorligida V.Ionesov tomonidan ko'plab qabrlar ochiladi va paleoantropologik manbalar S.Mustafakulov tomonidan o'rganiladi. Xususan, 1982-yildan 1986-yilgacha Jarqo'ton 4V qabristonidan umumiy 128 ta qabr ochilgan. 1987-yilda Jarqo'ton 4V hududida 62 ta qabr (№129-190-qabrlar) topildi. Shulardan 24 tasi yorma, 8 tasi chuqur(yama) shaklidagi qabrlardir. Antropologik tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, 28 skelet balog'at yoshdagilarga, 3 ta o'spirin va 2 tasi yosh bolalarga tegishli. [10, b. 8]. Xullas, mustaqillikkacha bo'lgan davrda Jarqo'tonning 22 hududidan qabr aniqlangan. Shu bois topografik va xronologik xususiyatiga ko'ra ushbu hududlar ikkiga ajratildi: manzilgoh ichidagi qabristonlar(4, 5, 12-tepaliklar) va alohida ajratilgan qabristonlar (Jarqo'ton 1, 2, 3A, 3B, 3V, 3G, 3D, 3E, 3J, 3Z, 3I, 3K, 4A, 4B, 4V, 4G, 5, 6, 7). Manzilgoh ya'ni turar-joy

hududlaridan 70 dan ortiq qabrlar topilgan. Jarqo'ton ishlab chiqarish va diniy obyektlaridan qabrlar topilmagan. Jarqo'ton 4A qabristoni 1974-1977-yillar, Jarqo'ton 4V 1985-1988-yillar davomida to'liq ochildi. 1988-1990-yillar qazishma ishlari Jarqo'ton 1, 2, 3A, 3B, 3D, 3E, 4B, 5, 6, 7 hududida olib borildi.

1993-yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti bilan Germaniya Arxeologiya markazi o'rtasida ilmiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida Surxondaryo viloyati hududida arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi [15]. 1994-yildan boshlab Jarqo'ton yodgorligida O'zbek-Olmon xalqaro ekspeditsiyasi arxeologik tadqiqot ishlarini boshladi. 1995-yilda ekspeditsiya Jarqo'ton yodgorligining ark, ibodatxona, 4, 8-tepaliklarida va Jarqo'ton 3 qabristoni hududlarida qazishma ishlarini amalga oshirib, Jarqo'ton 3 qabristonidan 5 ta qabr ochildi.

1996-yilda ham yodgorlikning boshqa qismlari bilan bir qatorda Jarqo'ton 3 qabristoni va 4-tepalikda qazishma ishlari olib borildi. Jarqo'ton 3 qabrlari nemis arxeologi M.Toyfer tomonidan ochilib, turli saqlanish holatidagi 16 ta qabr topildi. Qabrlar Jarqo'ton yodgorligining barcha davrlariga oid ekanligi aniqlangan. 4-tepalik me'moriy qismidan 3 ta qabr topiladi.

Umuman olib qaraganda, O'zbek-Olmon ekspeditsiyasi asosan e'tiborni yodgorlik topografik xususiyati va me'moriy qismlari ayniqsa, ibodatxonaga qaratib, arxeologik tadqiqotlar doirasida cheklanadi. To'g'ri, 1995-2000 yillar O'zbek-Olmon ekspeditsiyasi davomida Jarqo'ton 3 qabristonidan 64 ta qabr ochildi, ammo mazkur qabrlarga faqatgina arxeologik yondashilib, paleoantropologik manbalar yetarlicha o'rganilmasdan, skeletlarning faqatgina jinsi va qisman yoshini aniqlash bilan cheklanadi.

2007-yida O'zbek-Fransuz xalqaro qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi Jarqo'ton yodgorligi qabriston qismida tadqiqot ishlarini boshladi va ayni shu yili Jarqo'ton 3 qabristonida 10 ta qabr ochildi. O'zbek-Fransuz ekspeditsiyasida qabrlarni qazishda 2x2 metr o'lchamli subkvadratli mikrostratigrafiya usuli qo'llaniladi [11]. Keyingi mavsumda yana 15 ta qabr (№1006-1021 qabrlar) ochildi [20]. 2007-2008 yillar topilgan paleoantropologik manbalar J.Bendezu-Sarmiento va M.Cervel tomonidan o'rganilgan. Skeletlarni jinsini aniqlashda Bruzek, Ubelaker, Morres va DPS usullaridan foydalanilgan. Shmitt usulidan esa skeletlarni yoshini aniqlashda foydalanilgan. Jinsni aniqlashda o'lchovga yaroqsiz skeletlarni esa suyaklarni hali to'liq rivojlanmaganlik xususiyatiga tayanib Scheur va Blek metodlaridan foydalanilgan (№ 1008-qabr). Jarqo'ton yodgorligidagi mazkur ikki davlat o'rtasidagi xalqaro tadqiqot so'nggi marta 2023-yili o'tkazildi. O'n yil muddatli tanaffuzdan so'ng Jarqo'ton 3 qabristoni hududida ekspeditsiya tomonidan 1-shurfini materikkacha qazildi, hamda ushbu qazishma mavsumida maqola muallifi J. Turdiyev ham ishtirok etdi. Iyun oyida boshlangan qadqiqot davomida Jarqo'ton №3 (nekropol 3) tepaligidagi shurf № 1 qazishmasida 5 ta qabr(1071-1075) ochildi. Jarqo'ton yodgorligi janubiy yo'nalishi bo'ylab joylashgan Bo'ston yodgorliklari majmuasining bronza davri aholi turmush tarzini rekonstruksiya qilishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, qabriston qism sanalgan Bo'ston 6 Sopolli eramizdan avvalgi 2-ming yillikning ikkinchi yarmiga oiddir. Yodgorlikda 1990-yildan 2008-yilga qadar 14 dala qazishma mavsumi o'tkazilib, 6176 m kv maydonda arxeologik amaliyotlar o'tkazilgan. Qabristondagi qabrlar asosan podboy(yorma) usulda qazilgan. Tadqiqotlar davomida 500 dan ortiq turli saqlanish holatidagi imgumatsiya, yoqilgan, ramziy, soxta va kenotaf qabrlar, shuningdek, 8 ta yarim yerosti ko'rinishida xom g'ishtdan qurilgan krematsiya qurilmalari, 9 ta marosim uchun mo'ljallangan maydonlar, altar va gulxan qoldiqlari topildi.


Xulosa. Sopolli madaniyati yodgorliklari – Sopollitepa, Jarqo'ton va Bo'ston paleoantropologik manbalari 70-yillar boshidan buyon tanaffuslar bilan hozirga qabar o'rganilib kelinmoqda. Mazkur manbalar Markaziy Osiyo bronza davri aholisi etnik masalalarini, tashqi qiyofa, demografiya, dafn marosimlari, aholining jismoniy va biologik xususiyatlarini, tibbiy belgilarini, migratsion jarayonlarning dinamikasini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo shu kunga qadar o'tkazilgan tadqiqotlarda inson induvidi qoldiqlari faqatgina o'lchovlarga asoslanib, ularning asosan irqiy mansubligi va

taksonomik belgilariga urg'u berilgan bo'lib, bronza davri aholisining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning tabiat, atrof-muhit, landshaft, inson faktori va uning moddiy ashyolar bilan bog'liqliligi, kunlik oziq-ovqat ratsioni, kasalliklari va jarohatlar asosida aholi hayot tarzini rekonstruktsiya qilinishiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Kelgusi tadqiqotlarda esa mazkur madaniyat paleoantropologik manbalarini ham o'lchov usullari asosida, hamda biologik xususiyatlarini yangi laboratoriya taxlillari: izotop, DNK, C14 kabilar asosida o'rnatishga e'tibor qaratilishi,

qolaversa, hozirgi davrdagi Sopolli madaniyati hududida istiqomat qiluvchi aholini tashqi qiyofasini antropologik manbalar bilan taqqoslash orqali ham tadqiqot olib borish, skelet topilmalarini faqatgina jismoniy-tibbiy holatiga o'rganib emas, balki ularni yurtimiz tarixi, arxeologiya sohasiga muvofiqlashtirish, o'tmishdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, aholi kundalik turmush tarzi kabi masalalardagi muammolarni yechishga xizmat qilishini ta'minlashdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Аскарлов А. А. Сапаллитепа. – Ташкент, 1973
2. Аскарлов А. А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977.
3. Аскарлов А. А., Абдуллаев Б. Н. Джаркутан. Ташкент. «Фан». 1983.
4. Аскарлов А., Широных Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. -Самарканд. 1993.
5. Абдуллаев Б. Могильник Джаркутан. — ИМКУ, вып. 15, -Т., 1979.
6. Алексеев В.П., Дебец Г.Ф. Краниометрия. Методика антропологических исследований. -М. 1964.
7. Алексеев В.П. Остеометрия. Методика антропологических исследований. -М. 1966.
8. Алексеев В. П., Ходжайов Т., Халилов Х. Население верховьев Амударьи по данным палеоантропологии. -Т.,1984.
9. Зубов. А.А. Одонтология. Методика антропологических исследований, -М., 1968.
10. Ионесов В. И. Некоторые данные о могильнике Джаркутан-4В. ИМКУ. вып 24. 1990.
11. Мустафулов С, Х. Бендесу-Сармиенто, А. Мухаммадиев, Ж. Люлье, Э. Люно. Отчет о проведении полевых исследований международной археологической экспедиции на памятнике Джаркутан в 2007 году. -Т., 2007.
12. Рокицкий П.Ф. Биологическая статистика, Минск, 1967.
13. Ходжайов Т.К. Антропологический состав населения эпохи бронзы Сапаллитепа. – Т., 1977.
14. Халилов Х. Материалы к остеологической характеристике населения ИМКУ. вып. 15. Ташкент. 1979.



1-rasm. Ayol bosh suyagi. 76-qabr.
(Ходжайов Т.К. Антропологический состав населения эпохи бронзы Сапаллитепа. – Т., 1977.)



2-rasm. Jarqo'ton 3 qabristoni. 1072-qabr. 2023-yilgi qazishma.
(Sh. Shaydullayev, J.Lhuiller. O'zbekiston - Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining 2023-yilda Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Jarqo'ton yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar hisoboti. Termiz. 2024.)



Shaxloxon XUSANOVA,
Qo'qon universiteti Andijon filiali, PhD
E-mail: shahlohusanova4@gmail.com

AQXAI dotsenti M.Karimova taqrizi asosida

**QADIMGI MINGTEPA MAROSIMLARI HAQIDA (ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANI MINGTEPA
ARXEOLOGIYA YODGORLIGIDAN TOPILGAN ARXEOLOGIK TOPILMALAR ASOSIDA)**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg'ona vodiysida qadimiy milliy marosimlari, urf odatlari va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada Farg'ona vodiysi antik shaharlaridan biri Mingtepa shahri tarixi va O'zbekiston tarixini yoritishda o'ziga xos o'ringa ega ekanligi haqida fikrlar ham bildirilgan. Mingtepa (Ershi) arxeologiya yodgorligidan topilgan moddiy ashyolar orqali qadimiy ajdodlarimizning urf-odatlari, diniy va milliy marosimlari haqida, ushbu marosimlarning vodiy axolisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Qadimgi Farg'ona (Davan, Day-yuan) davlati, Mingtepa shahri, G'arbiy Xan davlati, Sima Syan, "Tarixiy xotiralar" asari, Aravon qoyatosh suratları, Mingtepa shahridan topilgan moddiy ashyolar, Zardushtiylik, "Sariq ajdar hamlasi" tarixiy romani, "Kizquvdi" marosimi.

**О ДРЕВНИХ ЦЕРЕМОНИЯХ МЫНГТЕПА (НА ОСНОВЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ НАХОДОК, НАЙДЕННЫХ В
АРХЕОЛОГИЧЕСКОМ ПАМЯТНИКЕ МИНГТЕПА, МАРХАМАТСКИЙ РАЙОН АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Аннотация

В данной статье представлена информация о древних национальных обрядах, обычаях и их значении в жизни общества Ферганской долины. В статье также говорится, что Мингтепа, один из древних городов Ферганской долины, занимает особое место в истории Узбекистана. На основе материалов, найденных в археологическом памятнике Мингтепа (Эрши), описаны традиции, религиозные и национальные обряды наших древних предков, влияние этих обрядов на социально-экономическую жизнь населения долины.

Ключевые слова: Древнее Ферганское (Давань, Дай-юань) государство, город Мингтепа, государство Западная Хань, Сыма Цянь, «Исторические воспоминания», наскальные рисунки Аравона, материальные предметы найденные в городе Мингтепа, зороастризм, исторический роман «Тень желтого дракона», церемония «Кизкувди».

**ON THE ANCIENT MYNGTEPA CEREMONIES (BASED ON THE ARCHAEOLOGICAL FINDS FOUND IN THE
MINGTEPA ARCHAEOLOGICAL MONUMENT, MARHAMAT DISTRICT, ANDIJAN REGION)**

Annotation

This article provides information about ancient national ceremonies, customs and their importance in the life of society in the Fergana Valley. The article also states that Mingtepa, one of the ancient cities of the Fergana Valley, has a special place in the history of Uzbekistan. Through the materials found in the Mingtepa (Ershi) archaeological monument, the traditions, religious and national rituals of our ancient ancestors, the impact of these rituals on the socio-economic life of the valley population were described.

Key words: Ancient Fergana (Davan, Day-yuan) state, Mingtepa city, Western Han state, Sima Xiang, "Historical Memories", Aravon rock paintings, material objects found in Mingtepa city, Zoroastrianism, historical novel "Yellow Dragon Attack", "Kizquvdi" ceremony.

Kirish. O'zbek xalqining qadimiy urf-odatları, an'analari asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan milliy qadriyatlaridir. Bu urf-odatlar, an'ana va marosimlar muayyan tarixiy davrning mahsuli bo'lib, u ma'lum turmush-tarzi va turmush farovonligining ta'siri natijasida paydo bo'lgan, vaqt o'tgan sari ular tobora mustahkamlanib ajdodlardan meros bo'lib kelmoqda. Mana shu marosimlar kishilarning birlashishiga, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashga, mehr oqibatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ba'zi urf-odatlar va milliy marosimlar borki, nafaqat insonlarni ma'naviy komillikka yetaklaydi, balki, sog'lom turmush tarzini ham targ'ib etadi. Bunday marosimlar har bir xalqning turmushida uning o'ziga xos belgi va xususiyatlarni belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimiy Farg'ona davlati shuningdek, Mingtepa shahri axolisining milliy urf-odatları tarixi haqidagi adabiyotlar va manbalarni asosan yozma hamda arxeologik manbalarga ajratib tahlil etish mumkin. Qadimgi Farg'ona xalqlarining o'tmishi, turmush-tarzi va milliy marosimlari haqidagi ma'lumotlarni arxeologik topilmalar asosida tahlil qilgan olimlar A.N.Bernshtam[3], Yu.A.Zadneprovskiy[5], B.X.Matboboyevlar[11] o'zlarining arxeologik qazishma ishlari natijalarida yozgan ilmiy asarlarida yoritib berganlar.

Yozma ma'lumotlar qadimgi G'arbiy Xan imperiyasi saroy tarixchisi Sima Syanning "Shiji" – "Tarixiy xotiralar" asarida uchraydi. Ushbu asarni rus tiliga ilk bor tarjima qilgan sinolog N.Ya.Bichurin[4], keyinchalik N.M.Kyuner[10]

tarjimalarida ham qadimgi Farg'ona milliy marosimlari haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Qadimiy Farg'ona milliy marosimlarini badiiy tarzda, obrazlar orqali yoritgan asar Mannop Egamberdiyevning "Sariq ajdar hamlasi"[15] tarixiy romanidir. Ushbu roman qadimiy Farg'ona davlati haqidagi xitoy va o'zbek manbalari asosida yozilgan.

Tadqiqotchilardan S.Yo'ldashev qadimgi Farg'ona xalq o'yinlari haqida izlanish olib borgan[8]. Ilmiy tadqiqotda qadimgi Farg'onaning milliy o'yinlari, ularning axoli ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tarixiylik va mantiqiylik, kuzatuv va boshqa ilmiy yondoshuv hamda usullardan foydalanishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. Tarixdan ma'lumki qadimdan meros bo'lib kelayotgan milliy marosimlar, urf-odatların vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillardan biri turmush tarzidir. Xalqning azaliy an'anasiga aylanib qolgan har bir marosim milliylik ruhini beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, barcha xalqlar kabi, o'zbek xalqi urf-odatları, an'ana va marosimlari ham muayyan tarixiy davrning mahsuli bo'lib, qadimiy davlatların turmush tarzida shakllanib, rivojlanib kelgan.

O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan qadimgi davlatlardan biri Farg'ona davlati (Davan, Day-yuan) bo'lib,

nafaqat O'zbekiston tarixi, balki, Jahon tarixida ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblangan. Qadimiy Farg'ona vodiysida ham o'ziga xos belgi va xususiyatlariga ega bo'lgan milliy marosimlari mavjud bo'lgan. Bu davlat tarixini o'rganish va arxeologik tadqiq etish davrida vodiy xalqining qadimdan mavjud bo'lgan urf-odatlar va milliy marosimlari haqida qimmatli ma'lumotlar aniqlangan. Tarixdan ma'lumki, qadimiy Farg'onada dunyoga mashhur samoviy otlar yetishtirilgan. Shu sababli vodiyni ko'plab milliy marosimlari asosan ot bilan bog'liq bo'lgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, otlar asosan Ershi shahrida yetishtirilgan. Ershi shahrining o'rni arxeolog olimlarning ta'kidlashicha, hozirgi Mingtepa shahar xarobasiga to'g'ri keladi.

Farg'ona vodiysining qadimiy shaharlaridan biri Mingtepa shahri Andijon viloyatining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Andijon shahri markazidan 38 km. uzoqlikda, hozirgi Marhamat tumanining markazida joylashgan. Mingtepa tarixiy manbalarda yoritilishicha, qadimiy Farg'ona (Day-yuan, Davan) davlatining markazi, ya'ni boshkenti bo'lgan[11]. Xitoy yozma manbalarida tilga olingan Buyuk ipak yo'lida joylashgan bu mahobatli shahar o'zining hunarmandchiligi, dexqonchiligi va "samoviy tulporlari" bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Mingtepa shahar xarobasi, arxeolog olimlar A. N. Bernshtam, Yu. A. Zadneprovskiy, N.G.Gorbunova, B. X. Matboboyevlarning izlanishlari natijasida kelgan xulosalariga binoan, qadimgi Farg'ona davlatining bosh shahri Ershi shahri ekanligi aniqlangan[3,6,7]. Mingtepa shahar xarobasida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida topilgan manbalar Mingtepaning qadimgi o'tmish tarixi, undagi xalqlar hayoti, urf-odatlar, milliy marosimlari va diniy tasavvurlari haqida ma'lumotlarni asoslashga xizmat qiladi.

Qadimiy Mingtepadan topilgan ashyolar ko'proq bu yerlik axolining diniy marosimlari haqida ma'lumot beradi. Mingtepa xududi va uning atrofidan topilgan mo'zoro'rg'onlarda ham maxalliy axolining e'tiqodiga va dafn marosimlariga oid ma'lumotlar aniqlangan. 1950 yillarda Marhamat qabristonining 7 ta mo'zoro'rg'onini o'rganilganda qabrlarda insonlar o'ziga xos oilaviy xolda ko'milgan bo'lib, tosh tepaliklardan iborat ekanligi aniqlangan. Mayitlar 0,6-0,8 metr chuqurlikdagi o'ra go'rlarga ko'milgan. Odam suyaklari chalganchasiga, boshi g'arb tomonga qarab yotqizilganligi aniqlangan[9]. Yu.Zadneprovskiy mayitlarni bunday ko'rinishda dafn etilishi Dalvarzin va Sho'rabashot yodgorliklarida ham uchragan[5]. Shuningdek, mayitlar yoniga turli sopol buyumlar, taqinchoqlar, tosh buyumlar ham birga qo'yilgan. B.Abdul'aziyevaning ta'kidlashicha, bu yerlik axoli asosan mazdaparastlik dafn marosimlarini amalga oshirgan[1].

Mingtepa shahrida 2012 yildan buyon O'zbek-Xitoy qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqot olib bormoqda. Ushbu ekspeditsiya o'rganish davrida Mingtepa shahar qabristonida 2016-2019 yillarda jami 38 ta qabrlar kovlab o'rganilgan. Bu qabristondagi qabrlarda mingtepaliklarning o'ziga xos dafn marosimlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Arxeologlar qabrlarda yakka tartibda marhum chalganchasiga qo'llarini yoniga qilib, mayitlarning yoniga bittadan to'rttagacha buyum qo'yib, dafn qilganligini aytib o'tishadi. Qabrlar juda qalin qo'yilgan bo'lib, marhumlarning boshlari turli tomonlarga qaratilgan. Xitoy Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti antropologiya bo'limi boshlig'i doktor Vang Mingxuy (Wang Minghui) tomonidan marhumlarning antropologiyasi o'rganilgan. Bir holatda odam va qo'y suyaklari aralashgan holda aniqlandi. Bitta qabrda it suyaklari va tishlari (klik) bilan sopol idish topilgan. Bir marta yumaloq holdagi o'raga it jasadi sopol idish bilan qo'yilganligi aniqlangan. Odamlar bilan birga itlarni dafn etilishi zardushtiyalar urf-odatlaridan hisoblangan[14]. Bu qabrlarning topilishi qadimiy Mingtepada axoli asosan zardushtiylik diniga e'tiqod qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu qabrlarning o'rganilishi Davan podsholigi davridagi dafn marosimlari to'g'risida yangi ma'lumotlar olishga imkon beradi.

Qadimgi Davan davlati axolisi quyosh kultiga, olovga, otga va ajdodlar ruhiga sig'inganligi haqida ma'lumotlar ham mavjud[12]. Qadimiy Mingtepadan topilgan arxeologiya materiallari bu yerlik axoli ham otga, quyoshga, olovga va boshqa hayvonlarga sig'inganligini ko'rsatadi. Mingtepa topilmalari ichida zoomorf (hayvon) tasvirlari tushirilgan sopol buyumlari

yuqoridagi fikrlarni asoslashga xizmat qiladi. Sopol parchalarida yoldor bo'ri (giyena), kabutar, to'vus, Xumo qushi kabi hayvonlar tasvirlangan[11]. Mingtepa shahar xarobasidan sopol parchasida tirnab chizilgan ot surati topilgan. Otlarning bosh va dum qismi saqlanib qolmagan. Lekin, uning qolgan qismlari asosida otlarning rasmi tiklangan[13].

Bundan tashqari ot va quyosh kultiga sig'inish Mingtepa yaqinidan topilgan qoyatosh suratlarida ham ko'rishimiz mumkin. A.N. Bernshtam tomonidan o'rganilgan Mingtepa yaqinida Aravan qoyatosh suratlaridagi qadimgi Farg'onaning zotdor otlari tasvirlari bunga misol bo'la oladi. Aravan qoyatosh suratlarida hayvonlarning xulq-atvori katta mahorat bilan aniq ifodalangan. Ayniqsa otlarning tana shakllari, uzun nozik oyoqlari, baquvvat tanasi, uzun egilib turuvchi "oqqush bo'yni kabi" bo'yni va uning ustidagi kichik boshi o'ziga xos tarzda nafis qilib ishlangan. Bu tasvirlar xitoy yilnomalarida tilga olingan "samoviy otlar"ning tasvirlariga juda o'xshash ekanligi ma'lum bo'ladi[3]. Shuningdek, Aravan petroglifida harakatdagi inson tasvirlari mavjud. Inson tasvirlari ov qilish maqsadida emas, balki biror diniy marosimni bajarayotganligini ko'rish mumkin. Bu tasvirlarni A.N.Bernshtam quyosh kultiga bo'lgan e'tiqod namunasi bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi[3].

Mingtepa shahridan 10-12 km janubiy tomonida joylashgan Ulug'tog' tog'idan topilgan yangi qoyatosh suratlar tasvirlarida ham ot va raqsga tushayotgan inson tasvirini ko'rish mumkin[16]. Bu tasvirlarda ham ot va quyosh kultisi bilan bog'liq marosim tasvirlangan bo'lishi mumkin. Zardushtiylik dinida ham dastlabki "Yasht" (gimn)larda ot totemini quyosh xudosi Mitra bilan bog'laydilar[2]. Otlarning suratlar tasvirlangan joylar ularga sig'inish va diniy marosimlarni bajarish obekti bo'lgan. Bu suratlardagi inson harakatlari otlarni ko'paytirishga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Mingtepa shahri yaqinida Otmazor qabristoni ham mavjud bo'lib, bu esa Mingtepada otlarni muqaddaslashtirishning yana bir namunasi sifatida qarash mumkin.

Arxeologlar tomonidan Mingtepa shahridan topilgan qalinligi 4,85 tagkursi va uning ustidagi mahobatli bino diniy marosimlar o'tkazish joyi bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda[11].

Mingtepa (Ershi) zotdor otlar vatani hisoblanib, asosan ot bilan bog'liq marosimlar o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Farg'ona vodiysida ot bilan bog'liq "uloq-ko'pkari", "ommaviy uloq o'yini", "poyga", "olomon poyga", "qiz quvmoq", "yerdan ro'mol olish", "ot ustida kurash" kabi ko'plab xalq o'yinlari asrlar osha ajdodlardan meros bo'lib kelmoqda[8]. "Uloq", "Qiz quvdi" kabi o'yinlar mingtepaliklar hayotida ham alohida o'rin tutgan. "Uloq" xalq qadimdan xalqimiz orasida turli tadbirlarda, marosimlarda tashkil etilgan va bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Mingtepa xududida joylashgan Uloqchitepa yodgorligi (Andijon viloyati Marhamat tumani Rovot maxallasi) ham aynan shu marosimning o'tkazish joyi bo'lgan bo'lishi mumkin. Uloqchitepa yodgorligi toponimining kelib chiqishi aynan mana shu marosim bilan bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

"Qizquvdi" marosimi ham qadimgi mingtepaliklar udumlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu marosim haqida Mannop Egamberdiyevning "Sariq ajdar hamlasi" tarixiy romanida mahorat bilan tasvirlangan. Bu marosim ham bevosita ot bilan bog'liq bo'lib, balog'at yoshiga yetgan qiz va yigitlar o'rtasida o'tkazilgan. "Qizquvdi" marosimi orqali yigit va qiz bir-biriga yetishgan. Otda ketayotgan qizni sevgan yigit ortidan yetib borib, o'z otiga olishi kerak bo'ladi. Bu tadbirning birinchi sharti edi. Ikkinchi shartda esa otda ketayotgan qiz kamondan o'q uzadi. Uni quvalab ketayotgan yigit esa, o'sha otilgan kamondan o'qini urib tushirishi kerak bo'ladi. Uchinchi shartda esa, yigit va qiz kurash tushgan. Mana shu uch shartdan o'tgan yigitgina o'zi ko'ngil qo'ygan qiziga uylana olgan[15]. Bunday xalq o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish ma'lum qoidalar hamda me'yorlarga asoslangan bo'lib, yoshlarni ma'naviy va jismoniy barkamol bo'lishiga va ularni chaqqonlik, hushyorlik, ustamonlik, halollik, raqibni hurmat qilish kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan. Mana shunday marosimlar sabab kuchli va mard bo'lib voyaga yetgan ershiliklar (mingtepaliklar) tashqi dushmanga qarshi kurashganlar.

Xulosa. Qadimda Farg'ona vodiysida, xususan Mingtepada marosimlar ko'proq axolining diniy tasavvurlari orqali namoyon bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida mingtepaliklar asosan zardushtiylik, shuningdek, turli totemistik qarashlarga ega bo'lganligini bilish mumkin. Marosimlar ham mana shu qarashlarning, shu bilan birga turmush tarzining mahsuli sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan. Qadimiy Mingtepa shahrida zotdor otlarning yetishtirilishi va otning muqaddaslashtirilishi, ot bilan bog'liq marosimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Bugungi


kunga kelib, xalqimiz orasida ot bilan bog'liq "uloq-ko'pkari", "ommaviy uloq o'yini", "poyga" kabi marosimlar ajdodlarimizdan meros sifatida saqlanib qolgan. Bu marosimlar nafaqat insonlarni ma'naviy komillika balki, jismonan baquvvat bo'lishiga ham xissa qo'shadi. Kelajakda mana shunday milliy marosimlarni yanada rivojlantirish xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni har tomonlama yetuk inson bo'lishlariga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Абдулгазиева Б. Археологические памятники Мархаматского района Андижанского области. //ИМКУ. -Вып. №26. - Тошкент, 1992. - С.125
2. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод маросимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 20.
3. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши // Советская этнография. 1948. - №4. – С.155-161.
4. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. - М.-Л. 1950. – С.
5. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА.№118. - М.-Л.1962. – С. 175
6. Заднепровский Ю.А. Матбобоев Б.Х. Городище Мархамат // ИМКУ –Вып. №25. -Ташкент, 1991. - С. 62-67
7. Горбунова Н.Г. В древней Фергане. –Ташкент: Узбекистан, 1971. – С. 10-12
8. Йўлдашев С. “Фарғона водийси аҳолисининг халқ ўйинлари”. Автореф. дисс.кан.ист.наук.(PhD). 2019.
9. Козенкова В.И. Археологические работы в Андижанской области в 1956 г. // КСИИМК. – Москва, 1959. - С. 60.
10. Кюнер Н.М. Китайские известие о народах Южной Сибири, Центральной Азии и Дальнего Востока. - Москва. 1961.
11. Матбобоев Б.Х. Мингтепа: Археологик казишмалар ва уларнинг тахлили // “Водийнома”. 2019. №3(14) -Б. 51-55.
12. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғона давлати (Давань). //Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. - Тошкент. 2001. – Б. 35.
13. Матбобоев Б.Х. Умमतов А. Мингтепадан топишган қадимий ноёб тасвирий санъат асари// Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. ЎзРФА Ўзбекистон тарихи давлат музейи. - Тошкент. 2019. -Б. 11-12.
14. Матбобоев Б.Х., Джун Янгши., Хошимов Х., Маширов О., Алиохунов А., Хакимов А. Мингтепада 2018-2019 йилларда олиб борилган археологик ишлар //Археологические исследования в Узбекистане 2018-2019 года. Вып. 12. - Самарканд. 2020. -Б. 143-146.
15. Эгамбердиев М. Сарик аждар ҳамласи. Қувилш. – Тошкент: “Тафаккур” нашриёти. 2016 йил. -Б. 189-193.
16. Andijon muzeylari. 2021-yil 22-aprel // Feysbook.



1-rasm. O'zbek-xitoy qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan Mingtepa shahridan topilgan topilmalar.



2-rasm. Mingtepa shahridan 10–12 km janubiy sharqda joylashgan Ulug'tog'dan topilgan qoyatosh rasm (Andijon muzeylari. 2021-yil 22-aprel // Feysbook).



UDK:398:63(575.1)

Sirojiddin ESHKURBONOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, PhD
E-mail: sirojiddin_eshkurbonov@tues.uz

TISU professori, t.f.d E.Qobulov taqrizi asosida

TRADITIONS AND KNOWLEDGE RELATED TO PLANTS IN THE ECONOMY OF THE UZBEK PEOPLE (HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC ANALYSIS ON THE EXAMPLE OF THE SURKHAN OASIS)

Аннотация

This article studies the characteristics of the ancient customs, knowledge and folk beliefs about plants among the inhabitants of the Surkhan oasis, which is considered the southern region of Uzbekistan. In particular, wild plants that have a legendary and fetish significance among the population (koztikan, hazar isfand, plane tree, juniper, tudona, etc.), cultivated plants (grain, fruit trees, garden and melon crops), geographical names associated with plants in the area (Sayrab plane tree natural monument, Murch Babao mosque, Tut ota and others) were analyzed historically and ethnographically based on field research, scientific literature and sources.

Key words: Koztikan, Hazar Isfand, plane tree, juniper, tudona, grain, fruit trees, orchard, melon crops, Sairab plane tree natural monument, Murch Baba Mosque, Tut Ota.

ТРАДИЦИИ И ЗНАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С РАСТЕНИЯМИ В ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА (ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА)

Аннотация

В статье рассматриваются особенности древних обычаев, знаний и народных верований, связанных с растениями, у жителей Сурханского оазиса, региона на юге Узбекистана. В частности, на основе полевых исследований, научной литературы и источников был проведен историко-этнографический анализ дикорастущих растений, имеющих легендарное и фетишное значение среди населения (козтикан, hazar isfand, платан, можжевельник, tudona и др.), культурных растений (зерновые, плодовые деревья, садовые и бахчевые культуры), географических названий, связанных с растениями данной местности (природный памятник платан Сайраб, мечеть Мурч Бабао, Тут ота и др.).

Ключевые слова: Козтикан, Хазар Исфа́нд, платан, можжевельник, tudona, зерновые, фруктовые деревья, сад, бахчевые культуры, памятник природы платан Сайраб, мечеть Мурч Баба, Тут Ота.

O'ZBEK XALQINING XO'JALIGIDA O'SIMLIKLAR BILAN BOG'LIQ UDUMLAR VA BILIMLAR (SURXON VOHASI MISOLIDA TARIXIY-ETNOGRAFIK TAHLIL)

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonning janubiy hududi hisoblanmish Surxon vohasi aholisi orasida qadimdan shakllanib kelgan o'simliklar bilan bog'liq udumlar, bilimlar va xalq qarashlarining xususiyatlari o'rganildi. Xususan, aholi orasida afsonaviy va fetish ahamiyatga ega bo'lgan yovvoyi o'simliklar (ko'ztikan, hazar isfand, chinor, archa, tudona va boshqalar), madaniy o'simliklar (don, mevali daraxtlar, bog' va poliz ekinlari), hududdagi o'simliklar bilan bog'liq geografik nomlar (Sayrob chinori tabiiy yodgorligi, Murch bobo masjidi, Tut ota va boshqalar) dala tadqiqotlari, ilmiy adabiyot va manbalarga asoslanib tarixiy-etnografik jihatdan tahlil etildi.

Kalit so'zlar: Ko'ztikan, hazar isfand, chinor, archa, tudona, don, mevali daraxtlar, bog', poliz ekinlari, Sayrob chinori tabiiy yodgorligi, Murch bobo masjidi, Tut ota.

Kirish. Tabiat hodisalarini, jumladan, o'simliklarni timsollashtirish eng qadimgi e'tiqod ko'rinishlaridan biri bo'lib, insonlarning dunyoqarashi sifatida vujudga kelgan.

Qadimdan insonlarning xo'jalik faoliyatida bevosita tabiat bilan bog'liq bo'lganligi bois ham, ularning o'simliklar dunyosi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi muhim hisoblangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. S.A.Tokarev, S.K.Mirxaslov, J.Frezer, I.Muxiddinov, U.Djaxonov, A.Ashirov, G.P.Snesarev, N.P. Ostroumov, M.Nabiyev, E.G. Gafferberg, V.Basilov, A.Askarov, A. Kadirov, Y.G.Petrash singari etnograf olimlarning asarlarida o'zbek xalqining xo'jalik madaniy an'analari o'simliklar bilan bog'liq udumlar va bilimlar, uning rivojlanishi, mintaqaviy xususiyatlariga oid ma'lumotlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiy-tahlil, qiyosiy-tahlil, dala ma'lumotlarini to'plash, intervyu va anketa so'rovnomalari kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Surxon vohasining tabiiy-iqlim sharoiti, qulay geografik joylashuvga egaligi uchun ham tabiati noyob flora va faunaga boy hisoblanadi. Maqolada voha o'simlik dunyosining faqat ba'zilariga to'xtalib o'tdik. Lekin, ular juda ko'p yuzlab turlarni o'z ichiga oladi.

Mavjud to'plangan materiallar asosida Surxon vohasi aholisi orasida o'simliklar bilan bog'liq bo'lgan xalq qarashlari, urf-odat va bilimlarni uch guruhga bo'ldik:

1) aholi orasida afsonaviy va fetish ahamiyatga ega bo'lgan yovvoyi o'simliklar (ko'ztikan, hazar isfand, chinor, archa, tudona va boshqalar);

2) madaniy o'simliklar (don, mevali daraxtlar, bog' va poliz ekinlari);

3) Surxon vohasidagi o'simliklar bilan bog'liq geografik nomlar (Sayrob chinori tabiiy yodgorligi, Murch bobo masjidi, Tut ota va boshqalar).

1906 yilda nashr etilgan "Ajoyib ul maxluqot va g'aroyib ul masnuot" kitobida jami o'simliklar 760 turi insonlar uchun yaratilgan deb yozilgan [1].

Surxon vohasida "ko'z qo'rqitar" odati bo'lgan. Bordiyu daraxt kam hosil bersa, uni egasi bolta ko'tarib kesmoqchi bo'lib, boltani unga asta-sekin urib oladi, ya'ni qo'rqitadi. Uning yonida turganlar "kesmang, kelgusi yil mo'l hosil beradi" deyishadi [2:28]. J.Frezer tasdiqlashicha, bu odatlar jahonning ko'pgina xalqlarida uchraydi [3].

Ekinlarga zararkunandalar tushsa, "muqaddas" joylardan tuproq keltirib unga sochganlar. O'simlik yoki daraxt shoxlariga tumor osib qo'yganlar. Ba'zi joylarda g'alla qorakuya bilan zararlansa, Bobodehqonga atab is chiqarishgan. Ba'zilar o'z tomorqalaridagi ekinlar o'rtasiga "ko'z tegmasin" deb molning bosh suyagini qorakuya bilan chizib tayoq uchiga osib qo'yganlar.

O'zbek xalqining an'anaviy turmush tarzida yer, don va nonga bo'lgan o'ziga xos hurmat-ehtiroim bilan bog'liq turli-

tuman udumlar va marosimlar hozirgacha saqlanib kelayotganligini ko'rish mumkin. Xalqona qarashga ko'ra bug'doy, olma, qovun, anjir va rayhon dastlab jannatda o'sgan [4,]. Shu bois ushbu o'simliklar va mevalar doimo e'zozlangan. Ayniqsa xalq orasida yerga bug'doy sepish eng xayrli amallardan biri sanalgan va bug'doy ekilgan maydonlarni oyoq osti qilish gunoh hisoblangan [6]. Qolaversa bug'doydan tayyorlanadigan taomlar ham alohida qadrlangan. Jumladan, bahorda ilikuzildi paytida ayollar tomonidan namlangan bug'doyni ko'klatib sumalak tayyorlash va bir marta sumalak tayyorlangan uyda yetti yil mobaynida xar yili bir marta sumalak pishirish udumlari hozirgacha davom etib kelmoqda [7].

Xalq an'alarida gul azaldan sevilib, e'zozlab kelingan. Mehnat ahlining gul o'stirishi, uni parvarish qilishi, hurmat va ehtirom ramzi sifatida bir-biriga gul taqdim etish odatlari qadimdan ma'lum. Taniqli etnograf N.P.Ostroumov "Sartlar" nomli asarida: "Men oddiy insonlarning, aravakash yoki meshkobning ham qulog'iga gul taqishi, do'ppisi tagiga qistirishi uchun gul axtarishini ko'rib hayratda qoldim", deb yozgan edi[8:36]. Gul bayrami O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy an'alaridan hisoblanadi. Bu xalqimizning tabiat go'zalliklaridan zavq olishidan, o'ta nozik nafasatiligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizning ko'pgina mintaqalarida, masalan Surxon vohasida "Gul sayli" deb atalgan bayram marosimlari o'tkazilgan. Go'zallik, shodu xurramlikdan iborat bu xalq sayili bizning davrimizda yangicha mazmun kasb etdi. Ommaviy tarzda o'tkazilayotgan gul bayramlari kishiga estetik zavq, ma'naviy oziq beradi.

"Gul sayli" va "lola sayli" ham aslida o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra, odamlarning dam olish, ko'ngil ochish, xordiq chiqarishiga mo'ljallangan marosimdir.

Ko'p asrlar davomida qishloq joylarda, xususan, tog' aholisi orasida ba'zi o'simliklar fetish funksiyasini o'tagan, chunonchi tudona, sedana, tasbeh, hassa-musa, qalampirmunchiq, ko'ztikan, ko'ktikan, hamishabahor kabilar. Kishilar odamlarga, hayvonlarga, daraxt va poliz ekinlariga, uylariga "ko'z" tegadi deg yuqoridagi o'simliklardan shaxsiy avtomobillarga ham osib qo'ygan. Ko'ztikan vohaning turli joylarida uchraydigan tikanli o'simlik bo'lib, "ko'z tegishi"ga qarshi yoki "yomon ko'zdan" himoya qilish uchun undan foydalanilgan. Ko'ztikan Surxon vohasining adir va qirlarida tabiiy holda o'ssa, sug'oriladigan hududlarda begona o't sifatida ekinlar orasida ham uchraydi. U ko'pincha ko'zga tashlanadigan biror buyumga osib qo'yilgan. Ba'zan badanga "ko'z qo'tir" chiqqanda, unga qarshi ko'ztikan poyasini yondirib, kulini bosishgan [9].

Fitonsidli(o'simliklarga glyukozoidlar – piyoz, sarimsoq va achchiq qalampir kabilar kiradi. Ajdodlarimiz glyukozoidlarning inson salomatligi uchun foydali ekanligini qadimdan bilganlar. Piyoz, sarimsoq va achchiq qalampirni ziyon-zahmatlardan asrovchi vosita deb bilishgan.

Isiriq, do'lana, murch, pista va chilonjiyda (unobi) kabi shifobaxsh o'simliklar ham muqaddas hisoblagan. Masalan, isiriq O'rta Osiyoda keng tarqalgan ko'p yillik o'simlik (buni ba'zi joylarda ispand, hazarispand) bo'lib, olimlarning aniqlashicha, zoroastrizm davridan buyon ma'lum. U qadimgi eronliklarning spenta so'zidan olingan bo'lib, ilohiy, muqaddas degan ma'noni bildirgan.

Isiriq odatda vohaning cho'l va adirlarida, qisman tog'li hududlarida tabiiy holda ko'plab o'sadi. Ayniqsa, u qo'y qo'ralari, mollar haydalgan yo'llar, qishloqlar atrofida o't sifatida ko'plab uchraydi.

Voha aholisi qadim zamonlardan beri isiriqdan dorivor o'simlik sifatida foydalanib kelishgan. Isiriqdan tayyorlangan suyuqlik bilan qadim zamonlardan buyon xalq tabobatida qichima, bod va teri kasalliklarini davolashda foydalanib kelingan. Qaysi xonadonda isiriq tutatilib turilsa, kasallik kam bo'ladi, chunki u kasalliklarni keltiruvchi "yomonko'z" dan saqlaydi va ins-jinslarni haydab chiqaradi, deb qaralgan.

Isiriq tutatilganda ajralib chiqayotgan tutun xonalarda dezinfeksiya qilish xususiyatiga ega bo'lib, havoni har xil kasallik tug'diruvchi mikroblardan tozalaydi. Natijada shu xonadonda kasallik kam bo'lib, u yana o'zining yoqimli hidi bilan boshqa hidlarni yo'qotadi deb qaralgan.

Isiriq xalq tabibchiligidagi profilaktika maqsadlarida foydalanilgan. Uning tutuni mikroba va bakteriyalarni yo'qotadi. Isiriq shifobaxsh o'simlik sifatida revmatizm, radikulit, gripp, shol va bezgak kabi kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Isiriqni yomon ko'zlardan, yomon ruhlardan asrovchi "kuch" deb ham bilishgan [10]. Undan har bir xonadonda shifobaxsh sifatida keng foydalanilgan.

Xonadon va unda yashovchilarni barcha yomonliklardan himoya qilish vositasi sifatida ko'pincha isiriq uyning kirish eshigiga osib qo'yilgan. Aholi isiriqdan asosan quritilgan holda foydalanganlar. U dasht hududlardan "pishgan"dan so'ng terib olib kelingan. Vohada ushbu o'simlikdan nafaqat o'zbek, balki tojik, turkman va boshqa millatga mansub etnik va etnografik guruhlarining o'z xonadonida foydalanilganligini kuzatish mumkin. Bunga sabab ushbu guruhlarining yonma-yon yashashi natijasida bir-birlari bilan o'zaro madaniyatlar almashinuvi natijasida sodir bo'lgan bo'lishi mumkin.

Chilonjiyda 100 yilgacha umr ko'radi, bo'yi 8-12 metr, vitaminlarga boy shifobaxsh daraxt. Chilonjiyda asrlar davomida o'zining shifobaxsh xususiyati bilan odamlar e'tiborini tortgan. Uning mevasi va ildizidan qon bosimini pasaytirish, jigar, buyrak va ichak kasalliklarini davolashda keng foydalanilgan.

Surxon vohasida ko'p uchraydigan o'simliklardan yana biri pista bo'lib, uning xandon pista deb ataladigan turi ko'plab uchraydi. Pista bargida shiraning bir turi faoliyati natijasida buj'un deb ataladigan ichi bo'sh kulrang sariq, pushti rangli no'xatdek bo'rtmachalar hosil bo'ladi. Uning vatani O'rta Osiyodir. U faqat tog' zonalarida o'sadi. Lekin keyingi yillarda uning maydoni keskin kamayib ketdi. Uning shu dori-darmonlik xususiyati bo'lgan. Kimki pista mevasidan yesa aqli, dono bo'ladi degan rivoyatlar bo'lgan. Ma'lumki, pista daraxti 100, 200 yilda yetiladi. Bobotog'dagi pistalarning o'rtacha yoshi 80 dan oshgan.

Bir qancha urf-odatlar efir moyli o'simliklar - yong'oq, chinor, anjir va jiyda kabi daraxtlar bilan bog'liq bo'lgan. Bu daraxtlarning tagida uzoq vaqt turib qolinsa, bosh og'riydi, kishi o'zini nohush his etadi deb bilishgan.

O'zining hidi, bahaybatligi va mevasining ajoyib sifati bilan ajralib turadigan daraxtlardan biri yong'oqdir. Yong'oqni I.V.Michurin "kelajakning noni" deb atagan edi. Yong'oq o'zining ozuqaliligi jihatidan nondan uch marta, sutdan o'n marta, olmandan o'ttiz marta ustun turadi. Xalq orasida "yong'oq—luqmon daraxti" degan hikmatli gap bor. Xalq tabobatida yong'oq mevasi va bargidan dori sifatida foydalanilgan.

O'rta Osiyo tabiiy sharoiti uchun xarakterli buyuk, umri boqiy daraxt – chinordir. U o'zining haybati va chiroyliligi bilan insonning alohida e'tiborini tortgan. Mahalliy aholi orasida u bilan bog'liq bir qator rivoyat va afsonalar mavjud.

Piru badavlat odamlarni odatda chinorga qiyos qilishadi. Chinor ikki ming yilgacha umr ko'radi. O'rta Osiyoda shunday chinorlar borki, ular arablar bosqinidan oldin ham mavjud edi. Bundaylarni "Chinor bobo" deb atashganlar [11]. Umuman, chinorlar haqidagi ko'pgina urf-odatlar va qarashlar bo'lgan. Ayrim joylarda muqaddas chinorlar bor. Masalan, Shohimardondagi chinorlarni turkmanlar muqaddas hisoblashganlar [12].

Boysun tumanidagi Sayrob qishlog'ida ikkita katta qadimiy chinor daraxti mavjud. Qishloq aholisi uni "Chinor bobo" deb atashadi [13]. Uning tanasida katta kovak hosil qilingan bo'lib, dastlab u o'tgan asr boshlariga qadar eski maktab, harbiy lashkarlar qarorgohi, 1920 yildan qishloq kengashining idorasi, 1932-1934 yillar davomida otliq askarlar qo'shinining lager kutubxonasi, 1936 yildan esa savdo do'koni, choyxona, maktab va sartaorshxona kabi vazifalarni bajargan. Hozir esa u kichik muzey hisoblanadi. Ushbu chinor daraxti tabiat yodgorligi sifatida davlat muhofazasiga olingan. Yana bir diqqatni o'ziga tortadigan jihati, mazkur chinorlar tagida qadimdan oqib turgan shifobaxsh buloq suvi va undagi baliqlardir. Qishloq aholisi ushbu chinorlar soyasida buyuk shoir hamda davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning tin olib, buloq suvlaridan chanqog'ini qondirib o'tganligini faxrlanib so'zlab berishadi. Chinorning yoshi 950 yildan oshgan bo'lib, balandligi esa 26 metr, diametri naqd 21 metrni tashkil qiladi. Tanasi balandligining o'lchami 9,7 metr

bo'lib, mehrobli eshikni eslatuvchi kovagi kattaligi esa 7 metrga teng.

Surxon vohasi aholisi taomlarida ko'p ishlatiladigan o'simliklardan biri murchdir. Termiz shahrida murch daraxti bor. U ilgari muqaddas hisoblangan. Bugungi kunda bu yerda masjid joylashgan.

Mahalliy aholi ushbu masjidga asos solgan kishini "Murch bobo" deb atashadi. "Murch bobo"ning kelib chiqishi Samarqandlik bo'lgan Sayyid Abdulvali Samarqandiy Al-Mulakkab bilan bog'lashadi. U XIX asrda yashagan bo'lib, umrining oxirlarida xaj ziyoratini amalga oshirish uchun yo'lga chiqadi. U safarga borishda va qaytishda Termiz shahri orqali o'tishni rejalashtiradi. Xaj amalini ado etib Balx shahri orqali qaytayotganda belida xaltaga tutilgan murch giyohi olib Termizga yetib keladi. O'sha davrlarda Termizning atrofi to'qayzor bilan o'ralgan bo'lib, bu yerlar Pattakesar deb atalgan. Ushbu hududda Sayyid Abdulvali va uning nabirasiga qaroqchilar hujum qilishadi. Ular shaxid bo'lishadi. Oradan ancha yillar o'tadi. Faqat XX asr boshlarida Termizda yashagan katta Imom Aliboy ismli chorvador qo'ylari uchun qo'ton qurdirayotganida Sayyid Abdulvali va uning nabirasining qabri ochilib qoladi, buni ko'rgan qo'ton qurayotganlardan biri Imom Aliboyga bu haqida xabar qiladi. Imom Aliboy shayxning jasadini ko'rib, falaj bo'lib qoladi. Kasalni davolash uchun bir qancha choralar qilishadi. Lekin, foydasi bo'lmaydi. Shunda Imom Aliboy o'z hisobidan shayx qabri ustida bir maqbara qurdiradi. Keyinchalik shayx qabri ustidan Murch daraxti o'sib chiqqan va bu daraxt xozirda ham bor. Ushbu ma'lumotlarga tayanib mazkur ziyoratgohga "Murch-bobo" deb nom beriladi.

1998 yil 31 iyulda Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan "Murch bobo" masjidi ro'yxatdan o'tib, faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Archa Surxon vohasi tog'larining ko'rki, chiroyi. Hozir ham ikki ming yildan buyon yashayotgan archalar bor. Bu archalar Aleksandr Makedonskiy yurishidan oldin ham mavjud bo'lgan. Surxon vohasidagi bir qancha arxeologik yodgorliklarni o'rgangan tarixchi olim A.Asqarovning tekshirishlariga ko'ra, archa bronza davrida ham muqaddas daraxt hisoblangan [14]. O'sha davr odamlarining oilaviy-turmush buyumlarida archa rasmi tasvirlangan. Ushbu daraxt abadiy hayot, boqiy umr hamda doimiy farovonlik ramzi sifatida talqin qilingan. Archa tutuni

bilan yomon ruhlarni haydash odatlari bo'lgan [15]. Shuni qayd qilish lozimki, ba'zi bir archalar o'zining bahaybatligi, qadimiyligi bilan boshqa archalardan farq qiladi, qadimdan odamlar archalarni muqaddaslashtirganlar. Masalan, Boysun tog'larida "Cho'pon archa" mavjud bo'lib, chorva mollari kasallansa, cho'ponlar ularni shu muqaddas archa atrofidan aylantirganlar, tayoqlarini tashlaganlar. Shundan so'ng chorvaning tuzalib ketishiga ishonganlar [17].

O'rta Osiyoda archaning 60 dan ortiq turlari aniqlangan. Qadimdan vohaning tog' va tog'oldi qishloqlari aholisi xo'jaligida archa yog'ochi va bargidan foydalanib kelishgan. Jumladan, archa yog'ochdan chorva uchun qoziq, yer haydashda mola va boshqa uy ro'zg'or buyumlari yasalgan. Shuningdek, uning barglaridan tog'lik aholining sevimli taomlaridan bo'lgan "tandiri" tayyorlashda ishlatishgan.

Ko'pgina o'simliklar muqaddas joylar bilan bog'langan. Tut, qayrag'och, gujum, tol va terak kabi daraxtlar shular jumlasiga kiradi. Masalan, terak o'zining go'zalligi, tekis va to'g'ri o'suvchanligi, bargining kechasi yoqimli, musiqiy tovush chiqarib turishi bilan odamlar diqqatini o'ziga jalb etgan. SHerobodagi "Sulaymon ota" mozorotida 140 yoshga kirgan "Tut ota" bor. Ziyoratchilar unga har chorshanba kunlari kelishgan. Tutga lattalar, alamlar bog'lashgan. O'rta Osiyoning boshqa mintaqalarida ham ushbu o'simliklar muqaddas hisoblangan. Masalan, Qirg'izistondagi "Oq terak", "Uch terak", Farg'onadagi "Terak mozor", Turkistondagi "Bugazterak" shular jumlasiga kiradi [18]. Ko'pgina avliyolarning mozorlarida katta-katta tut daraxtlari bor. Xorazmda "Chilla tut", Tojikistonda "Tuti kalon" bor, xuddi shunday tutlar Qirg'izistonda ham uchraydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa shuki, voha aholisi o'zining ko'p yillik kuzatishlari asnosida o'simliklarning turli xarakterli xususiyatlari haqidagi keng bilimlar va tajribalarga ega bo'lib borganlar. Shuningdek, ular o'simliklarning ma'lum xususiyatlarini, ayniqsa shifobaxshligini bir qator afsona hamda rivoyatlar bilan bog'laganlar.

Voha aholisida asrlar davomida bir qancha o'simliklar bilan bog'liq xalq qarashlari vujudga kelgan bo'lib, ular bugungi kunda ham aholi turmush tarzida saqlanib qolganini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi o'simliklarga munosabat yosh avlodni tabiatga bo'lgan ijobiy qarashlarini shakllantirishda, tabiat va uning ne'matlaridan oqilona foydalanishga undaydi.

ADABIYOTLAR

1. Токарев С.А. Ранние формы религии. – М.: Политиздат, 1990. – С. 381.
2. Мирхасилов С. К изучению реликтов доисламских верований у узбеков в дореволюционном прошлом. – В кн.: Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. Ташкент, 1972. – С. 28.
3. Фрезер Дж. Золотая ветвь (перевод с английского). Вып. I. М. – Л., 1931, –С. 135-137.
4. Мухиддинов И. Земледелие памирских таджиков и Ишканима в XIX—начале XX в (Историко-этнографический очерк). М., 1975. С. 91;
5. Джахонов У. Земледелие таджиков долины Соха в конце XIX — начале XX в. Душанбе, 1989. С. 116.
6. Аширов А. "Авесто" ва деҳқончилик анъаналари хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2005. №1-2. Б. 112-117;
7. Снесарев Г. П. Реликты домусулманских обрядов у узбеков Хорезма. М., 1969. С. 211-212.
8. Остроумов Н.П. Сарты. Ташкент, 1890, С. 36.
9. Набиев М. ва б. Қизилари ботаника. Тошкент, 1975. 223-бет.
10. Гафферберг Э.Г. Пережитки религиозных представлений у белуджей, В кн.: Домусулманские верования и обряды в Средней Азии. М., 1975. –С. 242.
11. Басилов В.Н. Култ святых в исламе. М., 1970, –С. 126-127.
12. Наука и религия, 1982, № 5. –С. 36.
13. Dala yozuvlari, 2021 yil. Boysun tumani, Sayrob qishlog'i.
14. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977. –С. 142.
15. Кадыров А. Современный ислам... (докт. дисс.). М., 1969. –С. 254;
16. Петраш Ю.Г. Материалы о пережитках доисламских култов на юге Киргизии // Философские проблемы атеизма - М : АН СССР, 1963. – С. 261.
17. Dala yozuvlari, 2021 yil. Boysun tumani, Pulxokim qishlog'i.
18. Петраш Ю.Г. Священный обман. Ташкент. 1965. С. 18.



Dildora YUSUPOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: dildora77gov@gmail.com

PhD M.Darmonova taqrizi asosida

TOSHKENT SHAHAR MARKAZIY DAVLAT ARXIVI 10-FONDI TARKIBI VA RO'YXATLARI TAVSIFI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Toshkent shahri tarixi bo'yicha muhim manbaviy dalillarni o'zida mujassam etuvchi Toshkent shahar Markaziy davlat arxivining 10-fondi tuzilishi haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Toshkent shahar Ijroiya qo'mitasiga tegishli bo'lgan ushbu arxiv jamg'armasining hajmi, davriy chegarasi, sharhlari, hujjatlari turiga oid tasnifiy belgilar keltirilgan bo'lib, ushbu arxiv jamg'armasining shahar tarixini yoritishdagi muhim ahamiyati uning tarkibiy tavsifi orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi, arxiv sharhlari, arxiv hujjatlari, fond, Ijroiya qo'mitasi, Tashsovdex, manba.

ОПИСАНИЕ И СОСТАВ ФОНДА 10 ЦЕНТРАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО АРХИВА ГОРОДА ТАШКЕНТА

Аннотация

В данной статье содержатся сведения о формировании 10-го фонда Центрального государственного архива Ташкента, содержащего важные источниковые сведения по истории Ташкента. Представлены объем, периодические границы, комментарии и классификационные признаки видов документов этого архивного фонда, принадлежащего Ташкентскому горисполкому, а также подчеркнуто важное значение этого архивного фонда в освещении истории города через его структурное описание.

Ключевые слова: Центральный государственный архив Ташкента, комментарии к архиву, архивные документы, фонд, исполком, Ташсовдеп, источник.

DESCRIPTION AND COMPOSITION OF THE FUND №10 CENTRAL STATE ARCHIVE OF TASHKENT CITY

Annotation

This article contains information about the formation of the 10th fund of the Central State Archive of Tashkent, which contains important source evidence on the history of Tashkent. The volume, periodical boundaries, comments, and classification signs of the types of documents of this archive fund belonging to the Tashkent City Executive Committee are presented, and the important importance of this archive fund in illuminating the history of the city is highlighted through its structural description.

Key words: Central State Archive of Tashkent, archive comments, archive documents, fund, Executive Committee, Tashsovdex, source.

Kirish. O'zbekiston tarixini yangi materiallar bilan boyitishda arxiv hujjatlari muhim o'rin egallaydi, ularni o'rganish orqali Toshkent shahrining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixiga oid ma'lumotlar olinish mumkin. Ular Vatanga muhabbat, o'zlikni anglash milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirishda yordam beradi. Manbashunoslar tarixni yoritish orqali biror hududni o'tmishdagi tabiiy sharoiti, siyosiy xolati, etnik jarayonlari, iqtisodiy mavqei, xalqaro aloqalari aholining ijtimoiy va madaniy hayoti kabilari haqida ma'lumot oladilar. Arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar – tarixiy ma'nalar bo'lib, ularda ma'lum hududning o'tmishi aks etadi. Bu o'z navbatida tarix fani sohasiga aniqliklar kiritadi, mukammallashtirish imkoniyatini beradi,

O'zbekiston Respublikasining bosh shahri Toshkent tarixini o'rganish bugungi kunda nafatqat poytaxt o'tmishini, balki Vatanimiz tarixini yoritishda alohida ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, tarixni tarixiy manbalar asosida tadqiq qilish, shu jumladan shahar arxivi sanalmish Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi (TSHMDA) fondlarida saqlanayotgan hujjatlarga tayanib tarixiy jarayonlarni o'rganish holis tarixni ochishga katta yordam beradi. TSHMDA da saqlanayotgan Toshkent shahardagi boshqaruv, ijtimoiy madaniyat, moliya, sho'ro-kolxoz savdosi, umumiy ovqatlanish, transport, uy-joy, sanoat, harbiy sohalariga tegishli arxiv jamg'armalari hamda hujjatlarni tizimlashtirish va manbaviy ahamiyati masalalari arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan. Ularni tizimli o'rganish bugungi tarixiy tadqiqotlarning muhim vazifasi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan "ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmini yaratish" vazifasi tarix sohasi vakillari faoliyatiga yangi yetakchi

ilm fan texnologiyalarni tadqiq etish, manbalar asosida vatanimiz tarixini o'rganishda birlamchi arxiv manbalariga jiddiy e'tiborda bo'lishimizni uqtiradi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaharlar tarixini o'rganishda muhim manbaviy materiallar ularning arxivlarida saqlanadi. Xususan, Toshkent shahri tarixini tadqiq qilishda Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi jamg'armalarida saqlanib keladigan arxiv hujjatlari qimmatli manba hisoblanib, ular o'zida shaharning eng yangi davri bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni jamlaydi. Ushbu hujjatlarni o'rganish orqali Toshkent shahrining XX asr tarixiga oid muhim voqealar, ularning tafsilotlari, shahar taraqqiyotidagi o'rni xususida axborot olish mumkin. Hozirga qadar shahar arxivining ko'plab jamg'armalari alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Ammo ayrim tarixchi olimlar o'z tadqiqotlarida arxiv jamg'armalariga umumiy tavsif keltirganlari, hujjatlarning tarixiy ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirganlarini ta'kidlash joiz. Xususan, toponimist olim X.Bo'riyeva maqola va monografiyalarda[2], manbashunos olim M.Darmonova kitoblarida[3] Toshkent shahar Markaziy davlat arxivining fondlari to'g'risida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Shahar arxivida minglab hujjatlar yuzlab fondlarga jamg'arilgan bo'lib, ularni o'rganish bugungi kunda muhim vazifa sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Toshkent shahar markaziy arxivi 10-fondi tarkibi va ro'yxatlari tavsifi arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan o'rganildi. Chunki Toshkent shahar tarixida sodir bo'lgan turli tarixiy voqealarni yorituvchi ma'lumotlar, shuningdek, Toshkent shahar mehnatkashlar deputatlari soveti Ijroiya qo'mitasi faoliyati aks etgan arxiv hujjatlari hali yaxlit tarixiy tadqiqot sifatida shakllanmagan.

Tahlil va natijalar. Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi Respublikadagi eng yirik arxivlardan biri hisoblanib, unda 1917 yildan to hozirga qadar 391 000 arxiv hujjatlari, 57 000dan ziyod qimmatli hujjatlar, 1,6 million saqlov birligidagi shaxsiy

tarkib hujjatlari saqlab kelinmoqda. Har yili o'rtacha 6000dan ziyod doimiy saqlov muddatiga ega arxiv hujjatlar saqlovga kelib tushadi.

Respublikaning boshqa hududlaridagi arxivlardan farqli ravishda Toshkent shahar Markaziy davlat arxivida Toshkent shahar hokimligi va Tuman hokimliklari hujjatlari ham saqlanadi.

Toshkent shahar Markaziy davlat arxivida arxiv jamg'armalari davriy jihatdan ikki qismga ajratilgan bo'lib, bu 1917 – 1990 yillar (sovet davri)ga oid va 1991 yildan hozirgi vaqtga qadar (mustaqillik davri) to'plangan hujjatlarni o'z ichiga olgan fondlar guruhlar. Shahar arxivi ma'lumotnomalarida qayd etilishiga ko'ra, sovet davriga tegishli arxiv fondlar “S” harfi bilan belgilangan va ularning soni 595 ta, mustaqillik davri jamg'armalari “M” harfi bilan belgilangan, soni 44 taga yetadi[4].

Arxiv fondlari ma'lum yo'nalishlarga ko'ra tuzilgan bo'lib, bunda ularning ko'p sonligi hamda shahar bo'jaligining turli sohalari o'ldirg'i inobatga olingan. Shu jumladan, shahar arxividagi jamg'armalar sohalarga ko'ra quyidagicha tasniflangan: davlat hokimiyati va boshqaruvi; sud va prokuratura ishlari; xalq xo'jaligi muassasa, tashkilot va korxonalari; xalq ta'limi, ilm-fan muassasa, tashkilotlari; ijtimoiy ta'minot muassasalari; kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari; korxona, tashkilot, muassasalarning shaxsiy tarkibi; ma'muriy bo'linmalar aholisi va manzilgohlari; korxona, tashkilot, muassalar va aholiga yerlar taqsimoti; shuningdek, boshqa turli yo'nalishlar bo'yicha hujjatlar.

Arxiv hujjatlarida shahar tarixida sodir bo'lgan turli tarixiy voqealarni yorituvchi ma'lumotlar aks etgan bo'lib, ular davriy jihatdan guruhlangan holatda fondlashtirilgan. Xususan, 1917 yil inqilobi va 1918–1923 yillardagi ozodlik uchun kurashga doir Toshkent va butun Turkiston o'lkasida o'tkazilgan harakatlar, yerlar hamda xo'jalik obyektlari, turli idora va muassasalarning davlat tasarrufiga o'tkazilishi, shahar iqtisodiyoti, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq ma'lumotlar, II jahon urushi yillaridagi shahar tarixi, 1966 yilgi zilzila va uning oqibatlari, shaharning hududiy o'zgarishlari, me'moriy inshootlari, qayta qurish davridagi o'zgarishlar, davlatning mustaqillikka erishishi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish va h.k. xususida axborotga ega bo'lgan qimmatli manbalar Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi jamg'armalarida saqlanadi[5].

Toshkent shahar tarixini yoritishda asosiy fondlar sirasiga eng yirik arxiv jamg'armalarini kiritish mumkin, zero, ular odatda shahar boshqaruvi organlariga tegishli bo'ladi. Shu jumladan shahar arxividagi 10-sonli arxiv jamg'armasi. F-10 arxiv jamg'armasi hujjatlari 18 ta ro'yxat bo'yicha ajratilgan va 6892 ta yig'majildni tashkil qilgan. Ushbu fond Toshkent shahar mehnatkashlar deputatlari soveti Ijroiya qo'mitasiga (Ispolnitelniy komitet Tashkentskogo gorodskogo Soveta deputatov trudyashixsya – Tashsovdop, Tashgorispolkom) tegishli, ya'ni jamg'armada shahar boshqaruviga oid materiallar jamlangan. Jumladan, MIQ, TASSR XKS, Tashsovdop Ijroiya qo'mitasi (Ispolkom) dekretlari, qaror, buyruq, farmoyishlari, yig'ilish bayonlari, partiya syezdlariga oid ma'lumotlar, urush davriga tegishli yozishma, telegramma, axborotlar, yerlar va sanoat obyektlarini davlat tasarrufiga o'tkazish (natsionalizatsiya), ocharchilik va vayronagarchilikka qarshi tadbirlarni tashkil etish, shaharni obodonlashtirish, aholi salomatligini tiklashgi doir

1-jadval

TSHMDA 10-FOND RO'YXATLARI BO'YICHA MA'LUMOT

№	Fond	Tavsif	Qamrab olingan yillar	Saqlanayotgan saqlov birligi soni
1	10-fond	1	1917-1933	1750
2	10-fond	1	1924-1940	1280
3	10-fond	1(4-qism)	1935-1966	678
4	10-fond	3	1917-1950	166
5	10-fond	3	1924-1955	832
6	10-fond	4	1971-1975	547
7	10-fond	4	1966-1975	445
8	10-fond	4	1966-1975	1014
9	10-fond	4	1966-1975	1619
10	10-fond	5	1923-1948	355
11	10-fond	5	1970-1982	144
12	10-fond	5	1970-1982	1366
13	10-fond	5	1970-1982	142
14	10-fond	6	1937-1947	76
15	10-fond	6	1956-1986	817
16	10-fond	6	1985-1986	276
17	10-fond	7	1980-1991	622

hujjatlar, saylov ishlari, korxonalarni evakuatsiya qilish, zilzila oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, medal va ordenlar bilan taqdirlash bilan bog'liq turli ma'lumotlar keltirilgan.

Toshkent shahar Ijroiya qo'mitasi poytaxt hayotining har bir sohasida amalga oshirilgan ishlarga mas'ul bo'lib, ularni aksariyatini boshqargan va turli sohadagi boshqaruv organlari, mutasaddi tashkilotlar ishini muvofiqalashtirgan[6]. Shunga ko'ra shahar arxividagi ushbu tashkilotning flondida saqlanayotgan hujjatlarda Toshkent shahrida kechgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayotga doir ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ushbu yo'nalishlardagi tadbirlarning mohiyati, rejasi, tashkiliy jihatlari, ahamiyati, natijalari bilan bog'liq manbaviy faktlar aynan shu hujjatlarda o'z aksini topgan. Umuman olganda, Toshkent shahar Kengashining faoliyatini yorituvchi

Ispolkomning shakllanishi xususida to'xataladigan bo'lsak, 10-fondning qisqa tarixiy ma'lumoti deb nomlangan hujjatda Qizil bayroq ordenli Mehnatkash deputatlar Toshkent shahar Soveti Ijroiya qo'mitasi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. 1917 yil fevral oyida “Ishchi soldat deputatlari Toshkent shahar Soveti” tashkiloti tuziladi, 1917 yil oktabr oyidan “Ishchi soldat deputatlari Toshkent shahar Soveti Ijroiya Qo'mitasi” deb qonunlashtiriladi. Mazkur tashkilot 1924 yil 14-aprelda Butun Rossiya Ijroiya qo'mitasi Soveti Prezidiumi farmoniga ko'ra Qizil bayroq ordenli bilan taqdirlangach “Qizil bayroq ordenli Mehnatkash deputatlar Toshkent shahar Soveti Ijroiya qo'mitasi” deb yuritila boshlaydi. 1924 yil 16-sentabrdan e'tiboran “Ishchi, dehqon, qizil armiya deputatlari Yangi shahar Ijroiya qo'mitasi Soveti” deb qayta nomlanadi. 1927 yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq, tashkilotning nomi 1927 yil 11-iyuldan boshlab “Ishchi, dehqon, qizil armiya deputatlari Toshkent shahar Soveti” deb ataladi. Ushu farmon O'zbekiston SSR MIK Prezidiumi 11-raqamli 2-Butun O'zbek Soveti syezdida qabul qilingan edi. Bungacha shahar 2 qismdan Yangi shahar va Eski shahar qismlaridan iborat bo'lgan bo'lsa 1928 yilda O'zSSR MIK farmoniga ko'ra shaharning ikki qismi birlashtiriladi. 1936 yilga kelib, “Ishchi, dehqon, qizil armiya deputatlari Toshkent shahar Soveti” va Ijroiya organi Prezidium deb atala boshlanadi. 1937 yilda O'zSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinadi. 1937 yil 14 fevralda o'tqazilgan O'zSSRning VI-favqulodda syezdi qarori bilan “Mehnatkash deputatlari Toshkent shahar kengashi Ijroiya qo'mitasi deb atala boshlaydi.

Yuqorida nomlanishi bir necha marotaba o'zgargan bo'lishiga qaramay faoliyat turi bir qolipda bo'lgan tashkilot quyidagilarni nazorat qilar edi: madaniy, siyosiy masalalarni xal qiladi, shahar hududida iqtisodiy qurilishga rahbarlik qiladi, mahalliy budjetni belgilaydi, jamoat tartibini muhofaza qilishni ta'minlaydi, poytaxt sifatida mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga xissa qo'shadi, qonunlarga rioya etilishi va himoya qilinishini ta'minlaydi. Ijroiya qo'mitasi quyidagi bo'limlardan iborat: tashkiliy bo'lim, kadrlar bo'limi, protokol qismi, fuqarolardan tushadigan ariza va murojaatlarni qabul qilish bo'limi, maxsus bo'lim, umumiy bo'lim.

Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi 10-fondida 1917-2016-yillarga oid yirik hujjatlar to'plami saqlanadi. Hujjatlar asosan ikki tilda, ya'ni rus va o'zbek tillarida, 3 xil yozuv grafikada: arab, lotin, kirill grafikalarida yozilgan (jadv.2).

18	10-fond	7	1980-1991	597
19	10-fond	8	1989-1992	40
20	10-fond	13	1917-1991	484
21	10-fond	21	1935-1965	200
22	582-fond	1	1992-1994	202
23	582-fond	1davomi	1995-1995	223

Qolaversa, 10-fondga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 13, 18, 20, 21, 582-ro'yxatlar (opis) tegishli bo'lib, o'rganilgan 1-ro'yxat 2-qism 1930-yilga oid hujjatlarga 911-yig'majildidan 1000-yiqmajildgacha bo'lgan 89 ta yig'majildida jami 11850 ta hujjat saqlanmoqda.

Qayd etish joizki, arxivchi mutaxassislar tomonidan mazkur jamg'arma hujjatlari taftish qilinib turiladi va ularning xulosalari hujjatlarning saqlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 10-fond sharhidan quyidagilar ma'lum bo'ladi: 1944 yil Markaziy arxiv boshqarmasidan TSHMDAga O'zSSR Xalq Komissarligi maxsus bo'limi tomonidan 64 ta saqlov birligi hujjatlari topshirilgan. Maxsus bo'limda yillar bo'yicha bir qator hujjatlar saqlanadi. 1934-1950-yillar bo'yicha 140 saqlov birligi, 1951-yil 12 ta yig'majild, 1952 2-jadval

TSHMDA 10-FOND RO'YXATLARI MONITORINGIDAN LAVHALAR

№	Fond	Tafsif	Hujjatlarning oxirgi sanasi	Qancha saqlov birligi	Necha yo'qligi
1	10-fond	4(davomi)	1971-1975	547	6 ta yig'majild
2	10-fond	5	1970-1982	1366	7 ta yig'majild
3	10-fond	5(qo'shimcha)	1970-1982	142	3 ta yig'majild
4	10-fond	6	1956-1982	816	1 ta yig'majild
5	10-fond	7	1980-1991	622	11 ta yig'majild
6	10-fond	8	1989-1991	38	2 ta yig'majild

Mazkur tekshiruv davomida arxivda yillar davomida hujjatlar saqlanishi nazoratga olinganligini va ayrim hujjatlar yo'qolganligini, kimvoviy jarayonlar va ta'mirlash ishlari vaqti vaqti bilan o'tkazilganligini aniqlangan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Toshkent shahrining boy tarixi sahifalarida XX asr voqealari alohida bir davr va u boshqalaridan tubdan farq qiladi. Xususan 1917-1991 yillarda bu shahar Sovet davlati tarkibiga kiruvchi O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi poytaxti vazifasini o'tagan va bu bilan bog'liq holda unda ko'plab muhim transformatsion jarayonlar sodir bo'lgan[9]. Barcha sohalarida o'zgarishlar kuzatiladi: hududi kengaygan, aholisi o'sgan, ma'muriy tuzilishi o'zgartirilib, rayonlar tashkil qilingan, xalq xo'jaligida jamoalashtirish, sanoatlashtirish prinsiplari ustun turgan, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayot ham mustabid sovet tizimining talablari asosida tashkil etilgan. Bularning barchasi, tabiiyki, yozma manbalar, jumladan, arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan[10].

Ayniqsa poytaxt arxivida ushbu ma'lumotlar juda katta miqyosda saqlanadi. Ular tarkibidagi 10-fond Toshkent shahar

yil 13 ta yig'majild, 1953 yil 17 ta yig'ma jild[7] mavjud. Mazkur hujjat Toshkent shahar kengashi Ijroiya qo'mitasi kotibi X.Usmonov tomonidan imzolangan. 1957 tasdiqlangan maxfiy aktga ko'ra 10-fondga mavjud 615 umumiy saqlov birligidagi hujjatlardan 115 saqlov birligi hujjatlari qoldirilishi, 55 saqlov birligi hujjatlari makulaturaga yo'naltirilishi lozimligi qayd etilgan. Maxfiy akt 30.X.1957 yilda komissiya rahbari Guseva, a'zolar Vekselman, IIB inspektori Manevich, IIB tergovchisi Danilov tomonidan imzolangan. IIB boshlig'i Sevumyan tomonidan tuzilgan[8]. 2006 yil 7-fevralda Axmedova F. tomonidan o'tqizilgan tekshiruvlar asosida 10-fond 5-tavsifida 1372 ta yig'majildidan 14 ta jild joyida yoq ekanligi aniqlangan. 2-dalolatnomada (2-jadv.)

xalq deputatlari Kengashi Ijroiya qo'mitasiga tegishli bo'lib, shaharning barcha sohalarini boshqarib turgan mazkur davlat organining fondi sanaladi. Unda hujjatlar ancha ko'p yig'ilgan va shu bois o'n sakkizta ro'yxat bo'yicha tizimga solingan. Arxiv jamg'armasidagi hujjatlarni tasnif qilinadigan bo'lsa, ular tarkibida quyidagi hujjat turlari mavjudligi aniq bo'ladi: qaror, farmoyish, bayonnoma, hisobotlar, hay'at, bo'limlarning ish yuritish hujjatlari, hisob-kitob materiallari, yozishmalar, shikoyatlar, karta-sxema, chizmalar, ariza, buyruq va b.lar. Yig'majildlar hajmi turlicha – bir nechta sahifadan boshlab to bir necha yuz varaqni o'z ichiga olgan hujjatlar mavjud. Yig'majildlarning ayrimlarida chizmalar, xaritalar, ayrim fotosuratlar uchraydi. Bularning barisi muayyan soha, tashkilot ishini o'rganishda juda muhim sanaladi. Mazkur fond shahar boshqaruvining asosiy organi hisoblangan Toshsovetpaga tegishli bo'lgani uchun, unda keng ko'lamdagi arxiv hujjatlari to'plangan, shu sababli, ushbu arxiv jamg'armasini Toshkentning sovet davri tarixini yorituvchi asosiy fond deyish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/acts/3107036>.
2. Bo'rieva X. Toshkent shahri loy nomlari tarixidan. To'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Kaleon press, 2021 y. – 136 b.
3. Дармонова М.А. Тошкент шаҳар Марказий давлат архиви: тарихи ва тарихий манбалари. – Тошкент: Илм-зиyo zakovati, 2020. – 194 б.
4. Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi fondlar va hujjatlar hisobi to'g'risidagi ma'lumotnoma. 2020 yil.
5. Буриева Х.А. Методы топонимических исследований при работе с архивными документами (на примере г.Ташкента) // История столицы в архивных материалах. – Матер.междунар.науч.-практич.конф. – Астана, 2013. – с.30-37.
6. Тошкент: Қомус / Таҳрир ҳайъати: Н.Тўқлиев (Бош муҳаррир). М.Аминов (Масъул муҳаррир) ва б. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. – 312-314 б.
7. Toshkent shahar Markaziy davlat arxivi (TSHMDA). 10-fond 1-ro'yxat 58 hujjat, 78-89 varaqlar.
8. TSHMDA 10-fond 1-ro'yxat 98 hujjat, 112-118-varaqlar.
9. Буриева, Х. А. (2019). Роль политических факторов в формировании топонимической структуры городов (на примере топонимии г. Ташкента). In Природно-географические факторы в повседневной жизни населения России: история и современность (региональный аспект) (pp. 51-58).
10. Rakhmonkulova, Z., Khayriya, B., Choriev, S., & Dildora, Y. (2020). History Of Tashkent In The Researchs Of Russian Scientists (Late XIX-Early-XX Century). The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 410-417.